



UO•K: 94:339(575.1)

Shuxrat ALLAMURATOV,
Termiz iqtisodiyot va servis universiteti o'qituvchisi, PhD
E-pochta: allamuratovs@tersu.uz

O'zMU professori, tarix fanlari doktori O'.Mavlonov taqrizi asosida

LOCAL SHIPPING IN THE AMUDARYA (SECOND HALF OF THE 19TH – EARLY 20TH CENTURIES)

Annotation

This article is devoted to the history of the development of local shipping on the Amu Darya in the second half of the 19th - early 20th centuries, as well as the significance of the Amu Darya in regional communications and waterways. The article also compares the changes that took place in the order of local shipping and cargo transit in the Amu Darya based on written and archival sources of the second half of the 19th – early 20th centuries.

Key words: Waterways, boat, vessel, raft, gupsar, shipbuilding, pilot, trade, transit, navigation.

МЕСТНОЕ СУДОХОДСТВО В АМУДАРЬЕ (ВТОРАЯ ПОЛОВИНА XIX – НАЧАЛО XX ВЕКА)

Аннотация

Данная статья посвящена истории развития местного судоходства на Амударье во второй половине XIX – начале XX века, а также значению Амударьи в региональной коммуникации и водных путях. Также в статье сравниваются изменения, происходившие в порядке местного судоходства и транзита грузов в Амударье на основе письменных и архивных источников второй половины XIX – начала XX века.

Ключевые слова: Водные пути, лодка, судно, плот, гупсар, судостроение, лоцман, торговля, транзит, навигация.

AMUDARYODA MAHALLIY KEMACHILIK (XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSH LARI)

Аннотация

Ushbu maqola XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Amudaryodagi mahalliy kemachilikning rivojlanish tarixi hamda Amudaryoning mintaqa kommunikasiyasi va suv yo'llaridagi ahamiyatiga bag'ishlangan. Shuningdek, maqolada Amudaryodagi mahalliy kemalar qatnovi va yuk tranziti tartiblarida ro'y bergan o'zgarishlar XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlariga oid yozma hamda arxiv manbalarida keltirilgan ma'lumotlar asosida qiyosiy tahlil etilgan.

Kalit so'zlar: Suv yo'llari, qayiq, kema, sol, gupsar, kemachilik, darg'a, savdo-sotiq, tranzit, navigatsiya.

Kirish. Hozirda mintaqalar va mamlakatlarning integratsiyalashuvini transport-kommunikatsiya tizimi tarmoqlari, savdo va tranzit aloqalarisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Mintaqa uchun muhim strategik ahamiyatga ega bo'lgan Amudaryo suv yo'li va kechuvlari xalqlar o'rtasida aloqa vositasi ekanligi, ularning savdo-tranzit munosabatlaridagi roli muammosini o'rganish alohida ahamiyatga ega bo'lgan masaladir. Ayniqsa, "...azaldan Buyuk ipak yo'li, Buyuk Hind savdo yo'llarida joylashgan Markaziy Osiyo geostrategik o'rnaviga ko'ra, ming yillar davomida jahon miqyosidagi muhim jarayonlar markazida bo'lib kelgan. Bizning mintaqamiz Yevropa, Yaqin Sharq, Janubiy va Sharqiy Osiyoni bog'laydigan o'ziga xos ko'priki bo'lib xizmat qilgan" [1]. Bu borada XIX – XX asr boshlarida Amudaryodagi kemasozlik, suv transporti vositalarining navigatsiyasi, logistika-servis xizmatlari, ichki va tashqi savdo-tranzit aloqalarini o'rganish mintaqa tarixida dolzarb mavzulardan biri bo'lib qolmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Amudaryodagi mahalliy kemachilik rivojlanish tarixi haqidagi dastlabki manbalar sifatida Rossiya imperiyasi bosqini arafasida mintaqaga turli maqsadlarda tashrif buyurgan A.Byorns, H.Vamberi kabi chet ellik sayyohlar, shuningdek, Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davrida o'lkaga kelgan elchilar, sayyohlar hamda boshqaruv ma'muriyati, harbiy idoralarning amaldorlari – D.N.Logofet, A.M.Mixaylov, N.A.Benselevich tomonidan e'lon qilingan risola asarlari, davriy nashrlardagi maqolalar tashkil etadi

Maqolani yozishda mustaqillik yillarida yaratilgan O'.Mavlonov, E.Qobulov, F.Ochilidiev,

Sh.Allamuratovlarning ilmiy asarlari va tadqiqotlarni muhim manba vazifasini o'tab, ulardagi ko'pgina ma'lumotlar birinchi marotaba ilmiy muomalaga kiritildi.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada umumiy qabul qilingan usullar – tarixiy tahlil, davriy va hududiy-geografik, qiyosiy tahlil, statistik, ilmiy izchillik tamoyillari asosida XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Amudaryodagi mahalliy kemachilik va undagi tranzit aloqalar tarixi hamda mintaqa kommunikasiyasi tizimidagi o'zgarishlar bayon etilgan.

Tahlil va natijalar. Amudaryo o'zining tabiiy injiqliklari – suv o'zanining doimiy o'zgarib turish xususiyatlariga qaramasdan, mintaqa aloqa-kommunikatsiya tizimida katta rol o'ynagan. O'zbek xonliklari o'rtasidagi ziddiyatlar davrida ham bu suv yo'li to'xtab qolmagan. Negaki, suv yo'li orqali tashilgan yuklar arzonga tushgan. Natijada daryodan ko'proq yuk tashish ehtiyoji yuzaga kelgan.

Amudaryoning o'rta va quyi oqimi hududlarida azaldan don mahsulotlarining taqchilligi mavjud edi. Uzoq vaqtlar davomida u yerlarga "g'alla ombori" bo'lgan Sharqiy Buxorodan don mahsulotlari olib kelinardi. G'arbiy Buxorodan Sharqiy Buxoroga Zarafshon, Hisor va Ko'hitang tog'larining qiyinchilik bilan bosib o'tiluvchi kichik tog' so'qmoqlari orqali borish mumkin edi. Quruqlik yo'llaridagi qiyinchiliklar aholining Amudaryo tabiiy suv yo'llaridan foydalanishni taqazo etgan. Shu sababli, Sharqiy Buxorodan g'alla mahsulotlarini olib ketish ehtiyoji ushbu yirik daryoda kemachilikning rivojlanishiga turtki bo'lgan.

Bundan tashqari, XIX asr oxirlarida Petro-Aleksandrovsk, Chorjo'y, Karki, Termiz va Saroyda rus aholi punktlari yuk tovarlarni qabul qilish bo'yicha Rossiya

transport jamiyatlari idoralari uchun ochilishi mintaqada kemachilikning yanada jadal rivojlanishiga turtki bo'lgan [2]. Bu davrda o'lkada sanoat va savdo-sotiqning rivojlanishi natijasida Amudaryoning yuk aylanmasi o'sib borgan. Daryodagi tranzit va savdo aloqalari uchun paroxodlarning yetishmasligi esa mahalliy kemachilik sohasiga ehtiyojni oshirgan. Yuqoridagi omillar kemachilikni mahalliy xalqlarning ayrim toifalari uchun asosiy mashg'ulotlardan biriga aylantirdi. Biroq mahalliy kemachilikda qadimiy an'analar hamon saqlanib kelinayotgandi.

XIX asrda Amudaryo bo'ylab ko'plab kemalar qatnaganini, hatto, sayyoh elchilar ham ta'kidlashgan. Bu borada ingliz harbiy elchisi A.Byorns Amudaryoda jami 200 dan ortiq, quyi oqimida esa 150 tagacha kemalar suzib, ularning aksariyati Xiva xonligiga qarashli ekanligi to'g'risida ma'lumotlarni berib o'tadi. Bundan tashqari A.Byorns xivaliklar o'z kemalarida Buxoroga ko'plab miqdorda tovar va yuklar bilan kelib qatnab turganligi, Chorjo'ydan daryoning yuqori qismida kemalar kamroq bo'lib, bu qismda sollar manzilga eltuvchi transport ekanligini ham ta'kidlaydi [3]. Sababi yuqoriga, ya'ni tez oqimga qarshi suzish qiyin va xavfliroq edi.

Vengr sayyohi H.Vamberi ham o'z esdaliklarida Amudaryodagi kema qatnovi haqida quyidagi ma'lumotlarni beradi: "Karki va Chorjo'ydan Amudaryoning quyi qismlariga kichik yoki katta kemalar muntazam suzib borgan; Karki va Chorjo'ya yuqori oqim bo'ylab Badaxshon tog' yonbag'irlaridan o'tin va qurilish yog'ochlari sollarda olib kelingan; Xazorasp bilan Ilchiq (Buxoroning Amudaryo quyi oqimidagi so'nggi qo'nimgohi va ombori) oralig'ida Xivaga borilib, u yerdan tovarlar, oziq-ovqatlar kattaroq kemalarda yetkazilgan; Xiva xonligida daryo bo'yidagi gavjum shaharlardan katta-kichik yuklarni manzilga yetkazish uchun kemalar qulay va arzon transport bo'lganligidan ularda hatto yo'lovchilar tashilgan"[4].

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarda Amudaryoda ko'plab kemalar suzganligi va Xorazm vohasida kemachilik aholining muhim xo'jalik tarmog'iga aylanganini ko'rishimiz mumkin.

O'rta Osiyo xonliklarida Rossiya imperiyasi vassalligi o'rnatilgach, sanoat ehtiyoji uchun muhim xom ashyo hisoblangan paxtaga talab ortdi. Shu boisdan savdo yo'llarini kengaytirish va jadallashtirishga e'tibor kuchaygan. Avvalo, suv yo'llaridan ko'proq foydalanishga intilishgan [5]. Bu esa mintaqa suv yo'llarida savdo-sotiq aylanmasini rivojlantirgan.

Amudaryo bo'ylab asosan yuk tashuvchi qayiqlar suzgan. Amudaryoda rus flotiliyasi tashkil qilingunga qadar Xiva, Buxoro va afg'on qayiqlari harakat qilgan. Bu qayiqlarda savdo yuklari va yo'lovchilar tashilgan. Daryoda 300 puddan 2,5 ming pudgacha yuk ko'tara oladigan palubasiz katta-kichik qayiqlar bo'lib, kamdan-kam hollarda 4-5 ming pud yuk ko'taruvchi bir machtali yelkanli kemalarni ham uchratish mumkin edi [7]. Ushbu davrga oid manbalarda Amudaryoda harakatlangan kema va qayiqlar soni turlicha keltirilgan. Masalan, XIX asr oxiriga oid arxiv manbalarida Qo'ng'irotdan ta Pitnagacha Xiva xonligi aholisiga tegishli 2 mingga yaqin qayiqlar Amudaryoda suzganligi to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud (1884 yilgi ma'lumot) [8].

Boshqa bir arxiv manbasida esa, Amudaryoda xivaliklarning 800 puddan 1500 pudgacha yuk ko'tara oladigan 600 ga yaqin qayiqlari qatnaganligi keltirib o'tilgan [9]. 1907-1908 yillarda Saroy va Petro-Aleksandrovsk oralig'ida 1,5 mingdan ortiq qayiqlar yil davomida (qishki ikki oydan tashqari) yuk tashish bilan shug'ullanishgan. D.N.Logofetning hisobi bo'yicha, XX asr boshlarida Buxoro amirligi va Xiva xonligi o'rtasidagi o'zaro savdo aloqalarida 420 ta Xiva qayiqlari, 80 ta Buxoro qayiqlari bo'lgan [2].

Bundan tashqari Amudaryoning yuqori oqimi, Vaxsh va Panj daryolari bo'ylab 2000 pudgacha yuk ko'tara oladigan

1000 dan ortiq qayiqlar suzishgan, ular oqim bo'ylab yuqoriga harakatlanishda arqonlar, kamdan-kam hollarda yelkanlardan foydalanishgan [10]. N.A.Benselevich ham XX asr boshlarida Amudaryo bo'ylab jami 1,5 mln. rublga narxlangan, jami 1 mln. pudgacha yuk ko'taruvchi 1,5 mingga yaqin Xiva qayiqlari suzganligi to'g'risidagi ma'lumotni keltirib o'tgan [7]. I.A.Remez esa, Amudaryo bo'ylab Buxoroning odatda 600-800 pud, ba'zilari esa 3 ming pudgacha, jami 500 ming pud yuk ko'tara oladigan 500 ga yaqin qayiqlar mavjudligini ta'kidlagan [11]. Shunga qaramasdan bunday ko'p sonli kema - qayiqlar Amudaryo bo'yi hududlaridagi barcha yuklarni tashishga ulgura olmasdi va tranzit ehtiyojlarini qondira olmagani.

Ko'plab miqdordagi yuklarni tashish, yuk tashishning yaxshigina serdaromadligi va yuklarni tez hamda arzon yetkazib berish zarurati mahalliy kema egalari qayiqlar sonini ko'paytirishiga undagan. Natijada, yildan-yilga Amudaryo bo'ylab suzuvchi, yuk tashuvchi kema, qayiqlar soni ko'payib borgan.

Katta miqdordagi yuklarni tashishda aksariyat hollarda Xiva kemalaridan foydalanilgan. Xiva kemalari Buxoro kemalariga nisbatan ustun bo'lib, 3-5 ming pud yuk ko'tara oladigan deyarli barcha katta qayiq va kemalar xivaliklarga tegishli bo'lgan [2]. Uncha katta hajmga ega bo'lmagan kemalar buxoroliklarga tegishli bo'lib, ular Chorjo'ydan Amudaryo bo'ylab yuqori oqimga Panj daryosi va Fayzobodqal'a (Panj daryosida, Saroydan 16 verst quyida) xarobalarigacha suzishgan. Panj daryosiga Saroy qishlog'idan yuqori qismiga qayiqlar suzishmagan, sababi daryoda bir nechta ostonalar mavjud edi. Shuning uchun Saroydan Bog'orakkacha bo'lgan Panj daryosi va yuqoridagi Vanch daryolarida va kechuvlarida havo bilan shishirilgan teri gupsarlardan foydalanilgan (26-ilova). 8 tadan 20 (12-20) tagacha gupsarlar bir-biriga bog'lanib birlashtirilgan, so'ngra ustiga yuqqa yog'ochlar - xodalar to'shalib sol (amat) yasalgan. Bunday sollarda 3-4, ba'zan 4-6 kishi va 15-40 pudgacha yuk tashish mumkin edi [12]. Amudaryodagi ayrim pontonli sollar hatto 150 kishini ko'tarishi mumkin edi[3]. Ba'zi hollarda bunday gupsarlarning 10-12 tasi otlarga bog'langan va ular yordamida ot yoki yo'lovchilar mustaqil daryoni kechib o'tishgan[7]. Rus manbalarida bir-biriga bog'langan charm meshlarni otlarning dumiga bog'lab, ular ustiga yuklarni qo'yib Amudaryoning yuqori oqimlari va irmoqlaridan o'tishda ham foydalanilgani aks etgan[13].

Xiva xonligida aholining ko'pchiligida o'z shaxsiy qayiqlari bo'lgan, ayniqsa, boylarda bir nechtagacha kema bo'lgan. Xiva xonligining Amudaryo bo'yidagi har bir shaharida 20 tagacha kemalarni topish mumkin bo'lib, ular faqat turli mahsulotlar - g'alla, yog'och, tuz tashishdan tashqari karvonlarni daryodan o'tkazishda ham ishlatilgan. Masalan, Yangi Urganch, Gurlan shaharlarining qarshisida, Yumur shahrining pastrog'idagi Qipchoq, Xo'jayli va Qo'ng'irotdan shaharlari yaqinida kemalardan yuklarni narigi sohilga olib o'tishda foydalanilgan[14].

Xivaliklar Petro-Aleksandrovskdan daryoning butun oqimi bo'ylab suzishgan. Xivaliklar ko'proq yuklar mavjudligi va mavsumga bog'liq ravishda mart oyidan noyabrgacha Chorjo'y va Xiva oralig'ida, boshqa vaqtlar Chorjo'ydan yuqori oqimga, ba'zilari esa Chorjo'ya kirmasdan Xiva va Karki oralig'ida qatnagan. Bundan tashqari qayiqlarning bir qismi Urganch va quyi oqimdagi kanallar orqali xonlikdagi paxta zavodlari uchun ham xizmat qilgan. Qish kelishi bilan (noyabrning birinchi yarmidan) boshlab daryoning quyi qismida suzish to'xtagan, agar yuk bo'lsa, Xiva xonligi kemalari Chorjo'y va Karki oralig'ida qatnagan[12]. Bu sharoitdan kelib chiqib, qishda Chorjo'ydan yuqoriga qatnov kam bo'lgan hamda bu vaqtda qayiq topish qiyin bo'lganligi uchun yuk tashish narxi ham ko'tarilib ketgan.

Qayiqlar uchun alohida pristan - bandargohlar bo'lmagan, biroq Xiva qayiqlari to'xtashi uchun Petro-Aleksandrovsdkdan yuqorida Pitnak va Xazorasp, Petro-Aleksandrovsdkdan quyida esa Xonqa, Urganch, Gurlan va Xo'jayli qulayroq joylar edi. Qayiqlar soni aniq qayd qilinmagan, ularning soni doimiy o'zgarib turgan. 1906, 1907 va 1908 yillarga kelib Buxoro va Xiva xonligi o'rtasida jami 270 tagacha kema - qayiqlar qatnab, ularning yuk ko'tarish hajmi 300 ming pudgacha bo'lgan[12]. 1910 yillarda esa Amudaryo bo'ylab suzuvchi kema - qayiqlarning o'rtacha yuk ko'tarish hajmi taxminan 500 ming pudga yaqin bo'lib [2, C.212-213], ular deyarli hech qayerda qayd qilinmagani uchun bu raqamlar taxminiy hisoblangan. Bu davrdagi kichik qayiqlar haqida ma'lumotlarni yig'ish imkonsiz bo'lgan. Ularning yuk tashish hajmini taxminan 30 ming pud deb hisoblash mumkin.

Kemalar soni, ularning qatnovi mavsumga qarab o'zgarib turgan. Amudaryoda noyabr, dekabr, yanvar, fevral va mart oylari suzish davri uchun eng noqulay payt edi. Chunki bu vaqtda daryoda suv sathi pasaygan, shamollar ko'p bo'lishi qatnovni qiyinlashtirgan. Xususan, qahraton qish oylarida suv yo'lidan foydalanish deyarli to'xtab qolgan bo'lsa, bahorgi toshqinlar ham suv yo'llaridan foydalanish va kechuvlardan o'tishda ma'lum qiyinchiliklarni yuzaga keltirgan. Suv sathining ko'tarilishi yoki kamayishi suv yo'li masofasiga ham ta'sir qilar edi. Masalan, Chorjo'ydan suv yo'li masofasi Petro-Aleksandrovskkacha 410 verst, Urganchgacha 445 verst, Xonqagacha 425 verst va Xazoraspigacha 390 verst edi. Bu masofa Amudaryo bo'ylab o'tgan telegraf chizig'i bo'yicha aniqlangan edi, lekin suv sathi ko'tarilganda bu masofa 10 foizdan ko'proqqa, kamayganda esa bu masofaga yana 5-10 foizga o'zgarar edi [15]. Yoz faslida daryolarda kemalardan foydalanish darajasi ancha oshgan.

Daryo o'zanining tez-tez o'zgarishi tufayli qatnov kunduz kunlari amalga oshirilgan. Amudaryoda suv oqimi holatiga qarab kemani boshqaruvchi "darg'a" ("lotsman") deyilgan. Suv o'zanining doimiy o'zgarib turishi hatto tajribali darg'alarga ham qiyinchilik tug'dirgan.

Amudaryo bo'ylab Buxoro kemalari jamoasiga nisbatan Xiva kemalari darg'alari tajribaliroq edi. Ular suv yo'li o'zanini yaxshi tushungan va jamoa bo'lib harakatlanib,

1,5-2 ming pudli katta Xiva qayiqlarini boshqarishgan. Rus tilida gaplasha oladigan ko'pgina xivaliklar Amudaryo flotiliyasi paroxodlari va barjalarida darg'a (lotsman) bo'lib ishlashgan [7]. Xivaliklarga kemachilikda faqat "uralliklar" jiddiy raqobatchi bo'lishgan. Amudaryo bo'limining Chimboy uchastkasida ural kazaklariga tegishli har biri 10-20 pud yuk ko'taradigan 400 dan ortiq yelkanli barkalari - kemalari suzishgan [16]. Tabiatan baliqchilik bilan shug'ullanib kelgan uralliklar o'z qayiq va kemalari bilan Chorjo'ydan Orol dengizigacha, Amudaryo deltasi hamda Orol dengizida yuk tashishda asosiy rol o'ynagan.

Tashiladigan yuk hajmining oshishi tufayli yil bo'yi (ikki qish oyidan tashqari) Saroy va Chorjo'y oralig'ida 1000 dan ortiq[17], Saroy hamda Petro-Aleksandrovs oralig'ida esa 1500 dan ortiq[2] mahalliy kema, qayiqlar harakatlanishgan. Kema va qayiqlar soni yilma-yil o'sib borgan, lekin bu hali ham Amudaryo bo'ylab yuk tashish ehtiyojlarini to'liq qondira olmasdi. Bu davrda Amudaryo flotiliyasi paroxodlarining daryoda harakatlanishidagi qiyinchiliklar, flotiliyaning zarar bilan ishlashi tufayli millionlab pud yuklar hamon mahalliy kema va qayiqlar orqali tashilavergan[18]. Keyinchalik Amudaryo suv yo'llarida yuk tashishning yangidan-yangi usullarini qo'llashga harakat qilingan.

Xulosa. Amudaryoda mahalliy kemachilik mavzusini yoritish va tahlil etish orqali quyidagi xulosalarga kelindi:

mintaqada savdo va tranzit ishlarning rivojini natijasida yirik miqdordagi yuklarni tez hamda arzon yetkazib berish zarurati, yuk tashishning serdaromadligi mahalliy kema, qayiqlar sonining ko'payishiga olib kelgan;

Amudaryoda ko'plab kemalar va qayiqlar suzgan. Natijada o'rtacha hisobda Amudaryo bo'ylab bir necha o'n ming kishi kemachilik va qayiqchilik sohasida band bo'lgan. Bundan esa mintaqada kemachilik aholining muhim xo'jalik tarmoqlaridan biriga aylangan.

Umuman olganda, XIX-XX asr boshlarida Amudaryoda harakatlangan qayiq va kemalar qatnovi nafaqat Buxoro va Xiva xonliklari o'rtasida, balki daryo bo'ylab butun mintaq bo'yicha amalga oshirilgan. Bu esa o'rganilayotgan davrda Amudaryo suv yo'lida savdo va tranzit aloqalarining ancha rivojlanganligini tasdiqlaydi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021. – B. 38.
2. Логофет Д.Н. Бухарское ханство под русским протекторатом. Том I. – СПб.: В.Березовский, 1911. – 340 с.
3. Борнс А. Путешествие в Бухару: рассказ о плавание по Инду от моря до Лагара с подарками Великобританского короля и отчет о путешествии из Индии в Кабул, Татарию и Персию, предпринятом по предписанию Высшего правительства Индии в 1831, 1832 и 1833 годах. / Перевел с английского Георг Минь. Ч 3. – М.: Издание П.В. Голубкова, 1849. – 628 с.
4. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. Описание поездки из Тегерана через Туркменскую степь по восточному берегу Каспийского моря в Хиву, Бухару и Самарканд, совершенной в 1863 году Арминием Вамбери, членом Венгерской Академии. – СПб., 1865. – 221 с.
5. Кобулов Э., Алламуратов Ш. XIX аср охири-XX аср бошларида Сурхон воҳасининг Амударё сув йўли ва кечувлари оркали савдо муносабатлари //Марказий Осиё тарихи ва маданияти. – 2023. – Т. 1. – №. 1. – С. 405-409.
6. Кабулов Э.А. Место долины Сурхан в торговых сношениях России с восточными странами // Universum: Общественные науки: ЭНЖ. 2015. № 1-2 (12). <http://universum.com/ru/social/archive/item/1969>
7. Бенцелевич Н.А. Водные пути Туркестана. Материалы для описания русских рек и истории улучшения их судоходных условий. Выпуск LV. – СПб.: М-во путей сообщения, 1914. – 260 с.
8. O'zbekiston Milliy arxivi, I-1-fond, 22-ro'yxat, 832-ish, 17-varaq.
9. O'zbekiston Milliy arxivi, I-2-fond, 1-ro'yxat, 8-ish, 6-varaq.
10. Логофет Д.Н. На границах Средней Азии. Путевые очерки в 3 книгах. Книга 2. Русско-афганская граница. – СПб.: В.Березовский, 1909. – 208 с.
11. Ремез И.А. Внешняя торговля Бухары до мировой войны. – Ташкент: ЦСУ Туркеспублики, 1922. –72 с., прил. – 45 с.
12. Михайлов А. Каючный промысел на Амударье // Туркестанские ведомости. – 1908. № 212.
13. Петров. Путевые заметки классного топографа тит. Петрова 1884г. // Сборник географических, топографических и статистических материалов по Азии. Выпуск XXI. – СПб., 1886. – С. 53-102.
14. Зияев Х. Ўрта Осиё ва Волга бўйлари (XVI асрнинг иккинчи ярми – XIX асрлар). – Тошкент: Фан, 1965. – 236 б.
15. Михайлов А. Каючный промысел на Амударье // Туркестанские ведомости. – 1908. № 220.
16. Досумов Я.М. Очерки истории Кара-калпакской АССР 1917-1927. – Ташкент: Фан, 1960. – С. 33.
17. Логофет Д.Н. Страна безправия. Бухарское ханство и его современное состояние. – СПб.: В.Березовский, 1909. – 239 с.
18. Allamuratov Sh.A. Amudaryo suv yo'li va kechuvlari tarixi (XIX-XX asr boshlari). Monografiya. – Toshkent: Innovatsiya-Ziyo, 2023.



UDK: 39:572:316.273

Sayfiddin ANARKULOV,
O'zbekiston Milliy universiteti, PhD
E-mail: nsgi_zr85@mail.ru

O'zRFA professori, t.f.d A.A. Ashirov taqrizi asosida

URBAN ANTHROPOLOGY AS A SEPARATE FIELD OF RESEARCH

Annotation

This article discusses the formation of the study of the urban problem as a separate scientific direction in the field of anthropology and its research object and characteristics.

Key words: Urban anthropology, integration, ecosystem, lifestyle, multiculturalism, urban ecology, tradition, ghetto, urbanism.

ГОРОДСКАЯ АНТРОПОЛОГИЯ КАК ОТДЕЛЬНОЕ НАПРАВЛЕНИЕ ИССЛЕДОВАНИЙ

Аннотация

В данной статье рассматривается становление изучения урбанистической проблемы как отдельного научного направления в области антропологии, его объект исследования и характеристики.

Ключевые слова: Городская антропология, интеграция, экосистема, стиль жизни, мультикультурализм, городская экология, традиция, гетто, урбанизм.

SHAHAR ANTROPOLOGIYASI TADQIQOTLARNING ALOHIDA YO'NALIGI SIFATIDA

Аннотация

Ushbu maqolada antropologiya sohasida shahar muammosini o'rganishning alohida ilmiy yo'nalish sifatida shakllanishi, uning tadqiqot ob'ekti va xususiyatlari haqida mulohazalar qilinadi.

Kalit so'zlar: Shahar antropologiyasi, integratsiya, ekotizim, turmush tarzi, multikulturalizm, shahar ekologiyasi, an'ana, getto, urbanizm.

Kirish. Bugungi globallashuv davrida taxminan 3,5 milliard kishilar shaharlarda yashamoqdalar. Ya'ni, 2007-yildan beri dunyo aholisining asosiy qismi shaharlarda istiqomat qilib kelmoqda. BMT tomonidan 2050-yilga borib shaharliklar soni 6,3 milliardga yetishi, ularning dunyo aholisidagi ulushi 50 foizdan 70 foizga oshishi prognoz qilinmoqda. Shaharlar bunyodkorlik va iqtisodiy taraqqiyot markazlariga aylanib, 10 million va undan ortiq aholiga ega megapolislar Yer maydonining 0,2 foizdan kamrog'ini egallagan. Biroq, sayyoradagi har 10 kishidan biri aynan, shu metropolialarda yashamoqdalar. Bir so'z bilan aytganda, shahar bugungi jamiyat uchun tom ma'nodagi markazga aylanmoqda. Biroq mutaxassislar, shaharliklarning kelajakda havo ifloslanishi, ob-havo, iqlim va suv bilan bog'liq ko'plab ekologik muammolarga duch kelishini ta'kidlamodalar.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Shaharlar mavzusini tadqiq etish juda qadimdan boshlangan. Ularning jamiyat, davlat uchun ahamiyati shundaki, "shaharlar tarixi doimo xalqning taqdiri bilan bog'liq bo'lgan"[1]. Shahar mavzusini nazariy jihatdan o'rgangan tadqiqotchilarning ishlari ahamiyatli bo'ldi. R.Park, E.Dyurkgeym, L.Virtlar shaharlarning ijtimoiy-iqtisodiy hayotini aks ettirgan sotsiologik yo'nalishdagi tadqiqotlarini olib bordilar [2,3]. A.Toskuelli, R.Redfild, D.Makkol, J.Mitchell, R.Firs va boshqa tadqiqotchilar o'z tadqiqotlari orqali shahar antropologiyasi bilan bog'liq muammolarning yangi yo'nalishlarini keng jamoatchilik e'tiboriga taqdim etgan [4,5,6]. N.Margaret, O.Luis, M.Shirinas, R.Sennet kabi olimlar zamonaviy shahar mavzusiga ijtimoiy tenglik muammolarini olib kirdi [7,8]. Xususan, shahar jamiyatida qashshoqlikda yashayotgan qatlam uchun muayyan bir madaniyatga mansublikning mavjudligi masalasi tadqiq etgan. J.Bater, E.Chempen, A.Xurina, J.Kusluch, A.Idzior, S.Kotkin, J.Miller, T.Mixailovalarning sotsialistik shaharlar tadqiqotiga bag'ishlangan asarlarida shaharsozlikning mafkura bilan

uyg'unligi, shahar madaniyatining o'ziga xos jihatlari, shahar qiyofasidagi transformatsiyalarning kinematografiyada aks etishi, shahar gazetalarining jamiyat hayotidagi o'rni, aholining kundalik hayoti, post-sovet shaharlaridagi tushkunlik, sotsialistik shaharlarga xos konstruktivistik o'zlikni anglashning barham topishi kabi ko'plab qiziqarli masalalar o'rganildi [9,10,11,12].

Bu borada A.Neverov, M.Kemp, P.Stronskiy, J.Saxadeo, M.Beyli, R.Menleynlarning asarlarini O'zbekiston shaharlari antropologiyasi doir tadqiqotlar deyish mumkin [13,14,15,16,17]. Mazkur adabiyotlarda shahar aholisining ruhiyati, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayoti, turmush tarzi hamda xo'jaligiga doir ma'lumotlar o'rin olgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy shahar muammosi keng qamrovli tushuncha bo'lib, unga doir nazariy qarashlarni o'z navbatida sohalariga bog'liq holda guruhlashtirish mumkin. Bu borada shaharsozlik, sotsiologiya, iqtisodiyot, etnologiya sohalariga oid nazariyalarni alohida ko'rsatib o'tish o'rinlidir. Ular zamonaviy shahar qiyofasining shaharsozlik talqinidagi muammolari; zamonaviy shaharning ijtimoiy hayotiga doir tadqiqotlar; shahar muammosini iqtisodiy omillar bilan bog'lovchi qarashlar; tabiiy omillarning shahar ekologiyasiga ta'siri xususidagi g'oyalari; zamonaviy shahar va uning aholisini etnologik tadqiqotlar ob'ekti sifatida baholash qarashlar kabi muammolar doirasida o'z yondashuvlarini ilgari surdilar.

Tahlil va natijalar. Yuqorida ta'kidlanganidek, shahar antropologiyasi – bu antropologiyaning kichik tarmog'i bo'lib, uning predmeti shahar makonidagi zamonaviy murakkab jamiyatlarni o'rganishdan iboratdir. Tarixda birinchi marta dunyo aholisining yarmidan ko'pi hozir shaharlarda yashamoqda. Jadal urbanizatsiya jarayonlari natijasida yuzaga kelgan ushbu demografik o'zgarishlar, antropologiyaning shaharlarda tadqiqot olib borishga zarurat tug'dirmoqda. Shunday qilib, shaharlarda sodir bo'ladigan

antropologiyaning tadqiqot ob'ekti bo'lgan hodisalar tobora keng tarqalgan. Endilikda shaharni o'rganish ob'ekti sifatida tan olib, uni makon sifatida emas, balki jarayonlar to'plami sifatida tushunish e'tiborga olindi. Shahar antropologlari shahar ijtimoiy hayotining o'zgaruvchan tabiati, shahar makonining ta'sirini, kengroq ma'noda tushunishga intilmoqdalar.

Shahar antropologiyasi alohida soha sifatida esa 1960-1970-yillarda paydo bo'ldi. Mazkur yo'nalish namoyondalari bo'lgan antropologlar, G'arbga xos bo'lmagan, "an'anaviy" jamiyatlarni o'rganuvchi olimlar hisoblangan. G'arb shahar jamiyatlarini o'rganish sotsiologiya sohasi hisoblangan. Ammo, sotsiologiya va antropologiya sohalari o'rtasidagi tarixiy tafovut ko'zga tashlanib, XX asrning ikkinchi yarmidan boshlab antropologlar o'z e'tiborini shahar ijtimoiy-madaniy hayoti va u bilan bog'liq muammolarga qarata boshladilar. Ayni shu paytdan boshlab ularning maqsadlari o'rtasidagi keskin farqlari zaiflasha boshladi. Qolaversa, shahar antropologiyasining paydo bo'lishi qisman Ikkinchi jahon urushi va dekolonizatsiya jarayonlarining ta'siri natijasida yanada rivojlana boshlagan edi.

Agar 1960-1970 yillarda shahar antropologiyasi an'anaviy dala ishlaridan kelib chiqadigan holda migratsiya, qarindoshlik, ijtimoiy tarmoqlar, qashshoqlik, etnik kelib chiqish va shaharga moslashish kabi o'ziga xos muammolarni o'rganishga qaratilgan bo'lsa, 1980-yillarga kelib antropologlar o'z qiziqishlarini shahar hayotining deyarli barcha jabhalarini qamrab olgan holda kengaytirdilar. Shaharlardagi shaxslar va muassasalar (masalan, kasalxonalar, maktablar, qamoqxonalari) o'rtasidagi umumiy aloqalarga e'tibor kuchaydi. Natijada, shahar antropologiyasi boshqa ijtimoiy fanlar sohalari bilan ko'proq integratsiyalasha boshladi.

Shahar hayoti, institutlari va ijtimoiy munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlari haqidagi ilk antropologiyaga oid nazariyalar XIX asrning sanoatlashgan jamiyatida rivojlangan klassik sotsiologik tuzilmani o'zida aks ettirgan. Ushbu tahlillarning aksariyati shahar va qishloq aholisi o'rtasida ijtimoiy jihatdan muhim farq bor degan taxminga asoslangan. Aksariyat antropologlarga XIX asr sotsiologlari sezilarli ta'sir ko'rsatgan. Ular shaharga birlashtiruvchi hodisa emas, balki bo'linish, ya'ni shaxslar uchun ko'proq erkinlik va imkoniyatlar joyi, hayotning barcha jabhalarida yakkalanish makoni sifatida qaragan. Antropologlarga dastlab Chikagodagi shahar ekologiyasi maktabi kuchli ta'sir ko'rsatdi. Mazkur maktab o'zida klassik sotsiologik ishlar bilan bir qatorda R.Park boshchiligidagi qator shahar sotsiologlarining tadqiqotlarini ham birlashtirdi. Ushbu olimlar guruhi asosan, shaharlarni "tabiiy hududlar"ga bo'lingan ekotizimlar sifatida kontseptuallashirishga tayangan. Ular orasida "oddiy" mahallalar, immigranlar va afro-amerikaliklar uchun xaroba va gettolar mavjud edi. Chikago maktabi yondashuviga ko'ra, bu mahallalar turar-joy vorisligi qonunlariga bo'ysungan. Shunday qilib, ularning asosiy maqsadi, shaharlarning "ijtimoiy muammolari" ni kengroq o'rganishning bir qismi sifatida o'zgaruvchan turmush tarzini tadqiq qilishdan iborat edi. "Shahar hayoti" nazariyasining paydo bo'lishida sotsiolog Luis Virtning tadqiqotlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Virt o'zining "Urbanizm hayot tarzi" esesida shaharni o'ziga xos "ijtimoiy institut" sifatida ta'riflagan.

Shaharning ijtimoiy xilma-xilligi hamda aholi zichligi differentsiatsiya va kasbiy ixtisoslashuvni rag'batlantiradi. Shuning uchun u yerdagi ijtimoiy munosabatlar shaxssiz, vaqtinchalik va yuzaki bo'ladi. Bunday zaif ijtimoiy integratsiya oxir-oqibat anomiyaga olib keladi. Virtning mulohazalari shuningdek, shahar turmush tarzi relyativistik nuqtai nazarini va mavjud farqlarga nisbatan bag'rikenglik tuyg'usini keltirib chiqaradi. Bunda hayotning

sekulyarizatsiyasiga (diniy an'analar asosida boshqariladigan jamiyatdan ratsional me'yorlarga asoslangan ijtimoiy tuzilmaning dunyoviy modeliga o'tish) olib keladigan ratsionallikning dastlabki shartlari sifatida qaralishi mumkin, deb ta'kidladi. "Urbanizm turmush tarzi sifatida" shahar aholisi bilan cheklanib qolmay, balki o'z ta'sirini shahar tashqarisida ham keng yoymoqda. Keyinchalik uning ishi Shimoliy Amerika shaharlari va o'z davrining kapitalistik iqtisodiyotiga xos bo'lgan madaniy-tarixiy jihatdan o'ziga xos urbanizmga qaratilganligi uchun tanqid qilindi.

Shahar dehqonlari orasida tadqiqot olib borgan amerikalik antropolog Redfildning tadqiqotlari jamiyatni shahar nuqtai nazaridan o'rganishga qiziqishni kuchaytirdi. Ayniqsa, amerikalik antropologlar dehqon jamiyatlarini, qishloqdan shaharlarga migratsiya masalalari bilan shug'ullana boshladilar. Shunday qilib, 1930-yillardan 1950-yillargacha antropologiya Meksika va Lotin Amerikasining boshqa shaharlaridagi xarobalardagi qishloq muhojirlari va ularning hayotiga "urbanizm"ning ta'siriga e'tibor qaratildi.

Robin Foks bu tadqiqotlarni to'g'ri tanqid qilib, o'rnatilgan antropologik an'anaga rioya qilib, ular kichik birliklarga (ozchiliklar yoki shaharlardagi kichik jamoalar) e'tibor qaratganligini ta'kidladi. Bu antropologlarning o'zlari uchun "ekzotik" bo'lgan guruhlariga qiziqishlar aks etgan yondashuv edi. Shu nuqtai nazardan, Chikago maktabining hukmron funktsional uslubiy paradigmasi va sotsiologiyasi kuchli ta'sir ko'rsatgan holda, antropologlar muammoga yo'naltirilgan tadqiqotlar bilan shug'ullanib, shahar jamiyatidagi ozchiliklarga, shahar muhitiga moslashuv va qashshoqlik masalalariga e'tibor qaratdilar. 1950-yillardan 1970-yillargacha antropologik ishlar sotsiologlar tomonidan olib borilgan etnografik "jamoaviy tadqiqotlar"ga, xususan, Uilyam Uaytning "Ko'cha burchagi jamiyati: Italiyaning qarochi tumanlarining ijtimoiy tuzilishi" nomli klassik asariga tayangan. 1930-yillarning oxirlarida Uayt Bostonning shimoliy chekkasida, asosan, italyan amerikaliklar istiqomat qiladigan mashhur xarobalarda tadqiqot olib borar ekan, etnik jihatdan bir hil bo'lgan mahallalar va "gettolar" o'rtasida kuchli mahalliy aloqalarning mavjudligini qayd qildi. Ushbu yondashuv avvalgi, shahar munosabatlarini ishbilarmon deb hisoblagan hamda qayd qilingan "alohida" kichik hududlarning katta shaharga qo'shilishiga e'tibor bermagan tadqiqotlarga qarama-qarshi edi.

1947-yilda London Iqtisodiyot maktabining Ijtimoiy antropologiya bo'limi xodimlarini qarindoshlik munosabatlarini o'rganishga undagan Raymond Firtning samarali faoliyatiga qaramay, ingliz ijtimoiy antropologlari orasida shahar antropologiyasining rivojlanishi ancha sekinroq va jiddiy qiyinchiliklarga duch keldi. Janubiy London tumanlari, bu zamonaviy shahar jamiyatini jadal o'rganishga muhim hissa qo'shdi. Biroq 1930-yillarning oxirlarida Afrikaning ko'pgina mamlakatlarida urbanizatsiya jarayoni ingliz antropologlarining e'tiborini tortdi. Afrika shaharlarida olib borilgan tadqiqotlar haqiqatan ham shahar tadqiqotlari hisoblanmasa ham, o'sha paytda Shimoliy Rodeziya nomlangan Britaniya hududida joylashgan Rodos Livingston instituti Afrika shaharlarini o'rganishga katta hissa qo'shgan. 1941-yilda Janubiy Afrikada tug'ilgan antropolog Maks Glyukmanning institut direktori etib tayinlanishi shaharlardagi tadqiqotlarning taraqqiy etishiga turki bo'ldi. Ikkinchi jahon urushidan keyingi tarixiy voqealar va dekolonizatsiya jarayoni antropologlarning e'tiborini G'arb jamiyatiga qaratishga majbur qildi. Bu jarayonning o'ziga xos xususiyati shundaki, shaharlardagi dastlabki tadqiqotlar an'anaviy antropologik mavzularga yo'naltirilgan bo'lib, shahar jamiyatidagi qarindoshlik, gettolar, xarobalar, folklor, marosim va hokazolarni o'rganishga olib keldi. 1960-yillar davomida bunday qoidaga amal qilish shaharlarga ko'chib kelgan yangi aholiga qaratilgan edi. Ularda qashshoqlik, shahar jamiyatiga

moslashuvdagi atrof-muhit omillari kabi muammolar, u yerda yashovchi hukmron ijtimoiy guruhlarning roli, ozchiliklarning hayotini o'rganish shaharga izlanishlar olib boriladigan laboratoriya sifatida qaragan olimlarning an'anaviy etnografik tadqiqotlari edi. Umuman olganda, asosiy e'tibor qishloqdan shaharga migratsiya qiluvchi jamoalarga qaratildi.

1960-yillarda butun dunyo bo'ylab shaharlarga demografik harakatning kuchayishi shaharlarning antropologik talqindagi tadqiqotlarining kengayishiga olib keldi. "Muammolarga yo'naltirilgan" masalalarga doimiy e'tibor qaratilib, ularda tadqiqotlar qashshoqlik, ozchiliklar, shu jumladan etnik kam sonlilarning shaharlarga moslashishga qaratildi. Shaharlardagi antropologik tadqiqotlar bilan shug'ullangan Amerika Antropologiya Assotsiatsiyasi 1972-yilda "Urban Anthropology" jurnalini nashr etish tashabbusi bilan chiqdi. Biroq, bu urinish "shahar antropologiyasi"ning kichik fan sifatida yaratilishiga yetarli bo'lmadi. Yana bir urinish 1979-yilda Shahar antropologiyasi jamiyati (SUA) tashkil etilishi bilan amalga oshirildi. Biroq davom etgan cheksiz munozaralar, shahar antropologiyasi "haqiqiy" antropologiya emasligini da'vo qilgan "an'anaviy" antropologlarning noroziligiga sabab bo'ldi. 1970-yillarning oxirida IUAES tarkibida Shahar antropologiyasi komissiyasini tuzish tasdiqlandi. Oxir-oqibat, 15 mamlakatdan kelgan ishtirokchilar bilan Vena shahrida shahar antropologiyasi bo'yicha seminar tashkil etildi. 2011-yil noyabr oyida Juliana B. Prato ilmiy jamoatchilik va keng jamoatchilikni shahar antropologiyasi sohasidagi so'nggi tadqiqotlar, munozaralar va yangiliklar bilan ta'minlashga qaratilgan "Urbanistics" onlayn jurnali faoliyatini yo'lga qo'ydi. Ushbu jurnal yiliga ikki marta chiqib, uning asosiy maqsadi dunyo bo'ylab ijtimoiy, madaniy, siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlarni aniqlashdan iborat edi. 1980-yillarda shahar etnografiyasi bo'yicha ko'plab ilmiy maqolalar nashr etildi. Endilikda shahar antropologiyasi ham boshqa amaliy, ekologik, tibbiy, ta'lim, estetik, "jins" antropologiyasi kabi yo'nalishlar bilan raqobatlasha boshladi. Shu bilan birga, muayyan mavzularga qiziqishning kuchayishi keksa odamlar, etnik ozchiliklar va yangi muhojirlar, jins (ayniqsa, feministik yo'naltirilgan) va ta'lim bo'yicha, shuningdek, etnik va diniy o'ziga xoslik, millatlararo munosabatlarga doir ko'plab tadqiqotlar olib borildi.

1990-yillarda shahar antropologlarining manfaatlari "fazoviy burilish" deb atalgan omillarning ta'sirini aks ettirdi. Bu fazoviy burilish Mishel Fuko, Anri Lefevr va Mishel de Serto kabi fransuz mutafakkirlarning ilmiy xulosalaridan kuchli ta'sirlandi. Shahar antropologiyasida Fukoning hokimiyatni atrofimizdagi dunyoni shakllantiradigan haqiqat usullari sifatida konsepsiyasi va bizning uni tushunishimiz, shubhasiz, eng ta'sirli bo'lgan. Lefevr makonning ijtimoiy mahsulot ekanligi va u ko'pincha kuchlilar manfaatlarini takrorlash uchun harakat qiladi, deb ta'kidlaydi. Uning ishlarida makonning ijtimoiy ishlab chiqarilishiga va bu ishlab chiqarilgan makon, o'z navbatida, odamlarning fikrlashi hamda harakat qilishiga qanday ta'sir qilishiga e'tibor qaratadi. Shunday qilib, shahar makonining qanday shakllanganligini bilish uchun kurash o'z hayotini qayta yaratish huquqi uchun kurashdan iborat bo'ldi. Fuko va Lefevr shaharsozlik va mutaxassislarning muhimligini ta'kidlagan

bo'lsalar, de Serto odamlarning shahar landshaftlari bilan o'zaro munosabatda bo'lish usullariga ko'proq e'tibor qaratdi. Uning ta'kidlashicha, qudratlilar makonda hukmronlik qilish va ularni o'z ehtiyojlariga ko'ra belgilash uchun fazoviy strategiyalardan foydalanishi mumkin. Kuchsizlar esa faqat vaqtinchalik amalga oshiriladigan ko'proq efemer muhit qoidalariga tayanadi.

1990-yillardan boshlab shahar antropologik tadqiqotlar mintaqaviy xilma-xillik (madaniy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy) shahar hayotiga qanday ta'sir qilishini turlicha talqin qildi. Antropologlar quyidagilarga e'tibor qaratdilar:

a) urbanizatsiya nazariyalari va shahar o'sishi modellari qayta ko'rib chiqish;

b) an'anaviy ko'p millatli davlatlarda shaharning o'zaro ijtimoiy ta'siri va G'arb shaharlarida "ko'p madaniyatli" jarayonlarni o'rganish;

c) turli mintaqalar va turli siyosiy tuzumlar ostidagi odamlarning global siyosat talablariga javob berishi va moslashish usullarini (masalan, rivojlanayotgan mamlakatlar, postsotsialistik mamlakatlar, postindustrial sharoit) aniqlash;

d) shaharlarning o'rganilishi, umuman antropologiyaning keng jamiyatda holati va dolzarbligini ko'rsatib berish va hokazo.

XX asrning 90-yillaridan boshlab ko'plab antropologlar o'z tadqiqot sohasini "shahar antropologiyasi" emas, balki shahar sharoitida antropologik tadqiqotlar sifatida belgilashni tanladilar. Endilikda ushbu uslubiy va nazariy yondashuv Chikago maktabining "shahar ekologiyasi" modeli va postkolonial jamiyatlardagi urbanizatsiya jarayonlaridan ilhomlangan ijtimoiy sohalardan siyosiy iqtisod, shaharsozlik kabi yo'nalishlarga o'tganligini ko'rsatadi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, shahar antropologiyasining ahamiyatini shaharlar va odamlar o'rtasidagi murakkab munosabatlarni chuqur tahlil qiluvchi asosiy tadqiqot sohasi sifatida ta'kidlash mumkin. Shaharlar nafaqat makon, balki hayotimizni, madaniyatimizni va o'zaro munosabatlarimizni shakllantiradigan va o'zgartiradigan tirik organizmlardir. Ko'p qirrali tadqiqot usullariga asoslangan shahar antropologiyasi ushbu murakkab dinamikani yaxshiroq tushunishga imkon beradi.

Ushbu tadqiqot yo'nalishi nafaqat zamonaviy sharoitda shahar aholisi duch keladigan muammolarni aniqlashga yordam beradi, balki shaharlarda hayot sifatini yaxshilashga qaratilgan siyosatni ishlab chiqish uchun qimmatli fikrlarni ham taqdim qiladi. Shahar antropologiyasining rivojlanishi zamonaviy shaharlar va ularning hayotimizdagi rolini tushunishimiz uchun strategik ahamiyatga ega. Bu sohada izlanishlar bizga tez o'zgaruvchan dunyoga moslashish, zamonaviy sharoitda har bir o'ziga xos madaniy va ijtimoiy jihatlarni saqlab qolishda yordam beradi.

Shunday qilib, zamonaviy shaharlar va ularning insoniyat jamiyatiga ta'sirini tushunishda shahar antropologiyasi asosiy rol o'ynaydi. U nafaqat qimmatli ilmiy bilimlarni beradi, balki barqaror, madaniy jihatdan boy va ijtimoiy teng huquqli shahar makonlarini yaratishga qaratilgan shahar siyosati va strategiyalarini ishlab chiqish uchun ham asos bo'lib xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Геродот. История. – Москва: Эксмо, 2011. – С.13.
2. Парк Р.Э. Избранные очерки. – Москва: ИНОАН РАН, 2011. – С.20.
3. Wirth L. Urbanism as a way of life // The American journal of sociology. – Chicago, 1938, Number 1. – P. 41.
4. Tocqueville A. Democracy in America. – Pennsylvania: 1947. – P.77-79.
5. Redfield R. and Singer M. The cultural role of cities// Economic Development and Cultural Change. Number 3(1). – New-York, 1954. – P. 48.
6. Firth R. Two Studies of Kinship in London. – London: Athlone, 1956. – P. 71.
7. Margaret N. The significance of kinship in rural-urban migration. – Vancouver, 1965. – P. 5.

8. Oscar L. The Culture of Poverty // Scientific American, Vol. 215, No. 4. – New-York, 1966. – P.19-25.
9. Bater J. The soviet city: ideal and reality. – London, 1980. – P.10-32.
10. Chempen E. Queuetopia: Second-World modernity and the Soviet culture of allocation. – Pennsylvania, 2013. – P.67-74.
11. Hurina A. Representations of urban spaces and their transformations in Soviet cinema of the 1920s and 1960s. – Durham, 2015. – P.52-105.
12. Kusluch J. Building Socialism: The Idea of Progress and the Construction of Industrial Cities in the Soviet Union, 1927-1938. – Youngs town, 2012. – P.25.
13. Neverov A. Tashkent. – London, 1930; Kamp M. The new Woman in Uzbekistan. – London, 2006. – P.29.
14. Sahadeo J. Russian colonial Society in Tashkent, 1865–1923. – Bloomington, 2007.
15. Stronski P. Tashkent forging a soviet city, 1930-1966. – Pennsylvania: University of Pittsburgh Press, 2010.
16. Бейли Ф.М. Миссия в Ташкенте. Перевод А.Михайлова. – Москва, 2013.
17. Sahadeo J. Voices from the soviet edge. Southern migrants in Leningrad and Moscow. – London: Cornell university press, 2019.



Jurabek BEGALIEV,
Samarkand branch of Tashkent Kimyo International University
E-mail: begaliyev_81@mail.ru

According to the review of I. Rizaev, doctor of Philosophy, associate Professor of the Samarkand branch of the Tashkent University of Information Technologies

LIFESTYLE OF ANCIENT PEOPLES: ACCORDING TO HISTORICAL DATA OF BERUNI

Annotation

This article explores the significance of the scientific heritage of Abu Rayhan Beruni in the context of the study of intercultural relations. The author draws attention to the valuable information contained in his works about the various peoples and cultures that past researchers encountered and wrote about. Particular attention is paid to identifying the contribution of ancient civilizations to the history of intercultural interactions. The role of cities, which in the Middle Ages served as centres of science, culture and education, is also considered. The significance of Beruni's scientific heritage is emphasized by the presence of numerous manuscripts containing a variety of information.

Keywords: Historical heritage, Beruni, cultural exchanges, intercultural interactions, research of archaeological finds, scientific heritage of Samarkand.

ОБРАЗ ЖИЗНИ ДРЕВНИХ НАРОДОВ: ПО ИСТОРИЧЕСКИМ ДАННЫМ БЕРУНИ

Аннотация

В данной статье исследуется значимость научного наследия Абу Райхана Беруни в контексте изучения межкультурных отношений. Автор обращает внимание на ценные сведения, содержащиеся в его работах, о различных народах и культурах, с которыми исследователи прошлого сталкивались и о которых они писали. Особое внимание уделяется выявлению вклада древних цивилизаций в историю межкультурных взаимодействий. Также рассматривается роль городов, которые в средние века служили центрами науки, культуры и образования. Значимость научного наследия Беруни подчеркивается наличием многочисленных рукописей, содержащих разнообразную информацию.

Ключевые слова: Историческое наследие, Беруни, культурные обмены, межкультурные взаимодействия, исследования археологических находок, научное наследие Самарканда.

QADIMGI XALQLARNING TURMUSH TARZI: BERUNIY TARIXIY MA'LUMOTLARI ASOSIDA

Аннотация

Maqolada Abu Rayhan Beruniy ilmiy merosining ahamiyati madaniyatlararo munosabatlarni o'rganish kontekstida o'rganilgan bo'lib, muallif o'z asarlarida o'tmish tadqiqotchilar duch kelgan va yozgan turli xalqlar va madaniyatlar haqidagi qimmatli ma'lumotlarga e'tibor qaratgan. Shuningdek, qadimgi sivilizatsiyalarning madaniyatlararo o'zaro aloqalar tarixiga qo'shgan hissasini aniqlashga alohida e'tibor qaratilib, o'rta asrlarda fan, madaniyat va ta'lim markazlari bo'lib xizmat qilgan shaharlarning roli ham ko'rib chiqilgan. Beruniy ilmiy merosining ahamiyati xilma-xil ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ko'plab qo'lyozmalarning mavjudligi bilan ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: Tarixiy meros, Beruniy, madaniy almashinuvlar, madaniyatlararo aloqalar, arxeologik topilmalarni tadqiq etish, Samarqand ilmiy merosi.

Introduction. Scientific progress in the science and culture of the peoples of the East in the IX-XI centuries was, undoubtedly, largely due to the fruitful work of Central Asian scientists. Professor B. Abduhalimov explained in his monograph that during this period, new discoveries in mathematics, astronomy, medicine, chemistry, geography, linguistics, hadith studies, philosophy, literature and other fields could not be imagined without Central Asian scientists [1]. Of course, the role of Abu Rayhan Beruni (973-1048) in the development of these intercultural ties is incomparable.

Studying the works of Abu Rayhan Beruni, we come across interesting information about many peoples and nationalities, whose names have been preserved in history. In his works, he mentions the ancient Sogdians and Khwarazmians, who played an important role in the history of our country, among the peoples who made a great contribution to the history of world civilization. News about Samarkand, which in the Middle Ages was the cradle of science and culture, is especially important.

Literature review. Historically, the Sogdians were a people who lived until the 10th-11th centuries AD. Before

this, they fought against the tyranny of the Achaemenids from the 6th to the 4th centuries BC. They were influenced by the Greco-Macedonians in the 4th century. They fought for their political independence back in the times of the Greco-Bactrian state and the Kushan dynasty. Subsequently, the Sogds retained their independence in political life during the Turkic Khaganate.

In the V-VIII centuries, the country of Sogd was a state united around Kesh, which was one of several local territories, and later the central city of Samarkand. It is known from history that the Sogdians fought for the freedom of the country with the Turkic peoples during the Arab invasion.

Here we consider it necessary to dwell on the place of the Sogdians in the ancient spiritual life of our country. They followed Zoroastrianism, Buddhism, Monism, Christianity and other religious beliefs and served as a crossroads in the spread of these religions to other regions. For example, a certain part of the inhabitants of Samarkand believed in the Nestorian movement of Christianity. At the beginning of the VII century, the Nestorian metropolis was founded in

Samarkand. Christian literature was also created during this period.

There are many written monuments about the Sogdians, and the scope of their content varies. In particular, among the Sogdians the most basic tenets of Buddhism, treatises on ethics, literature devoted to the lives of Buddhist saints, and numerous examples of Buddha's sutras were found and studied. It has come down to us in the form of books and scrolls. They reflect the beliefs, trust, hopes and dreams of our ancestors before Islam, philosophical and moral observations such as glorifying good and condemning evil. Some of these written monuments survive in London. Among them, one of these written monuments is especially noteworthy as a moral and philosophical treatise - the text "Sutra on the causes and consequences of our actions" [2]. It describes the moral foundations of the Buddha's teachings.

Methodology & empirical analysis. As a result of extensive archaeological and scientific research carried out in the Central Asian region in the last quarter of the 19th and early 20th centuries, many Sogdian inscriptions were discovered. It was difficult even to determine the language of the found monuments. In 1904, the fact that the terms of the Sogdian calendar in Abu Rayhan Beruni's *Osor al-Bakiya* coincided with the terms in these unknown language texts became the basis for the opinion that their language was Sogdian. Scientific research into the thousand-year-old forgotten written heritage of the Sogdians has begun [2]. In this regard, Beruni's information about the Sogdians is important.

From the middle of the 8th century, the introduction of paper production in Samarkand led to the rise of science and culture. It is known that in the early days of the caliphate, Egyptian papyrus and leather were used as writing materials. "The production of paper in Samarkand as a result destroyed the dependence of the countries located on the territory of the Caliphate on Egypt" [3]. Beruni's subsequent comments on this matter in India also confirm our opinion. "Various papers are a Chinese invention. The captured Chinese began the art of paper making in Samarkand. Subsequently, paper began to be produced in different countries and the need for it was covered" [4]. Here Beruni is referring to the fact that the Muslims defeated the Chinese at the Battle of Talos in 751, and that some captured Chinese knew about paper production and that they established paper production in Samarkand. The second part of Beruni's work "Mineralogy" mentions methods of obtaining paper in Samarkand.

Gold is called *harisun* (*chrysos*) in Roman, *dahaba* in Syriac, *suwari* in Hindi, *altun* in Turkish, *zar* in Farsi and *zahab* in Arabic. "It is said that the reason it is called *zahab* is because it leaves quickly and returns slowly to its owners. They also say that a person who sees him in the mine will freeze and almost lose consciousness. And then it is called "rajul zahaba" ("fainting, loss of consciousness"). *Mishjan* is a heavy stone that is placed on running water using a tap. *Mishjan* is a heavy stone that is placed on running water. *Mishjan* is tied crosswise to a log. In Samarkand, *khinnob* (hemp) is crushed in this way to make paper" [5].

By the 10th century, Samarkand remained the main center of paper production, despite the fact that paper production had begun in Tarablus, Tabariya and Damascus in Syria. Therefore, in the East of the Caliphate, many books were written and large libraries were created. In a short period, cities such as Bukhara, Samarkand, Marv, Gurganch and Kat became major cultural centres.

The first major work of Abu Raihan Beruni is the work "Monuments Left by Ancient Peoples", its Arabic name "Al-osor al-Bakiya an al-qurun al-khaliyya", in Europe it is known as "Chronology", in Uzbek oriental studies as "Osor al-Bakiya" [6]. This work brought the scientist great fame. In

addition to providing information about historical events and various ethno-religious views, *Osar al-baqiya* also touches on the calendars and holidays of the ancient Sogdians.

The tenth chapter of this work is called "A Lay on the Holidays of the Sogdians" and is dedicated to the holidays of the Sogdians, which were celebrated all year round. In the early Middle Ages, the Samarkand, Bukhara and Kashkadarya regions of modern Uzbekistan, the northwestern regions of Tajikistan were called Sogdian. The Sogdians, like the Persians and Khwarazmians, were Zoroastrians. Their language was part of the Eastern Iranian language group, such as Khwarazmian, and was very different from Persian and Tajik, which were part of the Western Iranian language group.

Results. According to Beruni, the months of Sogd are also divided into quarters of the year, and the first of the Sogdian months *Navsard* (*Navruz*) is the beginning of summer. There was no difference between them and the Persians regarding the beginning of the year and some months. "The beginning of the Persian and Sogdian years was the same until Zoroastrianism arose. After Zoroastrianism, the Persians transferred the extra five days from leap months to the end of each month, but the Sogdians did not transfer them and left them in place [7]." In this regard, Beruni's work "The Canon of Masudi" also mentions the following: "Also, the Iranians moved these five days to the end of the year, and then moved them to the end of the leap month. When the month of *Obon* arrived, there was confusion in the affairs of the country, and due to the confusion, these days remained in the month of *Obon*. The Sogdian and *Maverannahr* polytheists did not change, but remained in their calculations" [8].

Speaking about the months and years of the Sogdians, Beruni cites that in this regard, the ancient inhabitants of Khwarazm and Sogd also followed the Persians, submitting to them during the reign of the Persians.

There are many holidays and famous days, as well as months, in Sogd, and Beruni mentions the holidays that reached him: "*Navsard* - the first day of this month - is the date of *Navruz*, the big *Navruz*. The twenty-eighth day of *Navsard* is the day of the holiday of the Bukharan pagans (*Romush Agom*). On this day they gather around the fire in the village of *Romush* (now *Romitan*). "*Romush Agom*" is one of the most expensive holidays for them; it is held in every village" [7].

"Another famous month is *Fagakon*, the first day of this month is called *Nim Sarda*. This means "six months". The second day is a holiday, and it is called "*Miniid Khvora*". On this day, the Sogds gather around fires and eat food made from millet flour, butter and sugar. The Sogdians also have a month called "*Masafug*", which is a holiday from the fifth to the fifteenth of this month. Then for seven days there was a Muslim bazaar in *Sharg* (*Sharg* is a large village not far from Bukhara. But it is not known where it is located. According to *Hamavi*, this is an Arabized form of the term "*Charg*")" [7]. This information is also presented in the work of the scientist "*Kitab al-Tafhim*", and we will dwell on this work.

Among Beruni's works, a special place is occupied by the work "*Tafhim*" [9] ("The meaning of elementary information from astronomy"). This work is available in two languages. There are 23 copies of his manuscripts written in Arabic and Persian preserved in the world's manuscript treasuries. The information provided indicates that the work was very widespread in the Middle Ages. As a result of studying the information provided by experts in catalogs of oriental manuscripts about Beruni's work "*Tafhim*", it was established that the Tashkent copy of this work is one of the oldest copies in the world [10]. The sixth chapter of this work, called *Chronology*, talks about the calendars and holy days of the Sogdians and Khwarazmians. This work somewhat

complements the above information about the Sogdian month "Masafug".

According to Beruni: "In their months there are national holidays called Agamas, but we do not have any information about this. Residents of Bukhara call the Sogdian months the first and second months, respectively, by their names. A market for the so-called first and second mahizage is being organized. From what we are told, both of these markets sell stolen items. In this case, everything gets mixed up and a lot is lost. Of these two markets, the first was in the third month, that is, on the thirteenth day of Nison, and the second in the fourth month, that is, on the thirteenth day of the month of Viska. The bazaar in Tavovis (an ancient city between Bukhara and Samarkand) is a large and crowded market of the city. It begins on the fifteenth day of the sixth month, that is, the fifteenth day of Mahikhanda, and lasts for seven days. The bazaar in Sharga begins in the tenth month, that is, in the middle of the month of Masofug" [11].

Conclusions. Along with the ancient Sogdians, Beruni provides information about the famous days of the ancient Khwarazmian pagans, noting that their language is close to Sogdian. "They follow the Sogdians in maintaining the calendar. The names of the months are no different, except for the difference in their dialect. They call Navruz Navsarji (New Day)" [11]. However, "Osor Al-Bakiya" says that the beginning of the year and month of the Khwarazmians corresponds to the Sogdian and differs from the Persian. That is, "The images of the Khwarazmians are similar to the Sogdians; for them the beginning of summer is the beginning of Navsarji" [7].

Thus, the calendars in Sogd consisted of 12 months, were used over wide areas and contributed to the expansion of mutual cultural contacts. From the information provided by Abu Rayhan Beruni, it is clear that it is important to study the contribution of the Khwarazm and Sogdian peoples, which are an integral part of Central Asia, to world culture.

REFERENCES

1. Abdulhalimov B. Bayt al-hikma va O'rta Osiyo olimlarining Bag'doddagi ilmiy faoliyati. – T.: Toshkent islom universiteti, 2004. 236 bet.
2. Qayumov A., Is'hoqov M. va boshqalar. Qadimgi yozma yodgorliklar. Toshkent: Yozuvchi, 2000, 208 bet.
3. Мец А. Мусульманский Ренессанс, перевод с немецкого, предисловие, библиография и указатель Бертеля Д.Е., Изд. 2-е. – М.: 1973. - С. 475.
4. Abu Rayhon Beruniy. Hindiston. II jild. So'z boshi, izohlar va ko'rsatkichlar mualliflari: A.Ahmedov, M.Xandamova. Toshkent: O'zbekiston", 2022, 624 bet.
5. Abu Rayhon Beruniy. Kitob al-jamohir fi-ma'rifat al-javohir (Mineralogiya). Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi", 2017, 488 bet.
6. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. Tanlangan asarlar I tom / Tarjimon A.Rasulov. Izohlarni I.Abdullaev va A.Rasulov tuzgan. Mas'ul muharrirlar: I.Abdullaev va O.Fayzullaev. Toshkent: Fan, 1968. 465 bet.
7. Abu Rayhon Beruniy. Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar. I jild. Toshkent: O'zbekiston, 2022, 648 bet.
8. Abu Rayhon Beruniy. Qonuni Mas'udiy. IV jild. Toshkent: O'zbekiston, 2022, 544 bet.
9. Беруни Абу Райхан. Избранные произведения. Т. VI. Книга вразумления начаткам науки о звездах. - Т.: Фан, 1975. - С. 328.
10. Munirov Q. Tafhimning Toshkent qo'lyozma nusxasi haqida. // Beruniy tug'ilgan kunining 1000 yilligiga bag'ishlangan to'plam. – T.: Fan, 1973. –B.124.
11. Abu Rayhon Beruniy. Yulduzshunoslik san'ati asoslarini tushuntirish kitobi. Tafhim. VI jild. Toshkent: O'zbekiston, 2022, 312 bet.



Ixtiyor **BOXODIROV**,
Toshkent moliya instituti katta o‘qituvchisi, t.f.f.d

O‘zMU professori, t.f.d A.Yermetov taqrizi asosida

THE SIGNIFICANCE OF THE 2nd TURKISH ARMY CORPS IN MILITARY OPERATIONS ON THE CAUCASIAN FRONT OF THE FIRST WORLD WAR

Annotation

The article focuses on the beginning of the world war between imperialist countries and the involvement of Russia and the Ottoman Empire in its wake. The article describes the participation of the 2nd Turkestan Army Corps in the military operations between the two countries on the Caucasus Front and its contribution to the successes of the Russian Empire.

Key words: War, front, corps, battalion, Cossack, operation, artillery, headquarters, defense, offensive.

РОЛЬ 2-ГО ТУРЕЦКОГО АРМЕЙСКОГО КОРПУСА В ВОЕННЫХ ОПЕРАЦИЯХ НА КAVKAZСКОМ ФРОНТЕ ПЕРВОЙ МИРОВОЙ ВОЙНЫ

Аннотация

В статье основное внимание уделяется началу мировой войны между империалистическими странами и участию в ней России и Османской империи. В статье описывается участие 2-го Туркестанского армейского корпуса в военных действиях между двумя странами на Кавказском фронте и его вклад в успехи Российской империи.

Ключевые слова: Война, фронт, корпус, батальон, казак, операция, артиллерия, штаб, оборона, наступление.

BIRINCHI JAHON URUSHI KAVKAZ FRONTIDAGI HARBIIY HARAKATLARDI 2-TURKISTON ARMIYA KORPUSINING AHAMIYATI

Annotatsiya

Maqola markazida imperialistik mamlakatlar o‘rtasida jahon urushining boshlanishi va uning domiga Rossiya va Usmoniylar imperiyasi tortilganligi turadi. Maqolada ikki mamlakat o‘rtasida Kavkaz frontida bo‘lib o‘tgan harbiy harakatlarda 2-Turkiston armiya korpusining ishtiroki va uning Rossiya imperiyasining muvaffaqiyatlariga qo‘shgan hissasi yoritilgan.

Kalit so‘zlar: Urush, front, korpus, batalion, kazak, operatsiya, artilleriya, shtab, mudofaa, hujum.

Kirish. 1914-yil 28-iyun kuni Sarayev shahrida Avstro-Vengriya taxt vorisi Frans Ferdinand serblarning “Mlada Bosna” tashkiloti azosi Gavriilo Prinsip tomonidan o‘ldirilishi dunyoning yetakchi ikkita harbiy-siyosiy ittifoqlari: “Uchlar ittifoqi” – Germaniya, Avstro-Vengriya, Italiya va “Antanta” – Buyuk Britaniya, Fransiya, Rossiya o‘rtasida Birinchi jahon urushining kelib chiqishiga bahona bo‘ladi. 1-avgustda Rossiyadagi Germaniya elchisi fon Purtales Rossiya tashqi ishlar vaziri S.D.Sazanovga urush e‘lon qilganlik haqida notani topshirishi bilan jahon urushi boshlanib ketgan. Tezlik bilan qolgan mamlakatlar ham urush domiga tortilla boshlagan. Ular orasida Turkiya ham bor edi

Jahon urushida Usmoniylar Turkiyasi Germaniya tomonida turishga qaror qilgan. Zero, Turkiya qo‘lga kiritmoqchi bo‘lgan hududlar yo Rossiya imperiyasi yoki Buyuk Britaniya va Fransiya tasarrufida edi. Urush arafasida Turkiya Germaniyadan katta miqdorda moddiy va xarbiy yordam oladi. 1914-yil 16-oktabrda Germaniya undovi bilan turk floti Qora dengizdagi Rossiya sohillarini o‘qqa tutadi. Buning oqibatida 1914-yil 20-oktabrda rus-turk urushi boshlanib Kavkazorti va Sharqiy Turkiyada “Kavkaz fronti” paydo bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mavzuga oid adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatdiki, Turkiston harbiy okrugining I jahon urushidagi ishtiroki tarixi bo‘yicha ko‘plab ilmiy izlanishlar olib borilgan. Tadqiq etilayotgan mavzuni o‘rganishga bag‘ishlangan adabiyotlarni shartli ravishda 4 ta 1914-yil oktabrda Kavkaz frontidagi 2-Turkiston armiya korpusi tarkibi:[8]

guruhga ajratish maqsadga muvofiqdir: 1) Rossiya imperiyasi davrida chop etilgan manba va adabiyotlar; 2) sovet davrida nashr etilgan risola va adabiyotlar; 3) mustaqillik yillarida amalga oshirilgan tadqiqotlar; 4) xorijiy adabiyotlar.

Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology). Mavzuni yoritishda g‘oyaviy-metodologik tamoyillar va ilmiy-metodologik tamoyillarga royiya etilgan. Tadqiqot ishini olib borishda muammoviy, miqdoriy va qiyosiy-tarixiy tahlil, tarixiy-xronologik, tizimlilik kabi tadqiqot usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Urush arafasida Kavkazdagi rus armiyasi 145 ta batalyon, 181 ta eskadron iborat edi[1]. Kavkaz armiyasiga yordam uchun general L.Lesh qomondonligida 14 batalyondan iborat 2-Turkiston korpusi Kavkazga olib kelinadi[2]. Kavkazda 1914-yil oktabrda Turkiston piyoda polklari 3 batalyonli polklarga aylantiriladi. General Kalitin qo‘mondonligidagi Sibir kazak brigadasi 2-Turkiston korpusiga o‘tkazilib, korpus tarkibi 21 ta batalyon, 12 ta kazaklar yuzligi, 5 ta sayyor rotalari va 46 ta to‘pga yetkazildi[3]. Batalyonlarning shaxsiy tarkibi 800 kishi atrofida bo‘lgan[4]. 2-Turkiston korpusidagi Taman, Kavkaz polklari va 4-Kuban artilleriya batareyasi esa Idgirdagi general D.Abatsiyevning “Yerevan otryadi” tarkibiga o‘tkazilgan[5]. Kavkazda rus armiyasiga qarshi Erzurum-Trapezund hududida joylashgan general Hasan Izzat poshsho qo‘mondonligidagi 135 000-150 000 kishilik[6] 3-turk armiyasi (86 ta batalyon, 35 ta eskadron, 130 ta kurd otliqlari yuzligi[7]) harakat qilgan.

| Korpus qo‘mondoni – general Leonid Vilgelmovich Lesh | | |
|--|--|--|
| Harbiy qism | Harbiy qism tarkibi | Qo‘mondonlik |
| 4-o‘qchi brigada: polk. N.N.Azarev | 13,14-o‘qchi polk: 6 ta batalyon 15,16-o‘qchi polk: 6 ta batalyon 4-o‘qchi art.dvizion: 24 ta to‘p | Belonogov / Bogdanov Lastochkin / Yuzefovich Avtonomov |

| | | |
|--|---|---|
| 5-o'qchi brigada: gen.Chapligin | 17,18-o'qchi polk: 6 ta batalyon 19-o'qchi polk: 3 ta batalyon 5-o'qchi art.dvizion: 16 ta to'p | Kruten / Dovgerd Pomerantsev Dmitriev |
| Sibir kazak brig.: gen.-leyt. Kalitin | 1,2-polk: 12 ta yuzlik 2-Orenburg kaz.batareya: 6 to'p | Raddats Burov |
| 2Turk.sapyor.batl. | 5 ta injiner rotalari | polkovnik Ter-Akopov |

6-noyabr kuni Kavkaz armiyasining Sariqamish otryadi Erzirumdan 50 km. sharqda joylashgan Keprikey va Padjivon hududlarini egallaydi. 8-11 noyabrda 3-turk armiyasi 11-korpusining qarshi hujumi natijasida Sariqamish otryadi Al-Kilisa va Ardos hududidagi Azakpey pozitsiyasiga chekinishga majbur bo'lgan. 13-16 noyabrda Sariqamish otryadi qaytadan tashkil etilib, uning tarkibi 1-Kubani "plastun (piyoda kazaklar)" brigadasi va 4,5-Turkiston o'qchi brigadalari bilan to'ldiriladi. Buning natijasida mustahkamlangan Sariqamish otryadi 16-24 noyabrda Azakpey pozitsiyasida turklarning hujumini qaytarishga erishadi. Janglarda turklar 14 000 kishini, Sariqamish otryadi 6000 harbiyni yo'qotgan[9].

2-Turkiston koprusi 1914-yil 9(22)-dekabr – 1915-yil 5(18) – yanvarda Kavkaz fronti tarixidagi eng katta janglardan bo'lgan "Sariqamish jangi"dagi ishtiroki evaziga Kavkaz armiyasining eng ishonchli korpusi mavqeyiga erishadi. Bu jang Kavkaz armiyasining Kars viloyati Sariqamish hududida turk qo'shinlari hujumiga qarshi mudofaa operatsiyasi bo'lgan. Turkiya harbiy vaziri Ismoil Anvar poshsho (1881-1922) Olti va Sariqamish otryadlarini mag'lub etib Kars, Batumi va Tiflisni egallab olishni maqsad qilgan edi. Hujum harakatlarida 90 000 – 95 000 turk qo'shinlari qatnashgan. Turk harbiy hujumi avvalida 2-Turkiston va 1-Kavkaz korpuslari asosida tuzilgan general Berxman qo'mondonligidagi Sariqamish otryadida askarlar miqdori 64 000 – 65 000 atrofida (50 000 dan ko'proq piyoda, 14 000 nafar otliqlar) bo'lgan[11]. Otryadda 53 ta batalyon, 36 ta otliqlar yuzligi, 9 ta sapyor rotasi, 136 ta dala va tog' zambaraklari va 12 ta gaubitsa mavjud edi[11].

9(22)-dekabrda 9,10,11-turk korpuslarining Sariqamishga umumiy hujumi boshlanadi. 10(23)-dekabr kuni Xafiz Haqqi poshsho qo'mondonligidagi 10-turk korpusi 31,32-diviziyalari Oltini egallaydi. 11-dekabrda 9-turk armiya korpusining 29-diviziyasi Sariqamish otryadining asosiy kuchlarini aylanib o'tib Sariqamish shahridan 25 km. shimoliy-g'arbdagi Bardus dovonini qo'lga kiritadi. 11-dekabrda Kavkaz armiyasi Bosh qo'mondoni yordamchisi general Mishlevskiy harbiy vaziyatni to'g'ri baholay olmaganligi uchun Sariqamish otryadining shimoliy guruhi qo'mondonligini Berxmandan olib Kavkaz armiyasi shtabi boshlig'i general Yudenichga topshiradi. Yudenich otryadi 4,5-Turkiston o'qchi brigadalari (18 ta batalyon), 20,39-piyodalar diviziyasi (23 ta batalyon), 8 ta kazaklari yuzligi, 7 ta sapyor rotalaridan iborat edi. Otryadda 104 ta to'p va 12 ta gaubitsa mavjud edi[12].

12(25)-dekabr kuni turk qo'shinlari Sariqamish shahridan 6-7 km. masofagacha yetib keladi. Shahar mudofaasida polkovnik Bukretov rahbarligida bir necha batalyonlar, 1,5 ta otliqlar yuzligi, temiryo'l batalyonining 1000 dan ortiq jangchisi, 16 ta pulemyot va 2 ta zambarak bor edi holos. 11-12 dekabrda 18-Turkiston o'qchi polki 1-batalyoni, har bir Turkiston polklaridan 1 tadan vzvod 18-polka kapitani Ignatovich qo'mondonligida Bukretovga yordam uchun yuboriladi[13]. 12-dekabrda Tiflis, Vladikavkaz brigadalari asosida polkovnik Kuchevskiy rahbarligida 23-Turkiston polki tuzilib, u ham yordamga jo'natildi[14].

13(26)-dekabrda 29-turk diviziyasi bilan shiddatli janglar davomida 18-Turkiston o'qchi polki batalyoni Sariqamish temiryo'l vokzalini o'z qo'llarida saqlab qolishga muvaffaq bo'ladi. Ammo hujum natijasida 18-Turkiston polki 1-batalyonidan deyarli to'la ajraydi[15]. Batalyon komandiri podpolkovnik Kobenin ham jangda halok bo'ldi. Buning evaziga polkovnik Bukretov shahar mudofasini

mustahkamlash uchun qo'shimcha vaqtga ega bo'lgan. 14-dekabr tongida Sariqamishga Yudenich tomonidan 1-Zaporoje kazaklar polki, 80-Kabardin piyodalar polki, polkovnik Dovgird (1871-1918) qo'mononligidagi 18-Turkiston polkining 2 ta batalyoni va 17-Turkiston polkining bir qismi yuboriladi[16]. Dovgirdga Bardus dovoni atrofida mudofaani ushlab vazifasi topshiriladi.

14-dekabrda hal qiluvchi janglar boshlanib 5 ta turk diviziyasi Sariqamishga hujumga o'tadi. Ular Sariqamish-Kars temiryo'li aloqasi uzib qo'ydi. 15-dekabrda Sariqamish mudofaasi muvaffaqiyatiga ishonmagan general Mishlevskiy frontal hujum markazida qolgan 2-Turkiston korpusi halokatga uchraydi deb hisoblaydi va shaharni tashlab Tiflisga ketib qoladi[17]. Mishlevskiy 1-Kavkaz korpusini saqlab qolish uchun korpus qo'mondonligiga chekinishni maslahat beradi. 2-Turkiston korpusi qo'mondonlari Yudenich va Lesh bunga qattiq qarshi chiqqan. Bu vaqtda g'arbda Passin vodiysidagi 4-Turkiston o'qchi brigadasi Abdul Karim poshshoning 11-turk korpusi (40-45 batalyon) hujumini qaytarib turishda davom etadi[18].

15(28)-dekabr kechga yaqin Sariqamishga 1-Kubani plastun brigadasi qo'mondoni general Prjevalskiy (1859-1934) 5 ta batalyon bilan yordamga yetib keladi va mudofaani o'z qo'lga oladi. 17-dekabrda Sariqamishdagi rus qo'shinlari qarshi hujum boshlaydi. Dovgirdning 18-Turkiston polki Bardus temiryo'li stansiyasini egallaydi. 18-dekabrda shahar qamali yorib o'tilib Tiflis bilan aloqa tiklanadi. Turklarning chekinish yo'llarini to'sish uchun 18-dekabrda 18-Turkiston polki Bardus dovoniga, 19-dekabrda bo'lsa 17-Turkiston polki Eshak-maydon dovoniga yuboriladi. 20-dekabrda (2-yanvar) Sariqamish atrofini tark etayotgan Anvar poshsho Eshak-maydon dovonida 17-Turkiston polki hujumiga uchrab o'z shtabi va kanselyariyasining bir qismini yo'qotdi. Shu kuni Anvar poshsho o'zining Sariqamishga aylanma operatsiyasi muvaffaqiyatsiz chiqqanini tan olib 9,10-turk korpuslarini jang maydonlaridan olib chiqish haqida buyruq berdi.

1915-yil 1-yanvarda Yudenich otryadi va 2-Turkiston korpusi umumiy qarshi kujumga o'tadi. 4-yanvarda Sariqamish yonidagi 9-turk armiya korpusi qoldiqlari – korpus qo'mondoni Ali Isxan poshsho, 200 ta zobit va 7000 askar taslim bo'ldi[19]. 2-5 yanvarda 11-turk korpusi qo'mondoni A.Karim poshshoning 9,10-korpuslarini qutqarib qolish maqsadida Passin vodiysida amalga oshirgan yalpi hujumi ham 14,15,16-Turkiston va 153-Bakini polklari tomonidan qaytarildi[20]. 10-15 yanvarda polkovnik Dovgird 17,18-Turkiston o'qchi polklari bilan - 20 gradus sovuq va odam bo'yidan baland qorli sharoitda 15 verst aylanma yo'l bosib Zavinsk pozitsiyasidagi 11-turk korpusi 34-diviziyasi va uning shtabini qo'lga olgan[21]. Dovgird otryadining (1500 harbiy) hujumi Sariqamish jangiga hal qiluvchi nuqta qo'ydi. O'z ortida Dovgird paydo bo'lgach Abdul Karim poshsho qurshovda qolmaslik uchun o'z korpusiga chekinish haqida buyruq beradi[22].

1915-yil 5(18)-yanvarga kelib turklar to'la mag'lubiyatga uchraydi. Bunda 3-turk armiyasi katta yo'qotishlarga uchradi: 60 000 turk janglarda yoki qattiq sovuqda muzlab halok bo'lib, 15 000 nafari asir tushadi[23]. Rus armiyasining yo'qotishlari halok bo'lgan, yarador va kasallar bilan 16 000 - 20 000 kishini tashkil qilgan. 6000 dan ko'proq kishini sovuq uradi[24]. Eng ko'p talofatni qattiq qarshilik ko'rsatgan 2-Turkiston korpusi ko'rgan. Har birida 2500 nafardan askar bo'lgan Turkiston polklarida jangi oxirida 600-700 nafardan askar qoladi holos[25].

12(25)-dekabr – 5(18)-yanvardagi “Ardagan jangida” 2-Turkiston armiya korpusining general P.P.Kalitin (1853-1927) qo'mondonligidagi Sibir kazaklar brigadasi Kars viloyati shimolida nemis mayori Avgust fon Shtanke qo'mondonligida 1-turk armiya korpusi 7,8-polklarini mag'lubiyatga uchratadi[26].

Sariqamish va Ardagandagi g'alabalar natijasida turklarning harbiy harakatlarni Rossiya hududiga o'tkazish va Kavkazortini bosib olish rejasi barbod bo'ldi. 2-Turkiston korpusining say-harakati natijasida Kavkaz mudofaasining saqlab qolinishi Bosh qo'mondonlikning e'tirofiga sazovor bo'lgan. 2-Turkiston korpusi qo'mondoni general Lesh 3-darjali “Avliyo Georgiy” ordeni bilan taqdirlanib Sharqiy frontdagi 12-armiya korpusi qo'mondonligiga tayinlanadi. General-leytenant Mixail Alekseyevich Prjevalskiy 4-darjali “Avliyo Georgiy” ordeni va Lesh o'rniga 2-Turkiston korpusi qo'mondonligini oladi. Sibir kazaklar brigadasi komandiri general P.P.Kalitin general Berxman o'rniga 1-Kavkaz armiya korpusi qo'mondoni etib tayinlangan. 1-Sibir kazaklar polki rahbari polkovnik Ernest-Avgust Raddatsga 4-darjali “Avliyo Georgiy” ordeni berilib Kalitin o'rniga Sibir kazklar brigadasi komandiri vazifasi yuklatiladi[27]. Dovgird esa yangi tashkil etilgan 5-Kavkaz korpusi shtabi boshlig'i lavozimini egallaydi.

Kavkazda Sarikamish operatsiyasidan so'ng 1915-yil bahorida 2-Turkiston armiya korpusi 3-Kuban plastun brigadasi, 3-Gorsk-Mozdok kazaklar polki, 14,18-Kuban kazaklari yuzligi, 103-militsiya o'tliqlari yuzligi, 109-militsiya brigadasi bilan kuchaytirildi. 1915-yil sentabr boshida 2-Turkiston korpusi tarkibi 28.5 batalyon, 7 ta ko'ngilli militsiya drujinasi, 22 ta o'tliqlar yuzligi, 3 ta injinerlar rotasi, 32 ta yengil, 24 ta tog', 6 ta o'tliq, 4 ta porshenli artilleriya qurollari va 2 ta gaubitsadan iborat edi (7-ilova). Korpus qo'mononi general-leytenant Prjevalskiy, korpus shtabi boshlig'i general-mayor Savitskiy edi. Korpus tarkibida 33 000 nafar o'qchi piyodalar va 3000 dan ortiq kazaklar mavjud bo'lgan. 1915-yil 22-noyabrda 2-Turkiston korpusi 4,5-brigadalari qayta tashkil qilinib, 4 batalyonli 4,5-Turkiston o'qchi diviziyalariga aylantirilgan. 1915-yil 8-noyabrda esa Kaspiyorti kazak brigadasi asosida 1-Kavkaz korpusi tarkibida 28 ta yuzlikdan iborat general A.M.Nikolayev qo'mondonligida 5-Kavkaz kazaklar diviziyasi tashkil etiladi[28].

1915-yil oxiri va 1916-yil boshida Kavkazdagi Rossiya qurolli kuchlari yirik hujum operatsiyasini amalga oshiradi. Hujumdan maqsad turklarning Kavkazdagi strategik markazi bo'lgan Erzurum shahrini egallash edi. Erzurumda Mahmud Komil poshshonning 3-armiyasi boshqaruv markazi joylashgandi. 1915-yil 20-dekabrda “Erzurum operatsiyasi” arafasida 2-Turkiston armiya korpusi 36 ta batalyon, 21 ta kazaklar yuzligi, 7 ta militsiya drujinasi, 3 ta injinerlar rotasi, 38 ta yengil, 24 ta tog' va 4 ta poshenli atrilleriya qurollaridan tashkil topgandi[29]. Operatsiya 1915-yil 28-dekabr – 1916-yil 3-fevral kunlari amalga oshiriladi. 11-16 fevraldagi qamal natijasida Erzurum qal'asi zabt etiladi. Operatsiyada 2-Turkiston va 1,4-Kavkaz armiya korpuslarining umumiy yo'qotishlari 17 135 nafarni tashkil etgan. Operatsiya

davomida 35 000 dan ortiq turk askarlari yo'q qilinib, 235 ofitser va 12 753 nafar quyi darajadagi harbiylar asirga tushadi[30].

1916-yil may oyida turklar Erzurum, Mamaxatun va Trapezundni qaytarib olish uchun Kavkazga qo'shimcha kuchlar yuboradi. Kavkazdagi diviziyalar soni 11 tadan 24 taga yetkaziladi. 16-may kuni 9,11-turk korpuslari Mamaxatunni egallaydi. 13-iyunda 6,10-turk korpuslari Limansuv vodiysi bo'yab Trapezund tomon hujum boshlab 5-Kavkaz va 2-Turkiston korpuslari o'rtasiga yorib kirishga muvaffaq bo'lgan. 19-Turkiston polki bir necha kun davomida turklarning hujumini qaytarib turadi. Buning evaziga general Prjevalskiy qo'shinlarni qaytadan joylashtirish uchun vaqtga ega bo'ldi. Oqibatda 2-Turkiston korpusining 3-Kuban plastun brigadasi turklarning hujumlarini to'xtatadi[31]. Polkovnik Litvinovning 19-Turkiston polki Kavkaz frontini saqlab qolgan jangda 3260 kishlik shaxsiy tarkibidan 43 ofitser va 2069 ta askarini yo'qotgan edi. Polkning o'zi 6000 ga yaqin dushmani yo'q qildi. 27-iyunda Kavkaz armiyasi Mamaxatun qaytarib oldi.

1916-yil Kavkaz armiyasi shtabi boshlig'i general Yudenich Mamaxatun va Trapezund atrofidagi g'alabani rivojlantirish va Anatoliyadagi muhim shahar Arzinjonni egallashni rejalashtiradi. Arzinjonga hujumda 1,5-Kavkaz va 2-Turkiston korpuslari ishtirok etgan. “Arzinjon operatsiyasi” 2-25 iyul kunlari amalga oshiriladi. Jang avvalida 2-Turkiston korpusi tarkibi 32 ta batalyon, 7 ta drujina, 21 ta o'tliqlar yuzligi, 4 ta injiner rotasi, 36 ta yengil, 24 ta tog', 6 ta o'tliq to'plar va 8 ta gaubitsadan iborat bo'lib, korpusdagi piyoda askarlar 38 000 kishiga yetkazilgan edi[32]. Operatsiya davomida 10-turk korpusiga kuchli zarbalar bergan 2-Turkiston korpusi 2-iyul kuni Arzinjondan chap qanotdagi Bayburt shahrini egallaydi. Korpus Bayburt atrofidagi 4 ta polk komandiri, 134 ta ofitser, 2100 askarni asirga olib 6 ta to'p, 8 ta pulemyotni qo'lga kiritdi[33]. 10-iyul kuni Kavkaz armiyasi Arzinjonni bosib oladi. Operatsiya davomida 17 000 turk asir tushgan[34].

1916-yil dekabrda boshlab Sharqiy va Kavkaz fronti turg'unlik davriga kirgan. Hech bir tomon frontlardagi holatga sezilarli o'zgartirish kiritmaydi. 1917-yil 23-fevralda inqilobiy harakatlar natijasida Rossiya imperiyasidagi Romanovlar sulolasi (1613-1917) ag'dariladi va hokimiyat Georgiy Lvov boshchiligidagi Muvaqqat hukumat qo'liga o'tadi. Bu voqealar Turkiston harbiy okrugi va urush frontlaridagi okrug qo'shinlarining tarixida yangi davrni boshlab beradi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib shuni aytilish mumkinki Birinchi jahon urushi va unda Rossiya imperiyasining ishtiroki Turkiston o'lkasini ham chetlab o'tmagan. Turkiston harbiy okrugidagi muntazam armiya korpuslari va Yevropa millatiga mansub aholi urush frontlariga safarbar etildi. 2-Turkiston armiyasi korpusi urush davrida Kavkazdagi harbiy harakatlarda katta ahamiyatga ega bo'lgan va urushning borishi va natijalariga sezilarli tasir ko'rsatgan. Uning yordamida Rossiya imperiyasi armiyasi Kavkazda bir qancha sezilarli muvaffaqiyatlarga erishgan edi.

ADABIYOTLAR

1. Кавказский фронт Первой мировой войны 1914-1917. Сборник документов. – Москва, 2020. – С. 8.
2. Данилов Ю. Россия в Мировой войне 1914-1915. – Берлин, 1924. – С. 268.
3. Масловский Е. Мировая война на Кавказском фронте 1914-1917 г. – Париж, 1933. – С. 443.
4. Аллен У., Муратов П. Битвы за Кавказ. – Москва, 2016. – С. 276.
5. Данилов Ю. Россия в Мировой войне 1914-1915. – Берлин, 1924. – С. 270
6. Айрапетов О.Р. Участие Российской империи в Первой мировой войне – 1914. – Москва, 2014. – С. 379.
7. Корсун Н. Сарыкамышская операция на Кавказском фронте Мировой войны в 1914-1915 году. – Москва, 1937. – С. 11-12.
8. Масловский Е. Мировая война на Кавказском фронте 1914-1917 г. – Париж, 1933. – С. 434, 442-443.
9. Кавказский фронт Первой мировой войны 1914-1917. Сборник документов. – Москва: Первая Образцовая типография. 2020. – С. 9.

10. Аллен У., Муратов П. Битвы за Кавказ. – Москва, 2016. – С. 283.
11. Корсун Н. Сарыкамышская операция на Кавказском фронте Мировой войны в 1914-1915 году. – Москва, 1937. – С. 33.
12. Корсун Н. Сарыкамышская операция на Кавказском фронте... Мировой войны в 1914-1915 году. – Москва, 1937. – С. 34.
13. Масловский Е. Мировая война на Кавказском фронте 1914-1917 г. – Париж, 1933. – С. 87-93.
14. Керсновский А. История русской армии. Том IV. – Москва, 1994. – С. 132.
15. Айрапетов О.Р. Участие Российской империи в Первой мировой войне – 1914. – Москва, 2014. – С. 385.
16. Масловский Е. Мировая война на Кавказском фронте 1914-1917 г. – Париж, 1933. – С. 95, 98.
17. Керсновский А. История русской армии. Том IV. – Москва, 1994. – с. 132.
18. Масловский Е. Мировая война на Кавказском фронте 1914-1917 г. – Париж, 1933. – С. 103.
19. Айрапетов О.Р. Участие Российской империи в Первой мировой войне – 1914. – Москва, 2014. – С. 394.
20. Масловский Е. Мировая война на Кавказском фронте 1914-1917 г. – Париж, 1933. – С. 117.
21. Керсновский А. История русской армии. Том IV. – Москва, 1994. – С. 134.
22. Аллен У., Муратов П. Битвы за Кавказ. – Москва, 2016. – С. 319.
23. Керсновский А. История русской армии. Том IV. – Москва, 1994. – С. 134.
24. Айрапетов О.Р. Участие Российской империи в Первой мировой войне – 1914. – Москва, 2014. – С. 390.
25. Аллен У., Муратов П. Битвы за Кавказ. – Москва, 2016. – С. 319.
26. Масловский Е. Мировая война на Кавказском фронте 1914-1917 г. – Париж, 1933. – С. 121.
27. Елисеев Ф.И. Казаки на Кавказской фронт. – Москва, 2001. – С. 276.
28. Масловский Е. Мировая война на Кавказском фронте 1914-1917 г. – Париж, 1933. – С. 142,150,450, 469.
29. Масловский Е. Мировая война на Кавказском фронте 1914-1917 г. – Париж, 1933. – С. 470.
30. <https://gwar.mil.ru>. RGVIA, 2003-fond, 1-yig'ma jild, 544-ish, 547-varaq.
31. Керсновский А. История русской армии. Том IV. – Москва, 1994. – С. 155.
32. Масловский Е. Мировая война на Кавказском фронте 1914-1917 г. – Париж, 1933. – С. 481.
33. Керсновский А. История русской армии. Том IV. – Москва, 1994. – С. 157.
34. Олейников А.В. Захвачены в бою. – Москва, 2015. – С. 176.



UDK:94-055.2(575.171)

Yulduz GAYBULLAYEVA,

Toshkent shahridagi Webster dotsenti, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori

O'zMU katta o'qituvchisi O.A.Radjabov taqrizi asosida

UZBEK WOMEN'S CLOTHES OF THE 19TH-20TH CENTURIES STORED IN THE MUSEUM FUNDS OF UZBEKISTAN

Annotation

An integral and component part of a women's costume is a top. Each region of the country has commonalities, specific characteristics and appearances, which were manifested on the inside and outside of the headstones. As women's clothing, various light coats - robes (munisak, shorts, etc.), vests, long and short skirts, and capes can be shown.

Key words: Clothes, coat, ton, jelak.

УЗБЕКСКАЯ ЖЕНСКАЯ ОДЕЖДА XIX-XX ВЕКОВ, ХРАНЯЩАЯСЯ В МУЗЕЙНЫХ ФОНДАХ УЗБЕКИСТАНА

Аннотация

Неотъемлемой и составной частью женского костюма является топ. Каждый регион страны имеет общие черты, специфические особенности и облик, которые проявлялись внутри и снаружи надгробий. В качестве женской одежды могут быть показаны различные легкие пальто – халаты (munisak, шорты и т. д.), жилеты, длинные и короткие юбки, накидки.

Ключевые слова: Одежда, пальто, тон, желак.

XIX-XX ASRLARGA OID O‘ZBEKISTON MUZEY FONDLARIDA SAQLANAYOTGAN O‘ZBEK AYOLLARINING KIYIM-KECHAKLARI

Annotatsiya

Xotin-qizlar kostyumining ajralmas va tarkibiy qismi ust-boshlardir. O‘lkaning har bir hududida umumiylik, o‘ziga xos xususiyatlar va ko‘rinishlar mavjud bo‘lib, ular ustboshlarning ichki va tashqi tomonida namoyon bo‘lgan. Xotin-qizlar ustboshlari sifatida turli-tuman yengil to‘n - xalatlari (munisak, kaltacha va b.) kamzullar, uzun va kalta yengsiz nimchalar hamda choponlarni ko‘rsatish mumkin.

Kalit so‘zlar: Kiyim, chopon, to‘n, jelak.

Kirish. Yozgi to‘n – chopon oddiy matolardan astarsiz bo‘lib, it kiyimi hisoblangan. Eng ko‘hna ayollar to‘ni peshvant edi. Uni ko‘ylak ustidan kiyilgan. Ba’zi joylarda peshvant ustidan jelak kiyishgan. Jelak deb bir necha xil kiyimlar atalib, ko‘pincha ular kalta chopon bo‘lgan[1].

XIX asr oxiri va XX asr boshlarida xotin-qizlarning maxsus kiyimi munisak, mursak keng ommalashgan. Toshkentda mursak, Xorazmda misak, Samarqandda kaltacha, Farg‘onada munisak, munsak, Buxoro va Shahrisabzda kaltacha nomlari bilan atashgan[2]. Mursakning chopondan farqi shuki, unda yeng ostidan burma qilinib, etaklari ulama qiyiq hisobiga kengaytirilgan bo‘ladi, ular xuddi chopon barlariga o‘xshab birining ustiga biri tushib turadi, yon tomonlarda yo‘rmoch bo‘ladi. Mursak paxta solinib qavilgan bo‘lishi ham mumkin. XIX asr oxirlarida Farg‘ona vodiysi xotin-qizlari turmushini o‘n yil davomida ko‘rgan, kuzatgan va ular bilan qishloqda yashagan elshunos olim, Rossiya armiyasi shtabs-kapitani Vladimir Nalivkinning yozishicha, qishloqda barcha turmush qurgan ayollar mursak kiyishgan, shaharlarda esa uni faqat kekxa yoshdagi xotinlar, nuroniy ayollar kiygan[3].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mursakning rangi ayolning yoshiga qarab turlicha bo‘lgan. Qiz va juvonlarning mursaklari qizil va yashil, o‘rta yoshdagilarga havorang, kulrang, kekxalarda esa oqish rang rasm edi. Har bir kelin sepiga ikkitadan o‘n sakkiztagacha mursak qo‘yilgan.

Muzey kolleksiyalarida turli hududlardagi mursaklar mavjud. Xususan, toshkentlik Umarovadan olingan mursak 1905 - yilda tayyorlangan[4]. U qashqar tovar ipak matosidan tikilgan. Ko‘k rangli, och qora gulli, astari qizil fonda, ko‘k

qo‘ng‘iroqchalar tasviri tushirilgan[5]. Farg‘ona mursagi esa qo‘lda mahalliy kosibcha ipak shoyidan tikilgan[6]. U juda noyob va qiziqarli naqshli medalon ko‘rinishida to‘rt rang – ko‘k, oq, jigarrang va binafsha rangda tovlanadi. Astari katak-katak ipakdan.

Muzey fondlaridagi Buxoro kaltacha ham mahalliy shoyidan tikilgan bo‘lib, matosi Buxoroga xos gul va naqshlardan bezatilgan. XIX asrga oid[7]. Samarqandning bayram to‘ni ko‘k ipak shoyidan tikilgan, astari chitdan, yo‘l-yo‘l. Old tomoni jigarrang tesma bilan o‘ralgan. Astari kaltachani eslatadi. Uzunligi 133 sm., yengi yelkasidan 74 sm., to‘g‘ri va keng.

Ko‘p asrlik tarixiy amaliyotda har bir mahalliy, etnik va ijtimoiy guruhda libos ranglarining o‘ziga xos tartibi, o‘zining estetik didi tarkib topgan. Kiyim-kechakning umumiy jihatlari bilan bir qatorda har bir hudud matodan foydalanish, ranglar uyg‘unligi, libos uzunligi, kengligi va hokazo jihatlari bo‘yicha o‘ziga xos xususiyatlarni kasb etgan. An’anaviy liboslar musulmonlarning turmush tarziga xos bo‘lib, kiyim-kechaklar tashqi muhitda bo‘lgan ayollar qiyofasini imkon qadar tashqaridan yopishi kerak bo‘lgan. O‘zbek ayollarining milliy libosi turli iqlimiy hududlarga moslashuvi natijasida kiyimning xilma-xil o‘zgargan va mahalliy nusxalari vujudga kelgan. O‘troq-dehqonchilik joylarida qadimgi to‘kilib turadigan kiyim-kechak rasm bo‘lsa, ko‘chmanchi-yaylov chorvadorligida libos badanga yopishib turgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotning uslubiy asosini ob’ektivlik va tarixiylik prinsipi tashkil etadi. Shuningdek, maqoladagi ma’lumotlarni tahlil etishda statistik usuldan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar. Kiyim-kechakka tabiiy-iqlimiy omillarning ta'sirida O'rta Osiyoning keskin kontinental iqlimiga ko'plab asrlar mobaynida moslashuv natijasida keng va to'kilib turadigan kiyimbosh vujudga kelgan. U jazirama issiq sharoitida sog'liqni va ishchanlik qobiliyatini saqlab qolish uchun zarur bo'lgan sun'iy mikro-iqlimni yaratga olgan[5]. Yillar davomida bir hududiy, etnik, ijtimoiy va yosh guruhining turmush shart-sharoitlari hamda xo'jalik yuritish tarzidan kelib chiqqan holda erkaklar kiyimi bilan bir qatorda ayollar libosi ham tepadan pastga qarab kengayib borishi an'ana tusini oldi. Demak, milliy liboslarning shakllanishida aholining geografik joylashuvi, iqlim sharoitlari va xo'jalik-hayotiy tarzi eng asosiy omillar sifatida ta'sir ko'rsatgan.

Jumladan, Qashqadaryo va Surxondaryo vohasi O'zbekistonning janubida joylashganligi bois, iqlimining issiqligi bilan ajralib turadi. Tabiiy shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda o'lka aholisining milliy kiyimlari ham tabiat sharoitlariga mos bo'lishi lozim. Kiyimlarning yorqin ochiq bo'yoqlari, erkin bichimi va noyob, turli-tuman kashtalari kishilarning yuqori dididan dalolat beradi. Kiyimlarda ajdodlarning ko'p asrlik an'anaviy va badiiy yaratuvchanlik g'oyalari yaqqol ifodalangan. Surxondaryoda ayollarning "kiygich", "bosh" deb ataladigan bosh kiyimlari fakat ayni Surxondaryogagina xos bo'lib, O'zbekistonning boshqa joylarida uchramaydi.

O'zbek liboslarini chinakam ilmiy o'rganish XIX asrdan boshlangan yevropaliklar, ayniqsa Rossiya olimlari Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xivada yashagan aholi madaniyati, turmushi, san'atiga g'oyat qiziqib qarashdi. Bu jarayon Rossiya istilosidan keyin kuchaydi. Toshkent ommaviy muzeyi tashkil etilgandan so'ng (1876) rejali tus oldi. Turkiston xalqlari moddiy va ma'naviy yodgorliklarini to'plash olimlardan tashqari mahalliy amaldorlar o'rtasida ham keng avj oldi. Bu ishda Turkiston o'lkasi bosh hokimi – general-gubernator Konstantin fon Kaufman (1867-1881) namuna bo'ldi, desak yanqlishmaymiz. Uning o'zbeklar bo'yicha kolleksiyasida 365 ta buyum bo'lib, unda uy-joy, maishiy kiyim-kechak, hunarmandlar ishlagan va turfa mahsulotlar, gazlama hamda matolar, kundalik, marosimlarda kiyiladigan erkaklar – ayollarning ust-boshlaridan iborat bo'lib, u hozirda Sankt-Peterburgda saqlanadi.

Bu kolleksiyadan 329 dona ayollar kiyimi, 219 ta erkaklar va 9 ta bolalar usti-boshlari o'rin olgan.

Toshkent ommaviy muzeyi ekspozitsiyasi etnografiya bo'limida Turkiston xalqlari kiyim-kechaklari, zargarlik buyumlari va turli-tuman kiyim, zeb-ziynatlarini to'plangan. Davriy matbuot va O'zbekiston Respublikasi Markaziy Davlat arxividagi hujjatlar bu kolleksiyalar haqida to'liq ma'lumotlar beradi.

Toshkent ommaviy muzeyidagi kolleksiyalar, shu jumladan mahalliy kiyim-kechak namunalari 1876 - yilda Peterburgda o'tkazilgan sharqshunoslar xalqaro kongressiga bag'ishlangan ko'rgazmada, 1890 - yilda Turkiston qishloq xo'jaligi ko'rgazmasida namoyish qilingan. Muzey 1900 - yili xalqaro Parij ko'rgazmasiga mahalliy aholi kiyim-kechaklari va boshqa eksponatlarini yubordi. Etnografiya kolleksiyasining katta qismi esa 1906 - yilgi Milan ko'rgazmasida namoyish etildi.

Ikkinchi gil'diya savdogari, mahalliy ipak, jun hamda ip-gazlama buyumlari fabrikasining egasi Mirza Abdulla Buxoriy 1878 - yili Toshkentda ko'rgazma tashkil etishda qatnashib, unga xonatlas, turli rangdagi ayollar bosh kiyimi va har hil ro'mollardan iborat kolleksiyani taqdim qilgan edi. Mirza Abdulla savdogar Muhammad Shokir bilan birga "Ipak buyumlari ishlab chiqarishni ancha takomillashtirgani va kengaytirgani uchun" oltin nishonga sazovor bo'lgan edi.

U 1886 - yili Turkiston ko'rgazmasida, 1887 - yili Xar'kov qishloq xo'jalik ko'rgazmasida qatnashdi. U keltirgan ipak mahsulotlar tezda sotilib ketdi. Mirza Abdullaning

etnografik kolleksiyasi rus olimlari diqqatini jalb qildi. Xususan, sharqshunos N.I.Veselovskiy uning kolleksiyasidan 1202 buyumni sotib olgan. N.I.Veselovskiy bilan tanishib hamsuhbat bo'lishi Buxoriyda moddiy yodgorliklarni to'plashga bo'lgan qiziqishni yanada kuchaytirdi. U o'z tashabbusi bilan Moskva va Peterburgga sayohat qildi hamda Kremlda bo'ldi. Tret'yakov galareyasini ko'rdi. 1887 - yili Peterburgga kelib, N.I.Veselovskiy bilan uchrashdi. Ikki olim hamkorligi ikki tomon uchun foydali bo'ldi. Mirza Abdulla moddiy yodgorliklar kolleksiyalaridan 6300 osori atiqani Peterburgga yubordi. Uning bundan ko'zlagan maqsadini shunday ifoda etgan: "har qalay, umumiy manfaat va Rossiya ilm-fanini ko'zlab hamda ulusimiz boshqalar ham bu qadimgi narsalar xususida alohida tushunchaga ega bo'lsinlar uchun, Turkiston o'lkasida bu ish bilan hammadan ko'proq men shug'ullanganimni unutmaganlar uchun yodgorlik qoldirishga harakat qildim". (Lunin B.V. Samarqandlik qadimgi narsalar muxlisi Mirza Buxoriy, "O'zbekistonda ijtimoiy fanlar", 1963, №6).

Ilg'or rus ziyolisi N.I.Veselovskiy Mirza Buxoriydan tashqari boshqa mahalliy kolleksionerlar Akrom Asqarov, Abu Said Maxsum bilan hamkorlik borasida o'ziga xos xulosaga kelib, mustamlakachilik siyosatiga zid bo'lgan fikrlarini ochiq aytishga jur'at qilgan edi.

Mustamlakachilik davrida (1867-1917) ish olib borgan Toshkent ommaviy muzeyi, Samarqand va Farg'ona muzeylari etnografiya bo'limlarida Turkiston xalqlari kiyim-kechaklari, zargarlik buyumlari va turli matolar joy olgan bo'lib, ular o'lka va xalqaro ko'rgazmalarda namoyish qilib turilgan. Bu esa o'lka moddiy va ma'naviy boyliklarini ishtiyoq bilan to'playotgan Rossiya va chet el kolleksionerlari faoliyatiga keng yo'nalishlar ochgan. Oktyabr to'ntarishidan so'ng qizil mustamlakachilik davrida (1917-1991) bu jarayon yanada avj oldi.

Tadqiqotchilarning so'nggi hisobotlariga qaraganda, Rossiya Federatsiyasi Davlat etnografiya muzeyida saqlanayotgan o'zbek kiyimlari kolleksiyalari jami 1570 ta bo'lib, ularning 406 tasi XIX asr birinchi yarmiga mansub, 375 tasi XX asrga qadar, 800 tasi XX asr birinchi yarmiga o'ldir.

Sankt-Peterburgdagi Davlat etnografiya muzeyining jamg'armalarida saqlanayotgan kolleksiyalar bilan yuzaki bir tanishuvning o'zidayoq Markaziy Osiyo xalqlari qanchalik boy etnografik osori-atiqalar sohibi bo'lganliklaridan yorqin dalolat beradi. Bu muzeylarning fondlari o'zbek milliy kiyim-kechaklariga shunchalik boyki, ularni qiyosiy o'rganish bichim va matolardagi farqlarning bezatish uslublarining, yoshga qarab kiyiladigan ust-boshlarning, marosim kiyimlarining asosiy xususiyatlarini to'laroq tasavvur etish imkonini beradi.

Sankt-Peterburgdagi Davlat etnografiya muzeyida o'zbek kiyim-kechaklari kolleksiyalari 1570 ta, Davlat Ermitajida 100 ta, Moskva Kremli muzeyi – Orujeynaya patatada 750 ta buyum va Sharq xalqlari muzeyida 500 dan ortiq buyumlar saqlanib ular jahon miqyosida Rossiya muzeylari eksponatlarini sifatida ma'lum va mashhurdir.

O'zbekiston muzeylarida saqlanayotgan kolleksiyalar garchand ular bilan bellasha olmasa ham milliy liboslarimiz xususida keng tasavvur beruvchi diqqatga sazovor kolleksiyalarga egadir.

O'zbekiston tarixi Davlat muzeyi fondida erkaklar va ayollar kiyim-kechaklaridan iborat 22 va 74 sonli kolleksiyalar bo'lib, bularda kimxob, banoras, bahmal kabi qimmatbaho matolardan tikilgan kiyim-kechaklar mavjud. O'zbekistonning turli hududlari – Samarqand, Buxoro, Farg'ona, Shahrisabz, Urgut, Jizzax viloyat va tumanlaridan yig'ib kelingan do'ppilarning 260 ta namunasi borki, bular shakl va gullari jihatidan juda xilma-xil bo'lib, o'tgan va hozirgi davrlarga o'ldir. Kolleksiyalar tarkibiga, shuningdek, ip-gazlamadan,

zarin guldor kimxobdan tikilgan to'nlari ipak va xom ipakdan tikilgan ko'ylaklar, choponlar, kamzullar va boshqa utiboshlar kiritilgan 159 ashyoni o'z ichiga olgan maxsus 42-kolleksiyada esa ayollarning ro'mollari, ta'ziyalarda belga bog'lanadigan qiyiqchalar, kelin-kuyovlarning dastro'mollari, turli salla va mo'ynali qalpoqlarni ko'ramiz. Buxoro o'lkashunoslik muzeyida buxorolik zargarlar ishlagan zebziyatlardan iborat kolleksiyada 70 dan ortiq buyumlar saqlanadi.

Muzey fondlarida saqlanayotgan kaltacha tipidagi ayollar to'ni Farg'ona adrasidan tikilgan. Oq fondagi besh rangda tovlanuvchi naqshlari afsonaviy daraxtni eslatadi. Naqshdagi asosiy rang qizil, qolganlari ko'k, jigarrang va binafsha rang esa unga qo'shimcha. Etak chekkalaridagi parvuz oydili naqshidagi chitdan.

Xotin-qizlarning chopon – to'ni erkaklar to'niga nisbatan qoplami jihatidan erkaklarnikiga o'xsasa-da, yelkasi ancha tor bo'lgan. Yana erkaklarnikidan farqli ravishda yengllari kalta, rangdorligi va ko'kragi ochiqligi, uncha yuqori bo'lmagan yoqalari bilan ajralib turgan. O'zbekiston shaharlaridagi mursaklarning har birlari o'ziga xos taraflari bilan ajralib turgan. Toshkent ayollari kiyadigan mursakning yengllari oddiy choponning yengllaridan birmuncha kaltaroq, ko'kragi qiya ochiq bo'lgan. Keyinchalik mursakning yengllari tirsakkacha uzaytirildi. Samarqand mursaklarining yengllari qo'l panjalarigacha tushib turgan. Buxoro va Qashqadaryoda

mursak yengllari keng tikilgan. Xorazmda esa mursak chopondan faqat yengllari bilan farqlangan. XX asr boshlariga kelib mursakning xizmat doirasi toraydi. Endi u odatdagi ustbosh emas, balki marosim kiyimiga aylandi. Ta'ziya marosimlarida mursak ustidan belbog' bog'lanib kiyiladigan kiyimga aylandi. Samarqandda mursak to'y marosimlari va mehmondorchiliklarda kiyilaverardi. Keyinchalik mursak har bir ayol sandig'ida o'limlik libosi sifatida saqlanib, vafot etganida ustiga yopib qo'yiladigan bo'ldi.

Xulosa. XIX asrning oxirlarida Turkiston general gubernatorligi (1867-1917 yy.) tub o'lkasi O'zbekistonda choponning yangi bir turi – kamzul paydo bo'ldi. Yangi shakldagi bu kiyim – kamzul, kamzukur, kamzur, peshmat rasm bo'laboshladi. Kamzul belga biroz yopishib turadigan, kalta, tor yengli, chuqur o'mizli qaytarma yoqali, ba'zan belbandli, yonlarida, ba'zan ko'krak qismidan cho'ntagi bo'lgan chopondir. Kamzullarni ko'pincha yorqin rangli yo'l-yo'l beqasmdan, rangli bahmaldan, tukli duxobadan va boshqa hil chetdan keltirilgan matolardan tikilgan. Kamzullarni ko'pincha qora matodan tikishgan. Yosh ayollar rangdor yo'l-yo'l beqasam yoki yorqin barhatdan tikilgan kamzullarni kiyishgan. O'sha davrda general-gubernatorlik markazi: Toshkentda yengsiz, kalta nimchalar; Farg'onada kamzullar paydo bo'lgan. Nimchani ko'pincha qora baxmaldan tikishgan.

ADABIYOTLAR

1. Шониязов К.Ш., Исмоилов Х.И. Этнографические очерки. Материальной культуры узбеков. Т. 1981. С. 88.
2. Бикжанова М.А. Мурсак – старинная одежда узбечек г. Ташкента В кн. Памяти Андреева И.С. (Труды истории и этнографии АН Таджикской ССР, Т.: СХХ. Сталинабад, 1980, С. 47.
3. Наливкин В.И. Очерк бита женщины оседлого туземного населения Ферганы. С. 97.
4. ЎзРДТМ, ЭФ, Инв. № Э 4597, 74-1 коллекциялари.
5. Ўша жойда, Инв.№Э 1444-45, 22-49 коллекциялари.
6. Ўша жойда, Инв.№Э 1444/11, 22-15 коллекциялари.
7. Ўша жойда, Инв.№Э 1444-/104, 22-115 коллекциялари.



Faxriddin YORMATOV,

Termiz iqtisodiyot va servis universiteti “ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, tarix fanlari nomzodi

E-mail: faxriddin1973@mail.com

TerDUning tarix fanlari doktori T. Pardayev taqrizi asosida

KEKSA AVLOD VAKILLARINING JAMIYAT HAYOTIDAGI IJTIMOYIY FAOLLIGI HAMDA YOSHLAR TARBIYASIDAGI O‘RNI

Аннотация

Maqolada mamlakatimizda keksa avlod vakillarining jamiyat hayotidagi ijtimoiy faolligi hamda yoshlar tarbiyasidagi o‘rni haqida keng qamrovli ma’lumotlar berilgan.

Tabarruk nuroniylik tomonidan yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, keksa avlod vakillarining minglab ajralish holatiga borib qolgan oilalarni saqlab qolishdagi xizmatlari, “Har bir nuroniy – besh nafar yoshga murabbiy” tamoyili hamda keyinchalik bu harakatning yanada kengayib, “Har bir nuroniy – o‘n nafar yoshga murabbiy” tamoyili asosida amalga oshirilayotgan ishlar haqida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: Keksalar avlod, yoshlar, tarbiya, oilalar, O‘zbekiston, Prezident, nuroniy, pirus, badavlat, jamiyat, otaxon va onaxonlar, maslahat keksalar haftaligi, tajriba.

SOCIAL ACTIVITY OF THE OLDER GENERATION IN COMMUNITY LIFE AND THEIR ROLE IN YOUTH EDUCATION

Annotation

The article provides comprehensive information about the social activity of the representatives of the older generation in the life of society and their role in the education of young people in our country.

Education of the young generation in the military-patriotic spirit by our Tabarruk religious leaders, the services of the older generation in saving thousands of separated families, the principle of "Each religious leader is a mentor to five young people" and later this movement was further expanded to "Each religious leader is ten The work being carried out based on the principle of "a coach for young people" was discussed.

Key words: Elderly generation, youth, education, families, Uzbekistan, President, enlightened, prosperous, society, fathers and mothers, consultation week of the elderly, experience.

СОЦИАЛЬНАЯ АКТИВНОСТЬ СТАРШЕГО ПОКОЛЕНИЯ В ОБЩЕСТВЕННОЙ ЖИЗНИ И ИХ РОЛЬ В ОБРАЗОВАНИИ МОЛОДЕЖИ

Аннотация

В статье представлена исчерпывающая информация о социальной активности представителей старшего поколения в жизни общества и их роли в воспитании молодежи нашей страны.

Воспитание молодого поколения в военно-патриотическом духе нашими религиозными лидерами Табаррыка, заслуги старшего поколения в спасении тысяч разлученных семей, принцип «Каждый религиозный лидер – наставник пяти молодых людей» и в дальнейшем это движение получило развитие. далее расширено до «Каждому религиозному лидеру – десять». Обсуждалась работа, проводимая по принципу «тренер для молодежи».

Ключевые слова: Старшее поколение, молодежь, образование, семья, Узбекистан, Президент, просвещенный, благополучный, общество, отцы и матери, консультационная неделя пожилых людей, опыт.

Kirish. O‘zbek xalqi mentalitetiga xos bo‘lgan azaliy va ezgulikka yo‘g‘irilgan qadriyatlardan biri nuroniy otaxon va onaxonlarimizning hurmatini joyiga qo‘yish hamda ularga har tomonlama izzat-ikrom ko‘rsatishdir.

Shu bilan birga ularning barchamiz uchun namuna va ibrat maktabi bo‘lgan boy hayotiy tajribasidan keng foydalanish va yoshlarimizning hayotda o‘z o‘rinlariga ega bo‘lishlari uchun zarur bo‘lgan qimmatli maslahatlaridan bahramand bo‘lish hamda shu yo‘l bilan jamiyatdagi faolligini oshirishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Azal-azaldan xalqimizda “Qarisi bor uyning parisi bor”, “O‘talar so‘zi – aqlning ko‘zi” “Qari bilganni-pari bilmaydi” kabi ko‘plab maqollar borki, bundan ham ularning nechog‘lik donishmandligini anglab olish qiyin emas. Haqiqatdan, ham keksalari bor xonadon fayzli va barakali xonadondir. Ular davrasida ulg‘ayayotgan yosh avlodning ma‘naviyatiyu ta‘lim-tarbiyasi yuksak bo‘ladi. Shu ma‘noda, keksalarga boy va ular e‘zozlangan yurtda ham ezgulik, mehroqibat va farovonlik hukm suradi. Ularning o‘rni oilada ham,

jamiyatda ham a‘lohida o‘ringa ega. Chunki ular kelajak avlodni, xalqimizning ko‘p asrlik qadriyati va an‘analari ruhida tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi. Demak, shunday ekan keksa avlod vakillarining yutimizda tutgan o‘rni va nufuzi hamda yosh avlodni har tomonlama tarbiyalashdagi faoliyatlarini batafsil yoritib berish nihoyatda muhimdir.

Tahlil va natijalar. Keksalarni, avvalo, boy hayotiy tajribaga ega, hayotning achchiq-chuchugini ko‘rgan insonlar sifatida ulug‘laymiz. Chunki ular milliy qadriyat, an‘ana va urf-odatlarimizni yosh avlod ongiga singdiruvchi murabbiylardir. Zero, inson tug‘iladi, parvarishga muhtoj bo‘ladi, otaxonasi, yaqinlari uni tarbiyalab, oyoqqa turg‘izadi, keyin o‘zi boshqalarni tarbiyalaydi, nasl qoldiradi, avlodini davom ettiradi, keksayib, yana eng yaqin kishilarining yordamiga muhtoj bo‘ladi. Odamlar o‘z hayotlarining keksalik davri mo‘tadil kechishi uchun jamiyat va oilasi oldida zamin tayyorlaydilar. Jamiyat va oilada keksalarni hurmat qilish, ularni e‘zozlash singari umuminsoniy fazilatlarimiz shular jumlasiga kiradi.

2019 - yilning 27 - sentabr kuni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Keksa avlod vakillarining jamiyatdagi o'rni va ijtimoiy faolligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 816-sonli[1] qarori ham bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko'tardi. Qarorga ko'ra, keksa avlod vakillarini ijtimoiy himoya qilish, ularga e'tibor va g'amxo'rlikni kuchaytirish, turmush sharoitini yaxshilash, faol va mazmunli hayot kechirishlarini ta'minlash, ularning boy hayotiy tajribasidan keng foydalanish maqsadida BMT Bosh Assambleyasining 1990 - yil 14 - dekabrda rezolyutsiyasi bilan e'lon qilingan 1 - oktabr - "Xalqaro keksalar kuni"ni mamlakatimizda ham har yili mazkur sanada keng nishonlash maqsadida oktabr oyining birinchi haftasi "keksalar haftaligi" etib belgilandi. Shuningdek, qarorda yana ko'plab o'zgarishlar va yangiliklar keltirilgan.

2020 - yil 29 - dekabrda davlatimiz rahbari Oliy Majlisga Murojaatnomasida keksalar, jumladan, yolg'iz keksalar bilan ishlash, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash bo'yicha yaxlit va ta'sirchan tizim yaratish zarurligi, bu toifa uchun ajratilayotgan ijtimoiy to'lovlar miqdorini qayta ko'rib chiqish kerakligini alohida ta'kidlagan bo'lsa, joriy yil "Agar katta avlodning bilimi va tajribasini, uzoqni ko'ra olish fazilatlarini yoshlarimizdagi g'ayrat-shijoat, mardlik va fidoyilik bilan birlashtira olsak, ko'zlagan marralarga albatta yetamiz. Nuroniy otaxon va onaxonlarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz ham qarz, ham farzdir" [2] degan qat'iy chorlovlari bilan ularga bo'lgan yuksak ehtiromini namoyon etdi. O'tgan yaqin yillar mobaynida keksa avlod vakillari jamiyat hayotida ijtimoiy faollik ko'rsatib, hayotimizdagi ayrim muammolarning echimini topishda, yoshlar ta'lim-tarbiyasida, oilalarni mustahkamlashda o'ziga xos ijobiy ishlarni amalga oshirdi;

- yosh avlodni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarini ularning ongiga singdirishda keksa avlod vakillarining ijtimoiy faolligini oshirish borasida "Nuroniy" jamg'armasining Mudofaa vazirligi bilan o'zaro hamkorligi tizimi o'rnatildi;

- "Inson qadri ulug', xotira muqaddas", "Mardlik, burch va sadoqat" shiorlari ostida "Xotira" maydonlarida, mahallalarda, ta'lim muassasalarida va harbiy qismlarda mehnat faxriylarining yoshlar bilan "Ikki avlod" uchrashuvlarini muntazam o'tkazish tizimi yo'lga qo'yildi;

- profilaktik hisobda bo'lgan farzandi tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi 11636 nafar ota-onalardan 6488 nafari keksa avlod vakillarining takliflari asosida ro'yxatdan chiqarildi;

- keksalar avlod vakillarining targ'ibot-tashviqot ishlari natijasida 286 ta notinch oilalar yarashtirildi, 258 nafar voyaga yetmaganlar profilaktik hisobdan chiqarildi, 263 nafar spirtli ichimlikka ruju qo'yganlar bunday illatdan xalos bo'lishiga erishildi. [3]

Aytish joizki, ushbu qilingan ishlar keksalarimizni har tomonlama qo'llab-quvvatlash hamda ularga ijtimoiy faollik ko'rsatishga sharoit yaratib berish natijasi yuzaga keldi desak aslo mubalog'a bo'lmaydi. Shuni ham alohida ta'kidlash o'rinliki, nuroniylarning katta hayotiy tajribalaridan samarali foydalanish, ayniqsa, murakkab oilaviy nizolarga yechim topish, jamiyatdagi ko'plab ijtimoiy va maishiy muammolarni bartaraf etishda juda qo'l kelmoqda. Jumladan, barcha viloyat va tuman (shahar)larda Nuroniy jamoatchilik kengashlari, mahallalarda "Keksalar maslahati" guruhlari va "Buvijonlar maktabi" kengashlari tashkil etildi. Mahallalarda joylashgan otalar choyxonalarini hamda tuman (shahar)larda joylashgan "Nuroniy maskani" va boshqa turli muassasalarda keksalar hamda faxriylar ishtirokida qator ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar, uchrashuv va davra suhbatlari o'tkazildi.

O'zbek xalqi azaldan oila atalmish qo'rg'onni muqaddas bilib, uning buzilishi natijasida farzandlarning ota-onaga mehriksiz kamolga yetishini jamiyatning eng og'riqli jihatlardan biri sifatida bilib, unga qarshi qat'iy kurashib keladi. Oilalar buzilishining oldini olish va oilalarda yuzaga kelayotgan nizo va ziddiyatlarni ijobiy hal etish maqsadida mahalla-ko'y, ayniqsa yosi ulug', piru-badavlay otaxon va onaxonlarimizning yordami beqiyos ekanligini barchamiz yaxshi anglaymiz.

Bugungi kunda ham oilaviy ajrimlarning oldini olishda xalqimizning necha asrlik ushbu an'analardan samarali foydalanib kelinmoqda. Statistik ma'lumotlarga nazar tashlaydigan bo'lsak, joriy yil davomida ajralish yoqasiga kelib qolgan 11 490 ta shu kabi oilaning saqlab qolinishiga erishildi.

5865 ta notinch oilalardagi vaziyat esa nuroniylar va keng jamoatchilik vakillari aralashuvi bilan ijobiy tarfaga o'zgardi[4].

Albatta, bu kabi minglab oilalarning saqlab qolinishida bizning fidoyi va faol nuroniylarimiz, mahallalardagi katta hurmatga ega otaxonu onaxonlarning xizmati muhim ahamiyat kasb etadi. Mavzuning mantiqiy davomi sifatida aytish lozimki, joriy yilda nuroniy otaxonlar, onaxonlar va faol xotin-qizlarning "Oilaviy munosabatlarni mustahkamlash va inson hayotida oilaning o'rnini yanada oshirish" yuzasidan O'zbekiston yoshlariga Murojaati qabul qilindi. Shuningdek, haftaning shanba kuni mahallalarda "Ahil oila kuni" deb e'lon qilindi. Ushbu muhim tashabbuslarning hayotga joriy etilishi zamirida oilalar mustahkamligini ta'minlash mujassamdir.

Shu o'rinda aytish lozimki, keksa avlod vakillarining davlat va jamiyat hayotida, milliy urf-odat va an'analarni rivojlantirishdagi ijtimoiy faolliklarini oshirish maqsadida joriy yilning o'zida mahallalarda qator ma'naviy-ma'rifiy va targ'ibot tadbirlari tashkil etildi.

Joylardagi mavjud "Nuroniy jamoatchilik kengashi", "Keksalar maslahati" guruhi va "Buvijonlar maktabi" kengashi tomonidan ma'naviy muhit barqarorligini mustahkamlash hamda oilaviy ajralishlarni oldini olish maqsadida 13 124 marotaba shu kabi madaniy tadbirlar bo'lib o'tdi.

Yoshlarni turli huquqbuzarliklardan qaytarish, profilaktik hisobda turgan 3 274 nafar yoshlarni sog'lom muhitga jalb etish maqsadida shu toifadagi yoshlar ishtirokida 7 mingdan ortiq ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar o'tkazildi. Shu bilan birga keksa avlod vakillari tomonidan 97 nafar avf etilgan shaxslar va 5 865 ta notinch oilalar bilan muloqotlar o'tkazildi.

Mahallalarda "Bir nuroniy o'n yoshga -mas'ul" tamoyilini qaror toptirishda tashabbuskorlik ko'rsatib kelayotgan, ishsiz, tarbiyasi og'ir yoshlar bilan ishlashda faol nuroniylar moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlanmoqda.

Bugungi kungacha Toshkent viloyatida 124 mahallada 2108 nafar nuroniylar ishtirokida oilalarni mustahkamlash, yosh avlodni milliy qadriyatlarga hurmat qilish ruhida tarbiyalashga yo'naltirilgan targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, ularga 3514 nafar yoshlar jalb etildi[5].

Nuroniy aralashuvi bilan 13 ming 331 ta notinch oila yarashtirildi, 5264 nafar voyaga yetmagan profilaktik hisobdan chiqarilib, spirtli ichimlikka ruju qo'ygan 3253 nafar shaxsning bunday illatdan halos bo'lishiga erishildi[6].

Joriy yilda mahallalarda "Bir nuroniy o'n yoshga mas'ul" tamoyili asosida 16 ming 224 nafar nuroniylar tarbiyasi og'ir, ma'naviy ko'makka muhtoj va ishsiz 154 ming 218 nafar yoshga biriktirildi. Nuroniy takliflari asosida farzand tarbiyasiga salbiy ta'sir ko'rsatuvchi 2 ming 650 nafar ota-onadan 1 ming 964 nafari, profilaktik hisobdan chiqarildi. 3 ming 214 ta notinch oila yarashtirildi. Shuningdek, nuroniylar tomonidan 486 nafar yoshlarning o'qishlarini

tiklashda, 29 ming 117 nafarining ishga joylashishlariga ko'maklashildi[7].

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev bu haqda gaprib, "oilalarda tinchlik, mahallalarda obodlikni ta'minlash, yoshlarimizni tarbiyalashda biz avvalo ko'pni ko'rgan, donishmand nuroniylarimizga suyanamiz. Bu borada "uch avlod uchrashuvlari", "otalar jasorati –ibrat namunasi", "o'nta yoshga- bir nuroniy" harakati kabi ma'naviy – tarbiyaviy ishlarimiz samarasini yanada oshiramiz" degan edi[8].

Xulosa. Xullas shuni alohida takidlash joizki, mamlakatimizda keksa avlod vakillarining jamiyat hayotidagi

ijtimoiy faolligi hamda yoshlar tarbiyasidagi o'rni benihoya katta bolmoqda. Yoshi ulug', qariylarimizning yoshlarimizning hayotda o'z o'rinlariga ega bo'lishlari uchun zarur bo'lgan qimmatli maslahatlaridan bahramand bo'lish hamda shu yo'l bilan jamiyatdagi faolligini oshirishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Ayni vaqtda mazkur nuroniylar ishtirokida yoshlar ma'naviyatini oshirish, ularning vatanparvarlik tuyg'ularini kamol toptirish, milliy qadriyatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash borasida qator ishlar olib borilmoqda.

ADABIYOTLAR

1. Nuroniy gazetasi 2021.13.10.
2. Xalq so'zi gazetasi 2020.30.12.
3. <https://zamin.uz/uz/jamiyat/84539-keksa-avlod-vakillarini-qo'llab-quvvatlash-sohada-amalga-oshirilgan-islohotlar-aida.html>
4. Yangi O'zbekiston gazetasi 2021. 5.10.
5. Nuroniy gazetasi 2021.29.10.
6. Nuroniy gazetasi 2021.08.12.
7. Yangi O'zbekiston gazetasi 2022. 2.06.
8. XXI asr gazetasi 2023.31.05.



Xudoyqul MULKAMONOV,

Termiz davlat pedagogika instituti maktabgacha ta'lim fakulteti dekan o'rinbosari

E-mail: rustamkhurramov@mail.ru

TISU tarix fanlari nomzodi, dotsent F. Yormatov taqrizi asosida

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETIDA MUSTAQILLIK YILLARIDA JISMONIY TARBIYA VA SPORTNI RIVOJLANTIRISH TADBIRLARI VA ULARNING NATIJALARI

Аннотация

Mazkur maqolada mamlakatimiz janubiy viloyati Surxondaryoda 2017 - yilgacha yagona oliy ta'lim muassasasi bo'lgan Termiz davlat universitetida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish sohasidagi davlat siyosatining qanday amalga oshirilayotganligi, sohada qabul qilingan Qonunlar va Qarorlarning amalga oshirilishi ko'rsatib berildi. Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan mamlakatimizda jismoniy tarbiya va sportning rivojlantirilishiga va ommaviyligiga berilayotgan e'tibor va rag'batning natijasida yil sayin Termiz davlat universitetida ham sport sohasida katta yutuqlarga erishayotgan yoshlar ko'payib bormoqda.

Kalit so'zlar: Universiada, Basketbol, voleybol, futbol, stol tennisi, qo'l to'pi va shashka.

МЕРОПРИЯТИЯ ПО РАЗВИТИЮ ФИЗИЧЕСКОГО ВОСПИТАНИЯ И СПОРТА И ИХ РЕЗУЛЬТАТЫ В ТЕРМИЗСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ ЗА ГОДЫ НЕЗАВИСИМОСТИ

Аннотация

В данной статье показано, как реализуется государственная политика в области развития физического воспитания и спорта, а также реализация законов и решений, принятых в этой области, в Термезском государственном университете, который был единственным высшим учебным заведением в Сурхандарьинской области. южный регион нашей страны, до 2017 года. В результате внимания и поощрения, оказываемого Президентом Ш.Мирзиёевым развитию и популяризации физического воспитания и спорта в нашей стране, в Термезском государственном университете с каждым годом увеличивается количество молодых людей, достигающих больших достижений в области спорта.

Ключевые слова: Универсиада, баскетбол, волейбол, футбол, настольный теннис, гандбол и шашки.

PHYSICAL EDUCATION AND SPORTS DEVELOPMENT EVENTS AND THEIR RESULTS AT THE TERMIZ STATE UNIVERSITY DURING THE YEARS OF INDEPENDENCE

Annotation

This article shows how the state policy in the field of physical education and sports development is being implemented, as well as the implementation of the Laws and Decisions adopted in the field, at Termiz State University, which was the only higher education institution in Surkhandarya, the southern region of our country, until 2017. As a result of the attention and encouragement given by President Sh. Mirziyoyev to the development and popularization of physical education and sports in our country, the number of young people achieving great achievements in the field of sports at Termiz State University is increasing every year.

Key words: Universiade, basketball, volleyball, football, table tennis, handball and checkers.

Kirish. Mustaqillik yillarida Termiz davlat universitetida talabalarni sport sohasiga bo'lgan qiziqishlari va say'i harakatlari muntazam ravishda rag'batlantirilib kelingan. Universitet talabalarining muntazam sport bilan shug'ullanishlari uchun sharoitlar yil sayin yaxshilanib bordi. Bunga 1992 - yil 14 - yanvardagi O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni, 2000 - yil 26 - maydagi "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi Qonuni ikkinchi tahriri, 2015 - yil 5-sentabrda ushbu qonunning uchinchi tahriri qabul qilinishi katta ahamiyatga ega bo'ldi.

Biz xalqaro sport maydonlarida O'zbekistonning nufuzi va obro'-e'tiborini oshirishga katta hissa qo'shgan sportchilarimiz bilan faxrlanamiz. Shu bilan birga, oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham katta e'tibor berishimiz kerak, - degan edi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonda ta'limning boshqa sohalarida qatorida mustaqillik yillarida jismoniy tarbiya va sportni ham yo'lga qo'yish bo'yicha tegishli chora-tadbirlar amalga oshirildi. bu davrda Termiz davlat universitetida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish uchun imkoniyatlar keng yaratilishi natijasida talabalar orasidan Osiyo va jahon

championatlarida yuqori o'rnlarni egallagan sportchilar etishib chiqishi bilan birgalikda sportni ommaviylashtirishda ham yutuqlarga erishildi.

1994-1995 o'quv yilida talabalarining bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish uchun universitetda talabalar uchun 2 ta sport zali, stadion, boks xonasi va 2 ta sport kompleksi ishlab turdi. Bu sport maydonlarida murabbiylar J.Toshpo'latov, Q.Alimov, O'.Ibragimov, A.I.Sokolov, R.Raxmatov, I.Sharovlar na'munali xizmat ko'rsatib keldilar. Talabalardan I.Daminov, B.Arziev, B.Hasanovlar Osiyo birinchiligida Omsk shahrida o'tkazilgan turnirda kumush va bronza medallari sovrindorlari bo'lib qaytdilar.

Universitet professor-o'qituvchilari tomonidan talaba yoshlarni sportga targ'ib etuvchi ilmiy maqolalari bilan davriy matbuotda chiqishlar qilishdi. Termiz Davlat Universiteti dotsenti jismoniy tarbiya kafedrasini mudiri, Juma Toshpo'latovning "Eng katta sport bayrami" nomli maqolasi chop yetildi. Maqolada mamlakatimizda sportga keng imkoniyatlar yaratilayotganligi jumladan joriy yilda Jizzax viloyatining Forish tumanida milliy o'yinlar olimpiadasi o'tkaziladi. Sportning xalqaro turlari bilan birga Milliy kurash bo'yicha 1995-yilda Al - Hakim At-Termiziy xotirasiga bag'ishlangan xalqaro turnir musobaqalari o'tkaziladi. Olim

olimpiadaning 100 yillik yubileyi oldidan uning tarixiga to'xtalib quyidagilarni bayon qiladi: "Bizga ma'lumki birinchi olimpiada o'yinlari yeramizdan avvalgi 776 yilda Gresiyada o'tkazila boshlangan. Musobaqalar har to'rt yilda o'tkazilib turgan, ana shu to'rt yillik davr olimpiada deb atashgan. Shuni diqqatga molikki, olimpiada o'tkazilayotgan davrda urushlar to'xtatilgan.

1995-1996 o'quv yili talabalarning sport o'yinlari haftaligi bo'lib, sportning yetti turidan o'tkazildi. Basketbol, voleybol, futbol, stol tennisi, qo'l to'pi va shashka. universitet yotoqxonasida ham sportning basketbol, voleybol, boks, shaxmat-shashka musobaqalari o'tkazildi. Sportning olti turidan universitet professor o'qituvchilari va xizmatchilarining an'anaviy 18-sport o'yinlari bir oy davomida bo'lib ketdi. Unga 316 professor-o'qituvchilar va xodimlar qatnashdilar. Bu musobaqada umumiy komandalar hisobida rus filologiyasi fakulteti birinchi o'rinni, industrial-pedagogika fakulteti ikkinchi o'rinni va ximiya fakulteti uchinchi o'rinni olishdi.

Universitetda 1994-95 o'quv yilida sportning 14 turidan musobaqa o'tkazildi. Shu yilning o'zida talabalar va professor-o'qituvchilar 40 ga yaqin sport musobaqalariga qatnashdilar.

Milliy kurash bo'yicha 15-16 mart 1995 yil "Universiada-95" musobaqasida 96 nafar talaba qatnashdi. Basketbol bo'yicha 13-20 mart "Universiada-95" musobaqasida 240 nafar talaba qatnashdi.

Universitet komandasi 12 ta turli musobaqalarda shahar birinchiligida yuqori o'rinlarni egalladi. Jumladan basketbol bo'yicha shahar kubogida 5-8 aprel kunlari birinchi o'rinni egalladi. Voleybol (qiz va o'g'il bolalar) birinchi o'rinni egalladi. Al-hakim At-Termiziy xotirasiga bag' ishlangan kurash bo'yicha shahar birinchiligida 3-4 mart kunlari polvonlar B. Hasanov, I. Daminov, F. Qurbonovlar birinchi o'rinni egalladilar.

1995 - yil talabalarning sport o'yinlari ya'ni "Universiada-95" musobaqasi o'tkazildi. Shu musobaqaga 10 ta fakultetdan komandalar to'liq qatnashdilar. "Universiada-95" daturiga kiritilgan turalardan voleybol bo'yicha 24 komanda qatnashib, o'yinlar juda qiziqarli o'tdi.

Viloyat birinchiliklarida 10-11 mart kunlari Al-Hakim At-Termiziy xotirasiga bag' ishlangan musobaqada universitet polvonlari qatnashib, yakka kurash kafedrasida o'qituvchisi Z. Meliyev birinchi o'rinni egalladi. I. Daminov uchinchi o'rinni egalladi. Viloyatda sambo kurashi bo'yicha F. Qurbonov, I. Daminov, U. Mamadiyrovlar g'olib bo'ldilar.

Respublika musobaqalarida jumladan 7-9 aprel kunlari Termiz shahrida Al-Hakim At-Termiziy xotirasiga bag' ishlangan Xalqaro turnirda 5 ta talabamiz va bir nafar o'qituvchimiz qatnashdi. Bulardan Meliyev Zokir 3-o'rinni, U. Mamadiyrov 4-o'rinni egalladi. 1-5 iyunda Samarqand shahrida sambo kurashi bo'yicha Respublika birinchiligida F. Qurbonov 2-o'rinni R. Katogonov va I. Daminov 3-o'rinni olib qaytishdi.

1994 yil 1-7 noyabr kunlari Toshkent shahrida O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan trener S.L. Djekson xotirasiga bag' ishlangan boks musobaqasida jismoniy tarbiya kafedrasida o'qituvchisi Izmamatov Manon Bekovich birinchi o'rinni egalladi. Sport ustasi degan unvonni oldi. 6-12 fevral kunlari yoshlar o'rtasida boks bo'yicha respublika birinchiligida M. Qo'ldoshev birinchi o'rinni olib sport ustasi bo'ldi. A.A. Borzenko xotirasiga bag' ishlangan boks musobaqasida K. Hamroqulov va R. Galimovlar yaxshi qatnashib sport ustaligiga nomzod degan talabni bajardilar.

Samarqand shahrida "Talabalar bahori" ikkinchi festivali bo'lib o'tdi. Oblastimiz nomidan 12 nafar talaba qatnashdi. Sport musobaqalarida qatnashib Nasirova Venera 100 metrga yugurishda 2-o'rinni, uzunlikga sakrashda ham 2-o'rinni, egalladi 2 kurs ximiya bo'limi talabasi Eshonqulova

Hulkar uzunlikga sakrashda 3-o'rinni, 2-kurs biologiya bo'limi talabasi Xudoyqulova Qunduz 100 metrga yugurishda 2-o'rinni, Hakimova Nargiza 3-o'rinni egalladi. Shaxmat bo'yicha rus filologiyasi fakulteti talabasi Sobirova Zulfiya 2-o'rinni egalladi. Surxondaryo jamoasi sport o'yinlarida muvaffaqiyatli qatnashib O'zbekiston Yoshlar qo'mitasining Faxriy Yorliqlari bilan taqdirlandi.

1999 - yil universitet futbol jamoasi 1-davra o'yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etganligi uchun 19 nafar talaba universitet rektori prof. N.Y. To'raev buyrug' i bilan bir oylik stipendiya miqdorida rag' batlantirildi.

1999 - yil iyun oyida universitet futbol jamoasi Qiziriq tuman jamoasi ustidan 6-0 hisobida g'alaba qozonganligi uchun talaba sportchilar universitet tomonidan bir oylik stipendiya miqdorida moddiy rag' batlantirildi.

Universitet talabalar Jahon, Osiyo, Xalqaro va O'zbekiston chempionatlarida sportning turli yo'nalishlarida yuqori natijalarga ega bo'lishdi.

Universitetda jismoniy madaniyat fakultetida O. Begimqulov, Y. Doniyeva, B. Omonturdiyev, A. Ustoyev, Q. Haqnazarov, S. Xolmurodov, H. Sharipov, A. Haqqulov, R. Shaymardanov, N. Hakimova, I. Daminov, H. Rayimov, X. Berdiyeva, Sh. Xudoyberdiyev, G. Berdiyev, O. Salimovlar samarali mehnat qildilar.

Jismoniy madaniyat fakulteti talabasi Xudoynazarov Ramazon 2017 yil 15-28 aprel kunlari Toshkent shahrida bo'lgan shashkaning blits yo'nalishi bo'yicha O'zbekiston chempionatida qatnashib 1 - o'rin sohibi bo'ldi. Ayni shu sanalarda shashkaning rapid yo'nalishi bo'yicha Osiyo chempionatida qatnashib Sertifikat sohibi bo'ldi. Ushbu sportchi yana 3-10 fevral kunlari shashkaning rapid yo'nalishi bo'yicha Toshkent shahrida bo'lgan O'zbekiston chempionatida qatnashib 1 - o'rin sohibi bo'ldi.

Buxoro shahrida dzyudo bo'yicha 2017 yil 12-14 dekabr kunlari "Talaba uyushmalari respublika birinchiligi" da D. Meliev 90kg vaznda 3-o'rin, S. Jo'raeva 78 kg vaznda 3-o'rinni, J. Alimardonov 73 kg vaznda 3-o'rinni, Xamidjonov Madamin 81 kg vaznda 2-o'rinni, S. Egamberdiyev 100 kg vaznda 2-o'rinni, B. Amandavlatov 66 kg vaznda 1-o'rinni egalladi.

Samarqand shahrida kamondan otish bo'yicha 2017 - yil 17-25 fevral kunlari O'zbekiston qishki chempionatida Z. Qudratullaev M-4 mashqida 2-o'rinni egalladi [19].

Namangan shahrida dzyudo kurashi bo'yicha 2018 yil 20-23 fevral kunlari O'zbekiston chempionatida Universitet jismoniy madaniyat fakulteti talabasi M. Salohiddinova 44 kg vaznda 3-o'rinni, ushbu sportchi Bishkek shahrida 12-15 iyun kunlari Osiyo kubogida 3-o'rinni egalladi.

Toshkent shahrida O'zbekiston chempionatida kamondan otish bo'yicha 2018 yil 23-27 aprel kunlari jismoniy madaniyat fakulteti talabasi Z. Qudratullayev 1-o'rinni egalladi.

Dog'istonning Kaspiysk shahrida boks bo'yicha Xalqaro turnirda 2019 - yil 10-12 iyun kunlari jismoniy madaniyat fakulteti talabasi A. G'afforov 75 kg vaznda 3-o'rinni egalladi.

Namangan shahrida taekvondo kurashi bo'yicha 2019 yil 10-13 iyun kunlari Xalqaro turnirda jismoniy madaniyat fakulteti talabasi Abdullayeva Zarnigor 49 kg vaznda 1-o'rinni egalladi.

Qig'izistonning Issiqko'l shahrida 2019 yil 16-17 yanvar kunlari Karatedo-kumite bo'yicha 5-Xalqaro chempionat "Issik-kul OPEN-2019" da Termiz davlat universiteti jismoniy madaniyat fakulteti talabasi D. Aliqulova vaznda 1-o'rinni egalladi.

Toshkent shahrida O'zbekiston kubogida 2020 - yil 8-11 oktabr kunlari yengil atletika yarim marafon 10 km ga yugurish bo'yicha xalqaro chempionatda universitet jismoniy

madaniyat fakulteti II kurs 202-guruh talabasi V.Grishina 3-o'rinni egalladi. 2-o'rinni egalladi.

2021-yil viloyat oliygohlari sportchi talabalari kurash bo'yicha "Vazir kubogi" uchun o'tkazilgan musobaqalarda birinchi o'rinni egallashdi. Jamoaning asosini TerDU sportchilari tashkil etdi. TerDU rektori Avazjon Maraximov TerDU sport klubi a'zolari va murabbiylarini qabul qildi. Viloyatimiz talabalari 5 ta oltin 2ta kumush, 2 ta bronza medalini qo'lga kiritib respublika OTMLari o'rtasida tengsiz deb topilgan.

Tailandning Bangkok shahrida dzyudo bo'yicha Osiyo chempionati 2022-yil 21-22 iyul kunlari bo'lib o'tdi. Unda yuridik fakulteti talabasi J. Mamaraximov 90 kg vaznda faxrli 1-o'rinni egallab, chempionatning oltin medal sohibi bo'ldi. Termiz davlat universitetining jismoniy tarbiya va boshqaruv fakulteti 2-kurs talabasi O'.To'rboev ham 100 kgdan yuqori vaznda faxrli 2-o'rinni egalladi.

Psixologiya: amaliy psixologiya ta'lim yo'nalishi 2-kurs talabasi Korjaev Xasan erkaklar o'rtasida o'tkazilgan viloyat ochiq birinchiligi sport musobaqalarida shaxmat bo'yicha faxrli 3-o'rinni egalladi.

Talabalar bahori" talaba-yoshlar festivallari 2022 yil 31 may kuni ilk bora "o'tkazildi. Ushbu festivallar doirasi ko'rgazmalar, tanlovlar, "Rektor kubogi" sport musobaqalari tashkil etildi. Ushbu festivallarda jami 5000 ga yaqin talabalar qamrab olindi. "Rektor kubogi"da joriy yil 15-16 noyabr kunlari 17 ta yo'nalish bo'yicha sport musobaqalari va tanlovlar o'tkazildi. Unda jami 7 000 nafar talaba qamrab olindi.

Xulosa. Xulosa qiladigan bo'lsak Termiz davlat universitetida talaba yoshlar va ustoz murabbiylar orasidan ham sportning turli sohalarida viloyat , respublika va xalqaro musobaqalarda mamlakatimiz sharafigini himoya qilgan sportchilar ko'plab etishib chiqdi.Universitet viloyatda sportchilar tayyorlaydigan asosiy markazga aylandi.

ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasining Jismoniy tarbiya va sport to'g'risidagi Qonuni. O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1992 y., 3-son, 160-modda; 1994-y., 5-son, 161-modda
2. Mirziyoyev Sh. Oliy sportda erishilgan yutuqlar bilan chegaralanmasdan, ommaviy sportga ham kata e'tibor berishimiz kerak. Xalq so'zi. 2018 yil 20sentabr.
3. Karimov I. 2016 yil 11-fevral kuni Oqsaroyda O'zbekiston Bolalar sportini rivojlantirish jamg'armasi Homiylik kengashining navbatdagi yig'ilishi <https://darakchi.uz/uz/11396> (Murojaat qilingan sana .24.09.2023.).
4. O'zbekiston Milliy arxivi.M-130-Fond.
5. Toshpo'latov J. "Eng katta sport bayrami".1994 yil 21 aprelda Surxon tongi.№47 (15.803) sonida
6. O'zbekiston Milliy arxivi.M-130-Fond.Ro'yxat-1.352-ish.
7. Surxondaryo viloyat Davlat Arxivi (SVDA) 1232-Fond. 1-Ro'yxat.52-ish.
8. Termiz universiteti" gazetasi «Yil talabasi»2021 yil 26 fevral 3 (332) -soni 1-b.
9. Termiz davlat universiteti joriy arxivi.Jismoniy madaniyat fakultetining 2017 - yil ma'lumotlar yig'ma jildidan.
10. Termiz davlat universiteti joriy arxivi.Jismoniy madaniyat fakultetining 2018 - yil ma'lumotlar yig'ma jildidan.
11. Termiz davlat universiteti joriy arxivi.Jismoniy madaniyat fakultetining 2019 - yil ma'lumotlar yig'ma jildidan.



UDK:796.51:006.90

Dilnoza NAZAROVA,
TDPU O‘zbekistonning eng yangi tarixi kafedrasida tadqiqotchisi
E-mail: dilnoza.nazarova8080@gmail.com

Dotsent, t.f.n Amonova F.S taqrizi asosida

TURIZM INFRATUZILMASINI RIVOJLANISHIDA TOSHKENT MUZEYLARINING O‘RNI

Annotatsiya

Turizm mahalliy aholi hayotiga, uning moddiy va ma’naviy faoliyatiga, jamoaviy xulqiga, qiziqishlariga turli darajada ta’sir qiladi. Bu borada muzey va tarixiy yodgorliklarga bo‘lgan qiziqish alohida ahamiyatga molik.

Kalit so‘zlar: Turizm, infratuzilma, ekomuzey, audiogid, gadjetlar, konsepsiya, galereya, virtual.

РОЛЬ МУЗЕЕВ ТАШКЕНТА В РАЗВИТИИ ТУРИСТИЧЕСКОЙ ИНФРАСТРУКТУРЫ

Аннотация

Туризм по-разному влияет на жизнь местного населения, его материальную и духовную деятельность, коллективное поведение и интересы. В этой связи особое значение приобретает интерес к музеям и историческим памятникам.

Ключевые слова: Туризм, инфраструктура, экомузей, аудиогид, гаджеты, концепция, галерея, виртуальная.

THE ROLE OF TASHKENT MUSEUMS IN THE DEVELOPMENT OF TOURISM INFRASTRUCTURE

Annotation

Tourism affects the life of the local population, its material and spiritual activities, collective behavior and interests in different ways. In this regard, interest in museums and historical monuments is of particular importance.

Key words: Tourism, infrastructure, eco-museum, audio guide, gadgets, concept, gallery, virtual.

Kirish. Muzey turizmi muzeylar yo‘nalishlariga oid turli xil turistik mahsulotlarni ishlab chiqarish: ko‘rgazmalar tashkil etish, ichki va tashqi ekskursiyalarni shakllantirish, muzey do‘konlarini ochish, turli turistik tadbirlarda ishtirok etish va tashkil qilish kabi vazifalarni qamrab olgan. Bunday asosiy maqsad tashrif buyuradigan joyning madaniyati, aholining urf-odatlarini va ularning turmush tarzi, mahalliy aholining bo‘sh vaqtlarini mazmunli tashkil etish, qolaversa, yoshlarimizning ma’naviy immunitetini kuchaytirish, ularning bo‘sh vaqtini mazmunli o‘tkazish, ma’naviy-ma’rifiy sohalardagi ishlarni yangi tizim asosida yo‘lga qo‘yish bo‘yicha 5 ta muhim tashabbus doirasida sohani keng targ‘ib qilishdan iborat.

1960 - yillardan O‘zbekistonda turizm rivoji faol xarakteri boshlanib, mahalliy aholi uchun turizm xizmat dasturlarini ishlab chiqish va yo‘llanmalar tayyorlash bilan shug‘ullanuvchi O‘zbekiston Respublikasi Kasaba uyushmalari kengashining Turizm va ekskursiyalar bo‘yicha turistik ekskursiya boshqarmasi tashkil etildi. Ushbu boshqarma 1960–1973 yillarda turli nomlarda faoliyat yuritgan. 1964 - yil 13 - iyunda O‘zbekiston Ministrlar Soveti huzurida maxsus ob’ektlar, umumturistik ko‘rsatkichlar va ekskursiya xizmat shakllarini takomillashtirish maqsadida Chet el turizmi boshqarmasi tashkil etildi [1].

Yevropa davlatlarida 1950 - yillardayoq turizm sohasidagi shunga o‘xshash tashkilotlar o‘z faoliyatini shakllantirgan bo‘lib, ular bevosita sug‘urta agentliklari bilan hamkorlikda ish olib borar edi [2].

1946 - yilda faoliyati boshlangan IKOM (International Council of Museums) nomi bilan mashhur bo‘lgan Xalqaro muzeylar tashkiloti tuzildi. O‘zbekiston ushbu tashkilotga 1993 - yilda a‘zo bo‘ldi. Bu tashkilot bilan olib borayotgan hamkorlik aloqalarimiz natijasida xalqaro doirada o‘z ko‘rgazmalarimizni tashkil qilishga erishdik.

Tadqiqot metodologiyasi. 1983 - yil 27 - oktyabrda Chet el turizmi boshqarmasi O‘zbekiston Chet el turizmi Bosh boshqarmasi deb o‘zgartirildi. 1988 - yil 26 - iyunga kelib,

hukumat qarori bilan ushbu boshqarmaning faoliyati tugatildi. 1989 - yilda O‘zbekiston Ministrlar Soveti qoshida «Sayyoh-intur» xo‘jalik hisobidagi birlashmasi tashkil topdi [3].

2017 - 2027 yillarda davlat muzeylari faoliyatini takomillashtirish va moddiy-texnik bazasini mustahkamlash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Ushbu dastur doirasida davlat muzeylarining ishlab chiqiladigan yangi konsepsiya ishlab chiqildi. Konsepsiya doirasida muzeyga tashrif buyuruvchilar, hususan imkoniyati cheklangan shaxslar uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, turistlarga xizmat ko‘rsatishni rivojlantirish rejalashtirilgan. Muzeylarning ijtimoiy-madaniy qimmatini, ularning jamiyat va madaniyat o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirini ta’minlashdagi o‘rniga katta e’tibor qaratilgan. Shu jihatdan jahonda muzeylarni virtualashtirish amaliyoti ularning kolleksiyalari haqidagi ma’lumotlarni keng jamoatchilikka onlayn tarzda yetkazib berishning ommabop va tezkor shakli, muzey marketingining yangi, ilg‘or usuli sifatida jadal sur‘atlar bilan rivojlanmoqda. Hozirgi kunda muzeylar uchun muzey materiallarini namoyish etishning yangi usullari tadbir etildi, madaniy-ta’limiy faoliyatning noan’anaviy dasturlari ishlab chiqildi, maxsus muzey strukturalari, qiziqarli turizm dasturlari yaratildi. XX asr oxirida muzeyshunoslik sohasida “virtual muzey” iborasi kirib keldi. Virtual muzey foydalanuvchiga uch o‘lchovli zallarda harakat qilish, kerakli eksponatlar va ma’lumotlar bilan tanishishga imkon beradigan makon.

O‘zbekiston madaniy sayyohlik faoliyatida Turizm muzeylari, ekomuzey, virtual, korporativ va xususiy muzeylar yaratish, ekskursiyalarning zamonaviy usullarini tashkil etishda audiogid va gadjetlardan unumli foydalanish, elektron chiptalar tizimini joriy qilish, eksponatlarini QR-kodlar bilan ta’minlashi, virtual turlar tashkillashtirish, xalqaro turizm portallari va platformalarida reklama ishlarini amalga oshirish borasida rivojlangan davlatlar tajribasi qo‘llanila boshladi [4]. Respublikamizda 60 dan ortiq turli ixtisoslikdagi tarix, o‘lkashunoslik, badiiy, uy-muзей, memorial muzeylar, musiqa, adabiyot, muzey- qo‘riqxonalar, majmua muzeylar va

boshqa muzeylardagi kolleksiyalar asosini etnografik predmetlar tashkil qiladi. Ushbu muzeylarda 70 000 dan ziyod etnografik predmet va kolleksiyalar saqlanadi. Ulardan sopol buyumlar – 5000, metall – 2000, chinni – 1000, qurol-yarog' – 500, kashta – 3000 ta, zargarlik – 2500, kiyim- kechak – 10 000, gilam – 300, uy-ro'zg'or – 1000, mehnat qurollari mavjud [5]. Tashrif buyuruvchilarning etnomadaniy merosning moddiy ko'rinishiga va hunarmandchilik buyumlariga bo'lgan qiziqishi kundan-kunga ortmoqda. Natijada muzey tasarrufida savdo do'konlari tashkil etishga bo'lgan ehtiyoj vujudga keldi. 2017 - yil 20 - dekabrda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyini tashkil etish to'g'risida"gi Qaroriga ko'ra, amaliy san'at va milliy hunarmandchilikning bugungi kungacha saqlanib qolgan o'ziga xos maktablarning an'analari hamda amaliy san'at va hunarmandchilik asarlarini asrash, xalqaro miqyosda keng targ'ib etish, ilmiy o'rganish hamda kelajak avlodga yetkazish, «Hunarmand» uyushmasi bilan birgalikda muzeyda O'zbekiston Respublikasining mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilikning rivoji va erishgan yutuqlariga bag'ishlangan ekspozitsiya yaratish targ'ib qilish vazifasi yuklatilgan [6].

Tadqiqot natijalari. O'zbekiston davlat san'at muzeyida ham mamlakatimizning turli hududlarida hunarmandlarimiz tomonidan to'qilgan milliy gilamchilik ko'rgazmasi tashkil qilingan. Yurtimizning Farg'ona vodiysi, Samarqand, Surxondaryo, Buxoro va Xorazm viloyatlarida an'anaviy maktablar saqlanib qolgan va bugun ham ular muvaffaqiyat bilan faoliyat ko'rsatmoqda. Shu munosabat bilan mamlakatimizdagi gilamdo'zlik maktablari namunalari bir joyda to'plab, ular asosida alohida bir maxsus muzey tashkil qilish tashabbusi nafaqat milliy an'alarimizni asrab avaylashga, turizmni ham yanada rivojlantirishga xizmat qiladi.

Temuriylar tarixi davlat muzeyini Muzey faoliyati davrida Niderlandiyaning Leyden universitetida Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlab o'tkazilgan xalqaro konferensiya doirasida "Dunyo xazinalaridagi Temuriylarga oid javohirlar" fotoko'rgazmasi o'tkazildi. Qozog'istonning Turkiston shahridagi "Azret Sultan" davlat tarixiy-madaniy qo'riqxonamuzeyining taklifiga binoan 2018 - yilning 5 - iyulda "Temuriylar tarixi davlat muzeyi durdonalari" foto ko'rgazmasida ishtirok etdi [7]. Bunday ko'rgazlarni tashkil qilish va ishtirok etish orqali ma'naviy boyliklarimiz, qadimiy an'alarimizni dunyoga tarqib qilish va madaniyatimizni namoyish etish imkoni yaratildi.

2018 - yil 26 - avgustda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasida madaniyat va san'at sohasini innovatsion rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori e'lon qilindi [8]. Qaror ijrosini ta'minlash maqsadida 2018 - yil 14 - sentyabrda muzeyning "Zargarlik buyumlari" zalida "Media content" kompaniyasining Sensor qoplama innovatsion uskunasi o'rnatildi. Mazkur texnologiya dastlab Rossiya Federatsiyasidagi muzeylarda kuzatilsa endilikda O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida ham qo'llanilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 - yil 7 - fevraldagi PQ-3514-sonli qaroriga muvofiq Toshkent shahridagi turizm tomosha ob'ektlariga olib boruvchi yo'llar bo'yida belgilangan standartlar asosida 2 xil tildagi (o'zbek va ingliz tillarida) turistik yo'l ko'rsatkichlari o'rnatilish ishlari boshlangan. Loyiha doirasida G'afur G'ulom uy-muzeyi, Sergey Yesenin uy-muzeyi, Sergey Borodin uy-muzeyi, Abdulla Qahhor uy-muzeyi, Yunus Rajabiy uy-muzeyi, O'zbekiston davlat Tabiat muzeyiga olib boruvchi yo'llar bo'yida jami 82 ta turistik yo'l belgilari o'rnatildi.

Qo'shimcha xizmat ko'rsatish tashkilotlari: hunarmandchilik ustaxona-rastalari va milliy taomlar oshxonalari, ma'muriy-axborot markazining mehmonxonadan 300 metr uzoqlikda joylashishidan maqsad, Toshkentda turizmning rivojlanishi uchun turizm markazining qurilishida hissa qo'shishda faol ishtirok etishi bilan izohlanadi [9].

Madaniy turizmning o'ziga xosliklari o'tmishning boy merosini o'rganishga bo'lgan maxsus qiziqishga sayyohlar ulushining qisqarishi davomiyligini hisobga olib, turizm bozorida meros turizmi va mahsulotlarining ommalashgan shakli keng quloq yoza boshlaydi. Bularga: Sharhli-tanishuv turizmi, jonli madaniyat destinatsiyasi muhiti bir necha qadam oldinga siljigan bo'lsa-da, baribir hozirga qadar madaniy-tarixiy meros resurslari negizida va to'g'ridan-to'g'ri og'zako'z ilg'amaydigan tartibda axborot beruvchi bo'lib qolmoqda.

2017 - yil 19 - oktyabrda Toshkent shahrida joylashgan Haydar Aliyev nomidagi Ozarboyjon madaniyat markazida "Olovli mamlakat naqshlari" nomli gilamlar muzeyi ochildi. Muzey so'nggi texnologiyalar asosida jihozlangan. Muzey devorlardagi suratlarida gilam to'qish sirlari, gilamchilik tarixi, iplarga bo'yoq berishga doir videotasvirlar namoyish etiladi. Hatto muzeyning polida ham Ozarboyjon gilamlarining turli surat va video tasvirlarini ko'rish mumkin. Har bir qavatda muayyan bir gilamchilik maktabi namoyandasi muzey mehmonlari ko'z o'ngida gilam to'qib, qiziqish bildirganlarga bu borada bajonidil izoh beradi. Bu yerga tashrif buyurgan mehmonlar Ozarboyjon gilamlarining eng sara namunalarini tomosha qilish imkoniga ega bo'lishadi. Bundan tashqari, Gilam muzeyining birinchi qavatida turli gilamchalar, sholchalar, joynamozlar, ipak ro'mollar, turli milliy suvenirlar va esdalik sovg'alarini xarid qilish mumkin bo'ladi. Bu kabi siyosiy-madaniy islohotlar xalqaro munosabatlarini kengaytirish va turizm sohasi rivojlantirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda O'zbekiston tarixi davlat muzeyining xorij davlatlari bilan hamkorlik doiralari kengaymoqda. 2022 - yil 23 - noyabrda Parijdagi Luvr muzeyida «O'zbekiston vohalari xazinalari, "Karvon yo'llari chorrhasida» va Arab dunyosi institutida tashkil etilgan "Samarqandga yo'l, Ipak va oltin mo'jizalari" ko'rgazma namoyishida ishtirok etishi muzeyshunoslik tarixidagi eng muhim ahamiyatga ega voqea bo'ldi. Har yili 10 million sayyohni jalb qiladigan dunyodagi eng yirik san'at muzeylaridan biri bo'lmish Luvr muzeyida tashkil etilgan ko'rgazma namoyish 2023 - yilning 6 - martigacha davom etdi.

O'zbekiston va Fransiya muzeylari hamkorligini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi va Luvr muzeyi o'rtasida memorandum imzolandi. Bu ishlar natijasida Luvrning Rishle zali va Islom bo'limida xronologik ketma-ketlikda joylashtirilgan beshta bo'limdan iborat katta ko'rgazma makoni yaratildi. Bularga "Voha davlatlari va podshohliliklari davri: Ipak yo'lidagi madaniyatlarining muloqoti", "O'rta asrlar va san'atning gullab-yashnashi", "Markaziy Osiyoda islomning tarqalishi, madaniyat va fanda Uyg'onish davri", "Ibn Sinodan Chingizxongacha", "Buyuk imperiyalar davri: Temuriylar va Shayboniylar". Yurtimiz tarixining 1500 yildan ortiq davrini qamrab olgan ko'rgazma mamlakatimizning 16 muzeyidan 138 ta noyob ashyo, shu jumladan, ko'rgazma uchun maxsus restavratsiya qilingan 70 ta eksponatdan iborat[10]. Shuningdek, Fransiya, Buyuk Britaniya va AQSHning yirik muzeylaridan keltirilgan 31 ta buyum ko'rgazmadan joy oldi. Ko'rgazmaning ilk mehmonlari bo'lgan O'zbekiston va Fransiya yetakchilari Dalvarzintepa va Xolchayon yodgorliklaridan topilgan eksponatlar, Varaxshadagi qizil rangli xonadan devoriy surat, Kofirqal'adan o'ymakor panno, Katta Langar Qur'oni sahifalari, Amir Temur maqbarasidan qo'sh eshik,

Afrosiyobdagi elchilar tasviri tushirilgan devoriy surat va boshqa eksponatlar bilan tanishdilar.

2022 - yil 23 - noyabrda Parijdagi Arab dunyosi instituti va O'zbekiston Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Madaniyat va san'atni rivojlantirish jamg'armasi hamkorligida "Samarqandga yo'l. Ipak va oltin mo'jizalari" nomli ko'rgazma tashkil etildi. Unda O'zbekistonning XIX asr oxiri — XX asr boshlariga oid boy moddiy madaniyati taqdim etilgan. O'zbekistonning 9 ta eng yirik muzeylaridan 300 dan ortiq eksponat ilk bor Fransiyada keng xalqaro jamoatchilik e'tiboriga havola etiladi. Ko'rgazma 2023 - yil 4 - iyun kuniga qadar davom etadi. Ko'rgazmadan Nukus, Samarqand, Buxoro va Toshkent muzeylaridan keltirilgan to'qimachilik buyumlari, libos va poyabzallar, bosh kiyim to'plamlari, shuningdek, Turkiston avangardi yo'nalishiga mansub 24 ta mo'yqalam asari o'rin olgan. Tayyorgarlik doirasida 89 ta zargarlik buyumlari restavratsiya qilindi [11]. Hunarmand ajdodlarimizning yuksak ijodiy tafakkuri va mahoratidan dalolat beruvchi ushbu buyumlarning rang-barangligi va nafosati dunyo ahliga hayrat uyg'otdi.

2023 - yil 4 - mayda Germaniya poytaxti Berlin shahridagi Jeyms Simon galereyasida "O'zbekistonning

arxeologik xazinalari. Makedoniyalik Iskandardan Kushonlar saltanatigacha" nomli noyob ko'rgazma ochildi.

2024-yil 14-yanvar kuniga qadar davom etadigan ko'rgazmada Berlin davlat muzeylari to'plamlaridan 65 ta va O'zbekiston muzeylari to'plamlaridan 285 ta eksponat namoyishga qo'yilgan. Ularning ko'pi mamlakatimiz tashqarisida ilk bor ko'rsatilmoqda.

Ko'rgazma mamlakatimizning qadimiy va boy madaniyati, bugungi O'zbekiston va Markaziy Osiyo hududida joylashgan ilk davlatlarning miloddan avvalgi VI asrdan milodiy IV asrgacha davrni qamrab olgan. Bu yerdagi durdonalar orasida Kushon saltanatining Dalvarzintepa va Holchayon qo'rg'onlaridan topilgan aslzodalar, askar va badavlat ayollar haykallari bor.

Xulosa. Muzeylarda yangi fan-texnika yutuqlaridan foydalanish ya'ni muzeylarni virtualashtirish orqali boy merosimizni xalqqa va xorijga keng targ'ib qilish imkoniyatlari yaratiladi. Bu esa o'z ornida O'zbekiston turizmining rivojlanishi va sayyohlar oqimi ko'payishining asosiy omillaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. ЎзР МДА. Р-837 жамғарма, 41-рўйхат, 4169-иш, 92-варақ.
2. Мухамедова М. Ўзбекистоннинг тарихий шаҳарларидаги музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истикболлари (XX асрнинг II ярми – XXI аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – Б 13.
3. Мухамедова М. Ўзбекистоннинг тарихий шаҳарларидаги музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истикболлари (XX асрнинг II ярми – XXI аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – Б 14.
4. Мухамедова М. Ўзбекистоннинг тарихий шаҳарларидаги музейлаштирилган объектларда туризмнинг шаклланиши ва ривожланиш истикболлари (XX асрнинг II ярми – XXI аср бошлари). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. – Тошкент, 2019. – Б 21.
5. Орифжоновна Г. XIX – XX аср бошларига оид Ўзбекистон этномаданий меросини сақлаш, тадқиқ этиш ва намойиш этишнинг тарихий-маданий жиҳатлари. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. автореф. – Тошкент. 2021. – Б.18.
6. "Ўзбекистон амалий санъат ва хунармандчилик тарихи давлат музейини ташкил этиш тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси 2017 йил 20 декабрда қабул қилинган қарори // <https://lex.uz/docs/3469398>
7. Курбанова Д. Жаҳоннинг йирик музейларида Ўзбекистонга оид коллекцияларнинг шаклланиши ва уларни комплекшлаш тамойиллари. Тарих фанлари доктори (DSc) дисс. автореф. – Тошкент. 2020. – Б. 28.
8. "Ўзбекистон Республикасида маданият ва санъат соҳасини инновацион ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 8 августда қабул қилинган қарори // <https://lex.uz/docs/3882752>
9. Мухамедова М. Маданий туризм тарихи ва назариясининг тадқиқот, тарғибот тамойиллари. – Тошкент. 2018.- Б.103.
10. Ўзбекистон – Франция: ўзаро ҳамкорликнинг янги даври // Янги Ўзбекистон. №239. 2022 йил 23 ноябрь.
11. Остонов Ж. Францияда улуғвор тарихимиз бўй кўрсатмоқда // Янги Ўзбекистон. №239. 2022 йил 23 ноябрь.



Naim OBLOMURADOV,
Toshkent moliya instituti professori, t.f.d.
E-mail: naim_oblomuradov@mail.ru

T.f.d., professor A.Ermetov taqrizi asosida

REFORM IN THE HIGHER EDUCATION SYSTEM – PRIORITIES TO ENSURE QUALITY AND EFFICIENCY

Annotation

The article highlights the reforms in the sphere of higher education in Uzbekistan and priority tasks of ensuring quality and efficiency in this sphere. The article analyzes the legal basis for ensuring the effectiveness of the national system of higher education, priority tasks of the state policy in the sphere of higher education. The achievements in the sphere of higher education in the conditions of new Uzbekistan and the results of reforms in this direction are revealed in the socio-historical context. Socio-philosophical aspects of the best practices, problems and solutions in the sphere of higher education are highlighted.

Key words: Law on Education, "Year of Care for Humanity and Quality Education", Development Strategy, Concept of Higher Education System Development until 2030, academic independence, financial independence, credit-modular system, Bologna educational process, "University 3.0" concept.

РЕФОРМЫ В СИСТЕМЕ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ – ПРИОРИТЕТЫ ОБЕСПЕЧЕНИЯ КАЧЕСТВА И ЭФФЕКТИВНОСТИ

Аннотация

В статье освещены реформы в сфере высшего образования в Узбекистане и приоритетные задачи обеспечения качества и эффективности в этой сфере. Анализируются правовые основы обеспечения эффективности национальной системы высшего образования, приоритетные задачи государственной политики в сфере высшего образования. Достижения в сфере высшего образования в условиях нового Узбекистана и результаты реформ в этом направлении раскрываются в социально-историческом контексте. Освещены социально-философские аспекты лучших практик, проблем и решений в сфере высшего образования.

Ключевые слова: Закон об образовании, «Год заботы о человеке и качественного образования», Стратегия развития, концепция развития системы высшего образования до 2030 года, академическая независимость, финансовая независимость, кредитно-модульная система, Болонский образовательный процесс, концепция «Университет 3.0».

OLIY TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR – SIFAT VA SAMARADORLIKNI TA'MINLASHNING USTUVOR VAZIFALARI

Annotatsiya

Maqolada O'zbekistonda oliy ta'lim sohasidagi islohotlar hamda ushbu sohada sifat va samaradorlikni ta'minlashning ustuvor vazifalari yoritilgan. Milliy oliy ta'lim tizimi samaradorligini ta'minlashning huquqiy asoslari, oliy ta'lim sohasidagi davlat siyosatining ustuvor vazifalari tahlil etilgan. Yangi O'zbekiston sharoitida oliy ta'lim sohasida qo'lga kiritilgan yutuqlar va mazkur yo'nalishdagi islohotlar natijalari ijtimoiy-tarixiy kontekstda ochib berilgan. Oliy ta'lim sohasidagi ilg'or tajribalar, muammo va yechimlarning ijtimoiy-falsafiy jihatlarini yoritilgan.

Kalit so'zlar: Ta'lim to'g'risidagi qonun, «Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili», Taraqqiyot strategiyasi, oliy ta'lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi, akademik mustaqillik, moliyaviy mustaqillik, kredit-modul tizimi, Bolonya ta'lim jarayoni, "Universitet 3.0" konsepsiyasi.

Kirish. Zamonaviy hayotni bugun ilm-ma'rifat va ta'lim taraqqiyotsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Jahonning yetakchi davlatlarida ta'limni rivojlantirish birinchi galdagi vazifa sifatida belgilanishi ham bejiz emas. Negaki, mamlakatning kelgusi ravnaqi aynan shu sohada qo'lga kiritgan yutuqlari bilan chambarchas bog'liqdir. Ta'lim o'ziga xos soha bo'lib, u ikki yoqlama tavsifga ega. Bir tarafdin u xalqning ma'naviy va madaniy ehtiyojlarini qondirishda bevosita ishtirok etsa, ikkinchi tarafdin esa oliy ta'lim tizimi faoliyat ko'rsatishi orqali mehnat bozoriga malakali ishchi kuchini yetkazib beruvchi soha bo'lib hisoblanadi.

So'nggi yillarda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Oliy Majlisga Murojaatnomalari va 2017-yil 7-fevral kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, "Yoshlarga oid Davlat dasturi", yangi tahrirdagi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 29-

oktyabrdagi "Ilm-fan va ilmiy faoliyat to'g'risida"gi O'RQ-576-sonli qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktyabrdagi "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-6097-son Farmonlari mamlakatimizda ta'lim va ilm-fan sohasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etdi.

Xususan, ta'lim tizimida qabul qilingan eng muhim hujjatlardan biri bu – "Ta'lim to'g'risida"gi Qonunning yangi tahrirda qabul qilinishi bo'lib, mazkur Qonunga asosan ta'lim sohasidagi asosiy prinsiplar, ta'lim tizimi, turlari va shakllari aniq belgilab qo'yildi.

2023-yil mamlakatimizda "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb e'lon qilindi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, - "Inson qadri degan g'oyani hech qachon unutmasligimiz kerak. Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili deb e'lon qilishimiz, agar buni chuqur tahlil qilsak, juda ko'p o'ylandik, nimalar qo'yish mumkin, deb. Albatta, kechagi qilgan ishimiz bilan bugungisining davomiyliqi, bardavomligi bo'lishi kerak. Bardavomlik nuqtayi nazardan, yana va yana

Inson qadri degan g'oya yillarga qo'shib davom etishi kerak. Shuning uchun "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim" deb nom qo'ydik". Insonga qachon e'tibor bo'ladi? Ta'lim, ta'lim, ta'lim va yana bir marta ta'lim. Men olti yil oldin shu masalalarga chuqur e'tibor qilib, birinchi kundan beri ta'limimiz haqida ko'p gapiraman. Agar ta'lim bo'lsa, bilim bo'lsa, sifat o'zgaradi. Ta'lim bo'lmasa, sifat o'zgarmasa, e'tibor ham o'zgarmaydi», — deya ta'kidladi Shavkat Mirziyoyev [1].

Mamlakatimizda 2019-yilning oktyabrida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi [2]. Konsepsiyada oliy ta'lim tizimini rivojlantirishning strategik maqsadlari belgilandi.

Shuningdek, ushbu hujjatda intellektual taraqqiyotni jadallashtirish, raqobatbardosh kadrlar tayyorlash, ilmiy va innovatsion faoliyatni samarali tashkil etish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash maqsadida fan, ta'lim va ishlab chiqarish integratsiyasini rivojlantirish singari vazifalar asos qilib olindi. Konsepsiya mazmuni mamlakatimiz oliy ta'lim tizimini isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini aks ettiradi. Unda oliy o'quv yurtlarida qamrov darajasini kengaytirish hamda ta'lim sifatini oshirish, raqamli texnologiyalar va ta'lim platformalarini joriy etish, yoshlarni ilmiy faoliyatga jalb qilish, innovatsion tuzilmalarni shakllantirish, ilmiy tadqiqotlar natijalarini tijoratlashtirish, xalqaro e'tirofga erishish hamda boshqa ko'plab aniq yo'nalishlar belgilab berilgan. Bularning barchasi ta'lim jarayonini yangi sifat bosqichiga ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti o'z murojaatnomasida - "Ta'lim sifatini oshirish – Yangi O'zbekiston taraqqiyotining yakka-yu yagona to'g'ri yo'lidir.

Yusuf Xos Hojib bobomiz aytdanlaridek:

"Zakatov bor joyda ulug'lik bo'ladi,

Bilim bor joyda buyuklik bo'ladi".

Shuning uchun ushbu sohada boshlagan islohotlarimizni davom ettirishimiz, ta'lim dargohlariga borib, o'qituvchi va murabbiylar bilan ko'proq muloqot qilib, o'quv-tarbiya ishlari sifatini oshirish bo'yicha ular qo'ygan masalalarni birgalikda hal etishimiz kerak" [3] – deya ta'kidlagan edi.

Shuningdek, murojaatnomada qayd etilganidek, - "so'nggi yillarda oliygohlarimiz 2,5 barobar ko'payib, 198 taga yetdi, qamrov darajasi 9 foizdan 38 foizga oshdi. Biz bu raqamlarni yanada ko'paytirishni maqsad qilganmiz. Lekin, ta'lim sifati nima bo'ladi, degan savol hammamizni o'yantirishi kerak. Avvalambor, bunga har bir oliygoh o'zi harakat qilishi lozim, o'shanda natija bo'ladi.

Bu borada 41 ta oliygohga akademik va moliyaviy mustaqillik berildi, ularda transformatsiya ofislari ochildi. Oliyogoh rektorlari, professor va o'qituvchilar bu jarayonlarda faol bo'lishlari, yangi, ilg'or metodikalarni joriy qilishlari kerak" [4].

Sohada islohotlarni izchil davom ettirish maqsadida 2026-yilga qadar Taraqqiyot strategiyasi doirasida oliy ta'limda qamrov darajasini 50 foizga, nodavlat oliy ta'lim muassasalari sonini kamida 50 taga yetkazish belgilab olindi [5].

Mamlakatda ta'lim sohasidagi islohotlar, yoshlarni ta'lim tizimi bilan qamrab olish borasida amalga oshirilgan dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Jumladan, World Population Review tomonidan 2021-yilda eng savodli mamlakatlar reytingini tuzish uchun 154 mamlakatdagi holatni tahlil qilgan. Reytingga ko'ra O'zbekiston savodxonligi 100 foizni tashkil qilgan 4 ta mamlakatlardan biridir [6].

Tahlil va natijalar. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan oliy ta'lim tashkilotlari uchun akademik va tashkiliy, shuningdek, moliyaviy mustaqillikning berilishi hamda Kengashlar vakolatlarining kengayotgani

ta'lim sohasidagi davlat siyosatini amalga oshirish, sifatli ta'lim xizmatlarini ta'minlash va bu borada Prezident hamda hukumatimiz belgilab bergan vazifalarni to'la-to'kis ado etish orqali mamlakatimiz taraqqiyotini belgilab beruvchi salohiyatli kadrlar tayyorlashga keng imkoniyatlar yaratadi.

Moliyaviy mustaqillik berilayotgan oliy ta'lim muassasalariga standart normativlardan farqli o'laroq, o'z xususiyatidan kelib chiqib, normativ-huquqiy hujjatlarni ishlab chiqish va kuzatuv kengashlari orqali tasdiqlatib, amaliyotga joriy etish vakolati berildi. Bu vakolatlarining berilishi oliy ta'lim muassasalarida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash va ta'lim sifatini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur oliy ta'lim muassasalari bundan buyon o'zining strategik rivojlantirish dasturlari, biznes rejalarini hamda daromad va xarajatlar parametrini mustaqil shakllantirib, kuzatuv kengashlari muhokamasidan o'tkazib, amaliyotga joriy etish imkoniga ega bo'ldi [7].

2022-2023 o'quv yilidan boshlab, akademik va moliyaviy mustaqillikka ega oliy ta'lim muassasalari to'lov-shartnoma asosida qabul parametrlarini ta'lim bozoridagi talab va takliflardan hamda ilmiy salohiyati va moddiy-texnik bazasidan kelib chiqib, mustaqil belgilab kelmoqda. Bu bilan mehnat bozorida iqtisodiyot tarmoqlari uchun zarur bo'lgan mutaxassislarni kadrlar buyurtmachisining talabi asosida tayyorlashga zamin yaratilmoqda.

Ta'lim tizimida iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlaridan biri ta'lim muassasalarining sifatini oshirishdan iborat. Ta'lim sifati uni iste'molchiga ko'rsatuvchi ta'lim muassasalari faoliyatini samarali tashkil etishga bog'liqdir. Ayni paytda ta'lim sifatini oshirish yo'li bilan uning raqobatbardoshligi ta'minlanadi.

Ta'lim tizimining raqobatbardoshligi bu ta'limning talablarga javob berish qobiliyati va ularning bozorda sotilishidir. Ushbu jarayonlar asosida ma'lum tavsifdagi ehtiyojlarni qondirish imkoniyatlarini beruvchi xususiyatlar yotadi. Ta'limning raqobatbardoshligi ularni boshqa shu turdagi ta'lim muassasalariga solishtirish asosida aniqlanadi. Bu asosan quyidagi ikki parametr orqali amalga oshiriladi: ta'limning aniq ehtiyojga mosligi va bu ehtiyojni qondirish xarajatlari.

Hozirgi davrda mamlakatimiz ta'lim tizimi iqtisodiy munosabatlarni takomillashtirishning zarurligi fan-texnika taraqqiyoti, iqtisodiy globallashtirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini ta'minlash bilan bog'liqdir. Shu bilan birga ta'lim majmuasini ustuvor rivojlantirish iqtisodiy o'sishining yuqori sur'atlariga erishish asosida aholi farovonligini oshirishning zaruriy sharti bo'lib hisoblanadi [8].

Ushbu maqsad va vazifalarining ijrosi asos-e'tibori bilan pedagog o'qituvchilarning fidoyilik va tashabbuskorlik, vatanparvarlik va mas'uliyatlilik, kreativlik va bilimdonlik fazilatlarini talab darajasiga ko'tarish, yangi ishga qabul qilinayotgan mutaxassislarning ana shu mezonlar asosida to'g'ri tanlanishiga bog'liq. Saviyasi baland mutaxassis sifatli mahsulot ishlab chiqaradi. Yaxshi urug' noshud dehqonning qo'lga tushsa, uning unishidan umid qilmasa ham bo'ladi. Talaba uchun qancha sharoit yaratilmasin, unga yetarli bilim berilmasa, o'qituvchining bilimi talabani qoniqtirmasa uning fanga bo'lgan qiziqishi susayadi, iqtidor alangasi so'nadi. Shunday ekan, oliy ta'lim islohotlarining bugungi bosqichida e'tiborimiz markazida turishi lozim bo'lgan eng muhim yo'nalish - ta'lim sifatini yaxshilashning shartlaridan biri bo'lgan pedagog kadrlarni tanlash tizimini to'g'ri yo'lga qo'yishdir. Bunda oliy o'quv yurtlarida faoliyat ko'rsatayotgan professor-o'qituvchilarning salohiyatini oshirish, pedagoglarning yangi avlodini tezroq tayyorlash va ularni ishga qabul qilishning shaffof va ochiq mexanizmlarini tadbiq etish muhim ahamiyatga ega [9].

Tadqiqot metodologiyasi. Ta'lim tizimini isloh qilish, uni takomillashtirish va sifat darajasini oshirish yo'lida

ustuvor vazifalar sifatida, dunyodagi eng ilg'or mamlakatlar bilan tajriba almashish, global ta'lim jarayonlarida faol ishtirok etish, hamda o'qituvchi va talabalar oldida turgan sun'iy to'siqlarni bartaraf etish hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishishning samarali yo'llaridan biri sifatida Bolonya jarayoniga qo'shilish bo'lib, zero yopiq sharoitlarda ta'limni rivojlantirib bo'lmasligini ko'plab mamlakatlarning tajribasidan bilib olish mumkin [10].

Mamlakatimizda ilmiy kadrlarni tayyorlash bo'yicha ham muayyan muammolar mavjud. Ilmiy kadrlar tayyorlash yoki ilmiy daraja berish tizimi jahon andozalariga to'liq mos kelmaydi. Oxirgi yillarda bu sohada ham ko'p islohotlar qilindi, lekin jahon tizimiga integratsiyalash, ya'ni ilmiy malakali kadrlarni tayyorlash va ularga ilmiy daraja berish masalasida ham Oliy attestatsiya komissiyasi bilan birga yangi tizimni shakllantirish taqozo qilinmoqda. Oliy ta'lim muassasalarida akademik bandlik darajasini oshirish muhim. Har bir professor-o'qituvchining o'z brendiga aylangan predmeti bo'lishi talab qilinadi. Bu bo'yicha ham tashkiliy islohotlar sari qadamlar qo'yilgan bo'lib, bunda abituriyent muayyan universitetning o'z tanlagan yo'nalishida nufuzli professorming qo'lida o'qiyman, degan orzular bilan o'qishga kirishga tayyorlanadi.

O'z navbatida, har bir oliy ta'lim muassasalarining ham o'z brendi bo'lishi zarur hisoblanadi. Talabalar qaysidir soha uchun brendga ega bo'lgan oliy ta'lim muassasalarini tanlagan holda, o'zi qidirib kelishi lozim. Oliy ta'lim muassasalarida iqtidorli yoshlarni o'qitish uchun o'zaro kurashishi kerak. Agar shunday tizim yaratilsa, sifat o'z-o'zidan ta'minlanadi. Oliy ta'lim muassasalarining o'z an'analari shakllanadi. Chunki, ular nafaqat bilim o'chog'i, balki tarbiya maskani ham hisoblanadi. Universitetlarda turli sohalarni qamrab olgan talabalar kengashlari, jamiyatlari faoliyati yo'lga qo'yiladi. Oliy ta'lim muassasalarida shakllangan an'analari bitiruvchilarni, ularning oilalari va farzandlarini ma'nan birlashtirishi, ular orqali umuminsoniy qadriyatlar jamiyatimizga singdirilishi muhim.

Jahondagi aksariyat yetakchi tadqiqotlar universitetlari insoniy xaxiraning yuqori sifati, ya'ni: professor-o'qituvchilar tarkibining malakasini doim oshirib borish; ish beruvchilar hamda ilmiy ishlanmalardan foydalanuvchilar bilan hamkorlik qilib, bilimlar va ilg'or innovatsiyalarni keng yoyish; muassasaning o'z zamonaviy ilmiy-tadqiqot hamda tajriba o'tkazish infratuzilmasiga ega bo'lishi kabi ko'rsatkichlar bilan ajralib turadi. Shuningdek, unda akademik, moliyaviy, tashkiliy va kadrlar masalasidagi mustaqillik nuqtayi nazaridan avtonom boshqaruv modeli ham mavjud bo'lishi kerak. Bunda ilg'or xorij tajribasini o'rganish maqsadga muvofiq hisoblanadi [11].

Bugungi kunda an'anaviy o'qitish tizimining salbiy jihatlaridan voz kechish va xalqaro standartlar talablari

doirasida ishlarni tashkil etish bo'yicha dastlabki qadamlar qo'yilmoqda. Hozirgi kunda mamlakatimizning oliy ta'lim muassasalarida kredit-modul tizimiga o'tish bo'yicha ishlar jadallik bilan olib borilmoqda. Barcha kuchlar ushbu tizimni yaratishga safarbar etilyapti. Mazkur tizimning oliy ta'limga joriy qilinishi o'qitish sifatini oshirish, shaffoflikni ta'minlash, korrupsiyaga barham berish, ta'lim oluvchining haqiqiy bilimni yuzaga chiqarish hamda talabani mustaqil o'qib-o'rganib, o'z ustida ishlashiga zamin yaratadi. Shu jihatdan, bugungi kunda Yevropa kredit tizimi ko'hna qit'aning deyarli barcha oliy o'quv yurtlarida amaliyotga joriy etilgan.

Kredit-modul sharoitida oliy ta'lim sifatini baholash bo'yicha Yevropa standartlari alohida e'tiborga molik. Ushbu standartlar sifatini ta'minlash, dasturlarni ishlab chiqish, o'qishga qabul qilish, o'zlashtirish, talabalar safidan chiqarish, tan olish, sertifikatlash, professor-o'qituvchilar tarkibi va boshqa masalalarni qamrab oladi.

Oliy ta'lim bo'yicha global trendlardan kelib chiqish ta'lim sifatini jahon standartlariga moslashtirishga imkon beradi. Ta'lim jarayonida qo'llanilayotgan sun'iy intellekt, onlayn bilim berish tizimi va virtual reallik texnologiyalari o'quv jarayoni sifatini yangi bosqichga olib chiqadi. Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini ichki baholashda Ta'lim sifatini nazorat qilish bo'limlari muhim o'rin tutadi. Ushbu bo'limlarning vazifalarini takomillashtirish, yurtimizdagi nufuzga va namunali tajribaga ega oliy ta'lim muassasalarini tajribasini qo'llagan holda ta'lim sifatini ta'minlash va ichki nazorat qilish tartibi hamda "Ta'lim sifati" kuni kabi tajribalarni ommalashtirish muhim ahamiyatga ega.

Xulosa va takliflar. Xulosa sifatida ta'kidlash joizki, ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlashda bugungi globalizatsiya jarayonlariga qo'shilish, jahon hamjamiyatiga integratsiya qilish mamlakatimiz kelajagi uchun juda muhim hisoblanadi. Ta'lim dunyoviy ilmiy-intellektual, badiiy-estetik va ma'naviy-axloqiy madaniyat yutuqlarini o'zlashtirish jarayonidir va haqiqiy ta'lim milliy-davlat chegaralarini tan olmasdan jahon tajribalariga asoslangan bo'lishi har qanday davlat kelajagi uchun kuchli omildir. Bugun yurtimizda yoshlar uchun misli ko'rilmagan imkoniyat va sharoitlar yaratilmoqda. Davlatimiz yoshlarni kelajagi uchun har tomonlama chuqur o'ylangan siyosat yuritmoqda. Ayniqsa, ta'limga e'tibor juda kuchli. Boisi, yurt taraqqiyoti va erangi kunini sifatli ta'lim-tarbiya olgan, keng mushohada yurita oladigan, yuksak salohiyatga ega yoshlar belgilaydi. Yurtboshimiz, xalqimizning bunday yuksak ishonchini oqlagan holda, yaratilayotgan sharoit va imkoniyatlarni qadrlab, undan har tomonlama unumli foydalanishlari har bir yosh avlodning Vatanimiz va mamlakatimiz ahli oldidagi insoniy burchi sanaladi.

ADABIYOTLAR

1. <https://www.gazeta.uz/uz/2022/12/20/sifatli-talim/>
2. <https://lex.uz/docs/4545884>
3. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
4. <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
5. <https://strategy.uz/index.php?news=1725>
6. Abdurashidova N. Bugungi kunda o'zbekistonda ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar. Academic Research in Educational Sciences Volume 3 | Issue 10 | 2022
7. <https://yuz.uz/news/oliy-talim-yuksalish-yolidagi-muhim-qadamlar>
8. Raxmonov N., Boydedayev D. Milliy iqtisodiyotni rivojlantirishda oliy ta'lim tizimining roli. Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2020-yil.257-265 b.
9. <https://edu.uz/uz/news/view/2655#gsc.tab=0>
10. Болонский процесс 2020 - Европейское пространство высшего образования в новом десятилетии. Высшее образование в России 2009 г. № 7 стр. 156-162.
11. <https://xs.uz/post/ta'lim-tizimi-islohotlari-o'zbekistonda-yangi-uyg'onish-davri-poydevorini-yaratadi>



УДК: 61(575.1+470)(09)

Тимур РАИШЕВ,

докторант PhD Национального университета Узбекистана

E mail: timur.raishev@mail.ru

<https://orcid.org/0000-0001-7086-5032>

Рецензент – М.Маматова – доктор философии по истории (PhD), старший преподаватель КарГУ

РАЗВИТИЕ ФАРМАЦИИ В ТУРКЕСТАНСКОМ КРАЕ ВО ВТОРОЙ ПОЛОВИНЕ XIX – НАЧАЛЕ XX ВЕКА

Аннотация

В данной статье на основе комплексного изучения архивных материалов и научной литературы исследуется история развития фармацевтического дела в Туркестанском крае в имперский период. Анализу поддается состояние фармацевтики в крае до прихода сюда Российской империи и последствий влияния имперской колонизации на эту отрасль. Кроме того, большое внимание в исследовании уделено роли провизора Иеронима Ивановича Краузе, как первого зачинателя фармацевтической отрасли в Туркестане.

Ключевые слова: Туркестан, Российская империя, фармацевтика, аптеки, военная медицина, Иероним Иванович Краузе.

XIX ASRNING IKKINCHI YARMI – XX ASR BOSHLARIDA TURKISTON HUDUDIDA FARMATSEVTIKA RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Ushbu maqolada arxiv materiallari va ilmiy adabiyotlarni har tomonlama o'rganish asosida imperatorlik davrida Turkiston hududida farmatsevtika ishining rivojlanish tarixi o'rganiladi. Rossiya imperiyasi bu erga kelguniga qadar mintaqadagi farmatsevtika holati va imperatorlik mustamlakasining ushbu sohaga ta'siri oqibatlarini tahlil qilinadi. Bundan tashqari, tadqiqotda provizor Ieronim Ivanovich Krauzening Turkistonda farmatsevtika sanoatining birinchi asoschisi sifatida roliga katta e'tibor qaratildi.

Kalit so'zlar: Turkiston, Rossiya imperiyasi, farmatsevtika, dorixonalar, harbiy tibbiyot, Ieronim Ivanovich Krauze.

THE DEVELOPMENT OF PHARMACY IN THE TURKESTAN REGION IN THE SECOND HALF OF THE XIX – EARLY XX CENTURY

Annotation

In this article, based on a comprehensive study of archival materials and scientific literature, the history of the development of pharmaceutical business in the Turkestan region during the imperial period is investigated. The analysis lends itself to the state of pharmaceuticals in the region before the arrival of the Russian Empire here and the consequences of the influence of imperial colonization on this industry. In addition, much attention in the study is paid to the role of pharmacist Hironim Krause as the first initiator of the pharmaceutical industry in Turkestan.

Key words: Turkestan, Russian Empire, pharmaceuticals, pharmacies, military medicine, Hironim Krause.

Введение. Проблематика российской имперской колонизации Центральной Азии второй половины XIX – начала XX в. остается актуальна в исследованиях по туркестановедению. Однако, в виду рассмотрения столь обширной тематики, порой, вне фокуса остаются такие вопросы, как: история развитие в Туркестанском крае фармации [17] в контексте военной медицины в имперский период. Как отметил Президент Узбекистана Ш. М. Мирзиёев «...мы должны принимать все этапы нашей истории как единое целое и всесторонне изучать их» [1]. Целью данной статьи является осветить на основе архивных данных, источников и научной литературы развитие фармацевтического дела в крае в период его нахождения в составе Российской империи.

Степень изученности. Для проведения историографического анализа нами были использованы работы А. И. Добросмыслова, Ш. Б. Мухамеджанова, М. Ю. Сорокиной, Г. Огудина.

Исследование базируется на теорико-методологических разработках, принципах научного познания, применяемых в исторической науке: историзме, объективности, научности, а также методах источниковедческого и компаративного анализа. Также важной методологической основой для статьи послужила

«Стратегия развития Нового Узбекистана 2022 – 2026 гг.», с целью дальнейшего развития и пропаганды истории нашей страны [2].

Анализ и результаты исследования. Издавна на территории Средней Азии (Туркестанского края) развивалась народная медицина, вобравшая в себя методы мистицизма, эмпирического и религиозного врачевания. Изготовлением и продажей лекарственных средств занимались табибы или атторы – «аптекари». Для приготовления лекарственных снадобий, основным сырьем была различная продукция растительного, животного происхождения, минералы, как местные, так и привозимые из зарубежья: Аравийского полуострова, Персии, Афганистана, Индии, Китая [14, с 23–30].

Российская колонизация Туркестана во второй половине XIX в. привнесла с собой изменения в многовековой уклад жизни местного населения, в том числе и в области медицины и фармацевтики. До 1874 г. в Ташкенте была всего одна аптека при военном госпитале, которая в силу своего специального назначения, не только не удовлетворяла потребности в медикаментах местного населения, но и маленькой группы русского населения.

Один из основателей общественной медицины и фармакологии в Туркестанском крае был Иероним

Иванович Краузе (1845–1909 гг.). В 1869 г. И. И. Краузе после окончания слушаний лекций в Московском университете, выдержал испытание на степень провизора. В начале 1870 г. прибыл в Туркестан для исследования вновь открытых в Кокандском ханстве нефтяных месторождений близ Намангана [12, с. 159–160.]. В 1869 г. он был избран действительным членом Императорского Общества любителей естествознания, антропологии и этнографии при Московском университете (ИОЛЕАЭ), а в 1871 г. стал членом его Туркестанского отделения. Местная флора и особенно лекарственные растения всегда были в центре интересов провизора Краузе. Так же он исследовал минеральные источники, например 12 февраля 1871 г. И. И. Краузе на заседании Туркестанского отдела ИОЛЕАЭ сообщил о нахождении горячего минерального источника Адрашан вблизи селения Аблык, недалеко от Коканда, водами которого местное население успешно лечилось от кожных болезней. Краузе, стремился выделять рациональное зерно в народной медицине, собирая и используя ее опыт в своей фармацевтической практике. В 1873 г. после возвращения из Хивинского похода и при поддержке местных властей, в марте 1874 года была открыта первая городская аптека, первым заведующим которой стал провизор Иероним Иванович Краузе.

И. И. Краузе открыл в Ташкенте первую общественную аптеку, которой заведовал на протяжении шести лет. В 1880 г., по личной инициативе учредил в Туркестанском крае первую вольную аптеку [3]. Кроме того, он безвозмездно помогал медикаментами ташкентскому детскому приюту, был попечителем городской больницы [15, с 93–95]. В 1874 г. И. И. Краузе получил право на поступление в гражданскую службу на штатное место по фармацевтической части. Согласно Ведомости служащих при Ташкентской общественной городской аптеке годовой оклад управляющего аптекой Краузе составлял 1500 руб [13].

Целью открытия городской аптеки было бесплатное снабжение медикаментами больных из числа местного населения. В последствие администрация разрешила вновь открытой аптеке продажу медикаментов русскому населению. Также аптекой выдавались лекарства на бесплатной основе: детям, обучающимся в городских училищах, призываемым в богадельне, находящимся в родильном покое, детским приютам и в городскую тюрьму. В дальнейшем аптечное дело в Ташкенте разрослось и стало приносить ощутимую прибыль.

Таблица 1. Сведения об отпуске лекарств городской аптекой за период 1874 – 1886 гг.

| Отпущено медикаментов | Годы | | | | | | | | | | | | | Всего |
|-----------------------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|------|-------|
| | 1874 | 1875 | 1876 | 1877 | 1878 | 1879 | 1880 | 1881 | 1882 | 1883 | 1884 | 1885 | 1886 | |
| Рубли | | | | | | | | | | | | | | |
| За деньги | 2762 | 5677 | 7144 | 9241 | 8749 | 9623 | 3612 | 2964 | 2333 | 1978 | 2050 | 1974 | 4522 | 62629 |
| Бесплатно | 444 | 1034 | 1273 | 1920 | 1098 | 1289 | 1467 | 1903 | 2015 | 2497 | 4505 | 5242 | 6744 | 31428 |

Таким образом, в среднем в год выдавалось лекарств на $4817 \frac{8}{13}$ руб., и выдавалось бесплатно на $2417 \frac{7}{13}$ руб. [8].

Таблица 2. Показатели расходов на аптеку с 1878 по 1887 гг.

| Годы | | | | | | | | | Всего |
|-------|------|------|------|-------|------|------|------|------|-------|
| 1878 | 1879 | 1880 | 1881 | 1882 | 1883 | 1884 | 1885 | 1886 | |
| Рубли | | | | | | | | | |
| 13546 | 9897 | 4446 | 4721 | 10444 | 4105 | 5390 | 5071 | 9122 | 66742 |

С апреля 1899 года заведующим аптекой стал (отставной статский советник) Карл Богданович Бетгер, благодаря которому в городской аптеке была налажена современная постановка дела [8, с. 331]. В своей докладной записке Ташкентский городской голова Н. Г. Маллицкий отмечал, что «в 1908 г. на аптеку истрачено 51939 рублей. Получено дохода наличными 40241 руб. плюс 3865 руб., полученных за лекарства в городских амбулаториях. Сверх того, бесплатно отпущено лекарств в городские лечебные заведения, для дезинфекции, чинам полиции, школьникам, бедным, публичным женщинам, а равно сделана скидка до размеров заготовительной стоимости лекарств различным учреждениям благотворительного характера и недостаточным лицам на сумму 32757 руб. За незначительную приплату в 6834 руб. город щедро снабжает свои лечебные и санитарные учреждения лекарствами высшего качества, выписываемыми непосредственно из-за границы и от лучших фирм России». В 1908 г. запасы лекарств, материалов и аптечной посуды увеличились на 2979 руб., а их общая стоимость к 1-му января достигла 31598 руб., а стоимость инвентаря достигла 7725 руб. Как коммерческое предприятие, аптека принесла городу чистой прибыли в 1905 году - 8153 рубля, в 1906 году - 6684 рубля, в 1907 году - 6833 рубля, в 1908 году - 10068 рублей» [10]. В 1910 году бесплатно отпущено лекарств, перевязочных средств и других предметов на 38059 рублей (заготовительная цена 19075 рублей). Доход в этом году равнялся 58851 рублю и расход 60701 рублю и,

таким образом, разность в 1850 рублей составила весь расход города за 1910 год на медикаменты для городских лечебных заведений, для дезинфекции и выданных бесплатно [8].

При аптеках открывались различные специализированные лаборатории, например, в сентябре 1907 г. при городской аптеке был открыт химико-бактериологический кабинет, который возглавил магистр фармации П. К. Карпов. Оборудование химико-бактериологического кабинета позволяло исследовать анализы больных холерой. При участии окружного военно-медицинского инспектора А. А. Несслера в городском химико-бактериологическом кабинете производились первые точные и тщательные анализы наличия холерных вибрионов, а также исследования арычной воды на предмет пораженности ее холерными микробами. Благодаря деятельности кабинета осенью 1908 г. ташкентские врачи боролись с холерой [10].

В 1908 году кабинет произвел 549 исследований, в том числе 293 для городских учреждений и 256 по требованиям частных лиц. В 1909 году произведено исследований 405, в том числе по требованиям частных лиц 340. В 1910 году произведено исследований 852, из них для городских нужд 248 (в том числе холерных 147) и по требованию частных лиц 604 [8]. Маллицкий отмечает, что аптечное дело ни в Самарканде, ни в Верном по постановке дела, по размерам оборотов были не сравнимы с ташкентскими, а также нигде в них не было химико-бактериологических кабинетов [10].

С 1 января 1910 года аптека переехала в новое здание, находящееся на улице Романовского (ул. Буюк Турон). 16 февраля 1910 года Туркестанским обществом естествоиспытателей и врачей при аптеке открыта амбулатория с платою за совет 40 коп. Здесь же производится и оспопрививание. В 1910 году в амбулатории получили консультации у врачей 3229 человек [8].

Все же необходимо отметить, что несмотря на развитие аптекарского дела, в Туркестанском крае параллельно продолжали осуществлять деятельность традиционные аптеки - дорихона. Это было связано с открытием небольшого количества аптек европейского типа в старых районах города, стоимостью лекарств, не все из которых были бесплатными, а также особенностью мировоззрения местных жителей и языковым барьером.

Следует отметить, что в рассматриваемый период в Туркестане открываются частные аптеки. 25 января 1880 года провизор И. И. Краузе открыл по своей инициативе первую такую аптеку – «Соборную», при которой в апреле 1907 г. создал химико-бактериологический кабинет, а также первую в крае хорошо оборудованную частную лечебницу для приходящих больных [15]. В 1911 году аптека была куплена Кабыльничкиным. 3 октября 1895 г. Государем императором было официально разрешено «принятие и ношение» пожалованных ему Его Светлостью Эмиром Бухарским Бухарских орденов Бухарской золотой Звезды 3-й степени [16]. Также в Ташкенте существовали такие аптеки, как: Махрамская, Пушкинская, Ташкентская аптека Марголиной. 1 ноября 1905 г. И. И. Краузе открыта Махрамская аптека. С 3 сентября 1906 года при ней была организована амбулатория, в которой работало 8 врачей. Прием начинался с 8-00 часов утра и оканчивался в 19-00 часов вечера. Плата осуществлялась следующим образом: за советы до 12 часов дня – 30 коп., после 12 часов дня 50 коп. Число обращающихся за медицинской помощью скоро достигло 10000 человек в год. С 8 августа 1909 года Махрамская аптека, как и Соборная перешла Б. И. Краузе [6].

Пушкинская аптека была открыта в 1902 году на Обуховском проспекте фирмой «Филипп Каплан и сыновья», с 1906 года она переехала на Пушкинскую улицу (проспект Мустакиллик). Изначально Ташкентская аптека Марголиной располагалась в «туземной» части города около базара, в махалля Хадра и являлась отделением Пушкинской аптеки. Однако, с переходом в 1908 году к Марголиной стала частной. В октябре 1911 года с разрешения начальства аптека была перенесена в европейскую часть города в дом № 7 – 9 по Куйлюкской улице (ул. Истикбол). Кроме того, в конце 1911 года была открыта аптека провизором Л. Н. Циперсоном в доме Цапура на углу Куйлюкской и Варваринской улице (ул. Фидокор). Обороты частных аптек достигают 100000 рублей в год [8].

Фармацевтическое дело в Ташкенте насчитывало также и аптекарские магазины, и оптовый торговый склад аптекарских товаров [5]. С 1887 г. был устроен Ташкентский военно-аптечный магазин (на углу Куропаткинского проспекта (ул. Шахрисабз) и Ремесленной улицы (проезд Шахрисабз), данное заведение снабжало медикаментами и перевязочными средствами все лечебные, военные заведения, а также части войск Туркестанского военного округа. Первый частный такой магазин был открыт Бобровским в 1894 г. на Кауфманском проспекте (ул. Махтумкули и ул. Сайилгох), который 7 января 1897 г. купил Ф. Каплан. Чуть позже им был открыт оптовый склад аптекарских товаров. Скоро там же, на проспекте И. И. Краузе открыл

такой же магазин (просуществовал недолго). К 1910 году помимо вышеуказанных заведений в городе осуществляли деятельность 16 магазинов [4]. Важно отметить следующий факт, что в «старом» городе не было ни одного аптечного магазина, так как, там в основном торговля лекарственными снабжениями осуществлялась на базарах в специальных лавках – дорихонах. Большинство этих магазинов было сосредоточено в "новой" части города, но их количество не оправдывало столь значительных цифр. Многие из этих магазинов занимались деятельностью далекой от фармацевтики: брались лечить людей, а также торговали продукцией, не имевшей отношения к аптечному делу: галантерейными, москательными [11] и др. предметами. Годовые обороты аптекарских магазинов доходили до 100000 руб., а оптового склада Ф. Каплана 500000 руб. [8].

На рубеже XIX – начале XX вв. частные аптеки стали открываться и в областных пунктах. Первая частная аптека появилась в 1893 году в Казалинске и существовала до 1904 года, когда была закрыта за отсутствием работы. В 1908 году аптека была вновь открыта бывшим кантонистом [9] Александром Ильичем Ильиным. Как указывает Добросмыслов, как ранее, так и теперь аптека, владельцу дохода не приносила [7]. В 1902 году в Перовске открылась аптека, а в 1907 году открыли аптекарский магазин. Частная аптека впервые появилась в Туркестане 1 марта 1905 года, ее открыл Шмульт Аронович Барон. В 1895 году в Аулие-Ата открылись частная аптека Мартишевского и два аптекарских магазина. В Чимкенте аптека была открыта в 1905 году Можайко, а в 1908 году он же открыл аптекарский магазин. В 1911 году фельдшер Каравайкин открыл второй аптекарский магазин [7].

Заключение. На основании проведенного нами исследования можно констатировать, что накануне завоевания Туркестанского края Российской империей в регионе развивалось фармацевтическое дело, основанное на традиционной медицине местного населения и достижениях среднеазиатских и восточных медиков, химиков, фармацевтов. После завоевания императорской Россией Туркестанского края в регионе начинает развиваться аптечное дело европейского типа. Учитывая специфику военного управления Туркестанским краем, первые аптеки появляются при военно-медицинских учреждениях. Долгое время единственная аптека при Ташкентском военном госпитале обеспечивала медикаментами как, военных так и местное население. Снабжением медикаментами всех лечебных, военных заведений и частей ТуркВО занимался Ташкентский военно-аптечный магазин. В 1874 была открыта городская аптека, бесплатно снабжавшая лекарствами местное население, различные социальные учреждения, а также выдавала на платной основе лекарства русскому населению. Большое значение имело открытие в Ташкенте при аптеках первых химико-бактериологических кабинетов (1907 г.), где проводились исследования воды, различных инфекционных заболеваний, а также оспопрививание. Заказчиками данных санитарно-эпидемических исследований выступали как городские власти, так и частные лица. Большой вклад в развитие аптечного дела Туркестана внесли И. И. Краузе, К. Б. Бетгер, П. К. Карпов. На рубеже XIX – начала XX в. в Туркестане начинают открываться частные аптеки. Параллельно с деятельностью аптек европейского типа в Туркестане продолжали существовать традиционные дорихона, куда местное население обращалось гораздо чаще. В целом развитие аптекарского дела в Туркестанском крае в имперский период имело важное значение популяризации среди местного населения

российской медицины, основанной на европейском опыте, имперской политики. и являлось еще одним этапом в проведении российской

ЛИТЕРАТУРА

1. Мирзиёев Ш.М. Мы должны принимать все этапы нашей истории как единое целое и всесторонне изучать их. Новости Узбекистана. // URL: <https://podrobno.uz/cat/obchestvo/my-dolzhy-prinimat-vse-etapy-nashey-istorii-kak-edinoe-tseloe-i-vsestoronne-izuchat-ikh-shavkat-mir/>
2. Указ Президента Республики Узбекистан О Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы от 28 января 2022 г. № УП-60. // URL: <https://lex.uz/docs/5841077>.
3. Аптека вольная – аптека для обеспечения населения лекарственными средствами по ценам аптекарской таксы, учрежденная в системе земского и городского самоуправления дореволюционной России.
4. Аптекарские магазины: на Кауфманском проспекте – Рабинович-Ридника, Бек-Назарова; на ул. Романовского – Кацмана, Юзефовича, Разамата, Арбелова, Захаренко; на Махрамском проспекте (ул. Ислама Каримова) – Кабыльничкого, Бек-Назарова; на Иджарской ул. (ул. Заравшан) – Розенеля; на Старо-Госпитальной ул. (ул. Афрасиаб) – Циперсона; на Мариинской ул. (ул. Нукус) – Щепкина; на Московском проспекте (ул. Амира Темура) – Соловейчика, Ф. Каплана; на Пушкинской ул. – Руф и Ф. Каплана.
5. Аптечные магазины и склады имеют назначением снабжать войска и лечебные заведения в. сухопутн. и морск. вед.: предметами медицинского и ветеринарного довольствия, а также хранить неприкосновенные медицинские и ветеринарные запасы военно-врачебных заведений воен. времени. При каждом таком магазине имела лаборатория для приготовления лекарств и препаратов.
6. Борис Иеронимович Краузе (1879– ? гг.) – один из 3-х сыновей И. И. Краузе. // См. напр.: Краузе: древо рода. URL: <https://rgfond.ru/rod/286327>
7. Добросмыслов А. И. Города Сырдарьинской области. Казалинск, Перовский, Туркестан, Аулие-Ата и Чимкент. – Т.: Эл.-пар. типо-лит. А. О. Порцева, 1912. – 204 с.
8. Добросмыслов А. И. Ташкент в прошлом и настоящем. Исторический очерк. – Т.: Эл.-паров. типо-лит. О.А. Порцева, 1912. – 520 с.
9. Кантонист – солдатский сын, со дня рождения числившийся за Военным ведомством и подготавливаемый к военной службе в особой, низшей военной школе в Российской империи первой половины XIX в.
10. Маллицкий Н. Докладная записка о деятельности Ташкентского городского общественного управления // Туркестанские ведомости. 1909, № 165, 168, 171, 174, 176-178, 180-182, 184-187.
11. Москательные товары – краски, клеи, технические масла и другие химические вещества, как предмет торговли.
12. Мухамедов Ш. Б. Некоторые аспекты изучения истории Центральной Азии / Мухамедов Ш. Б; АН РУз, Институт истории. – Т.: Adabiyot uchqunlari, 2016. – 216 с.
13. НАУз. И-1. Оп. 20. Д. 7472. Л. 10.
14. Огудин В. Л. Народная медицина Средней Азии и Казахстана. – М.: Изд-во Ганга, 2021. – 538 с.
15. Сорокина М. Ю. Туркестанский пленник // Природа. № 8. 2005. – С. 91–95.
16. Туркестанские ведомости. № 91.
17. Фармация – аптечное дело. / См. напр.: Энциклопедический словарь Брокгауза Ф. А и Ефрона И. А. В 82 т. Т. XXXV. / Под ред. К. К. Арсеньева, Ф. Ф. Петрушевского. – СПб., 1902. – С. 318.